Агросервиснинг ўзига хос хусусиятларидан бири, ушбу соҳанинг қўшимча қиймат яратишдаги ролининг катталиги билан ҳам изоҳланади. Чунки агросервис соҳаси фақат қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш билан чекланмай, балки техника хизмати, логистика, қайта ишлаш, сақлаш, агроконсалтинг каби йўналишларни қамраб олади. Бу эса ишлаб чиқариш занжирида қўшимча қиймат яратиб, аҳоли даромадларини оширишга хизмат қилади.

Агросервис соҳасини ривожлантириш орқали бандлик ва ишсизлик муаммосини ҳал этишдаги аҳамияти ҳам катта. Ушбу ҳудудда доимий ва мавсумий иш ўринлари яратилади, ўзини ўзи банд қилиш имкониятлари кенгаяди, Мазкур соҳага ёшлар ва хотин-қизлар тадбиркорликка жалб этилади.

Буларнинг ҳаммаси ишсизлик даражасини пасайтириш, камбағалликни қисқартириш орқали ижтимоий барқарорликни таъминлашда муҳим омил ҳисобланади.

Шу жиҳатдан, агросервис соҳасини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш масаласига бағишланган ушбу мақола бугунги кунда ижтимоий-иқтисодий, институционал ва амалий аҳамиятга эга бўлган ўта долзарб илмий-амалий муаммолардан бири ҳисобланади.

Тадқиқот методологияси. Мақолада агросервис соҳасини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш йўлларини қараб чиқиш жараёнида тизимли ёндашув, индукция ва дедукция, анализ ва синтез, қиёсий таҳлил, замон ва макон, абстракт фикрлаш, монографик ва мантиқий ёндашув каби усуллардан фойдаланилган. Мавзунинг долзарблигидан келиб чиқиб, тегишли амалий тавсияларни ҳам ишлаб чиқилган ва бунда мантиқий ёндошувлардан ҳам фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Агросервис соҳасида кам сармоя талаб қилувчи фаолият турлари орқали камбағал аҳолини иқтисодий фаолликка жалб этиш имконияти ҳам очилади. Булар иссиқхона хўжалиги, томорқа хизмати, қишлоқ хўжалиги техникасини ижарага бериш ва бошқалар камбағал аҳолини иқтисодий жараёнларга жалб этиш имконини беради. Ушбу йўналиш давлат сиёсатининг устувор йўналишлари билан уйғунлашган ҳолда барча соҳаларга ижобий таъсир қилади. Зеро, Ўзбекистонда камбағалликни қисқартириш, қишлоқ хўжалигини диверсификация қилиш ва хизматлар соҳасини ривожлантириш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Шу туфайли агросервис соҳасини ривожлантириш мазкур мақсадларга тўлиқ мос келади ва амалий самара беради.

Мамлакатнинг барқарор ривожланиши ва озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш масаласи ҳам бевосита агросервис соҳаси билан боғлиқдир. Агросервис соҳасининг ривожи қишлоқ хўжалиги самарадорлигини ошириш, озиқ-овқат маҳсулотлари ҳажмини кўпайтириш ва уларнинг сифатини яхшилашга хизмат қилади. Бу эса аҳоли фаровонлигини ошириш орқали камбағалликни қисқартиришда муҳим аҳамият касб этиши исбот талаб қилмайдиган ҳақиқатдир.

Камбағалликни қисқартиришнинг йўлларидан бири қишлоқ жойларда аҳолининг томорқаларидан самарали фойдаланиш билан боғлиқ. Бу ишни ташкил қилиш бўйича амалга оширилган ишлар Самарқанд вилоятида эътиборга лойиқ. Чунки аҳоли томорқаларидан самарали фойдаланишда, томорқадан йилига 2-3 марта ҳосил олиш, бир маҳалла-бир маҳсулот тамойили, ўз ўзини банд қилиш борасида бир қатор ишлар амалга ошириб келинмоқда.

Бундай самарали иш 2022-йилда бошланган бўлиб, шу йилнинг ўзида ҳосили учун 631 минг 444 та аҳоли хонадонларидаги 69 минг 569 гектар томорқа ерларида мавсумий экинлар экиш, жумладан, 23.9 минг гектар тўқсонбости, 57 минг 404 гектар эртаки, 33 минг 292 гектар ўртаки (такрорий) экинлар экиш ишлари ташкил қилиниши белгиланган эди. Бу мувоффақият билан амалга оширилди..

Тўқсонбости экинларидан 315 минг 208 тонна, баҳорги экинлардан 1 млн 29 минг 669 тонна, ўртаки (такрорий) экинлардан 489 минг 879 тонна жами вилоят бўйича аҳоли томорқаларидан 1 млн 834 минг 756 тонна (ўтган йилга нисбатан 121.1 фоизга зиёд), шундан 1 млн 200 минг 156 тонна сабзавот, 399 минг 426 тонна картошка, 88 минг 330 тонна полиз, 31 минг 568 тонна дуккакли ҳамда 115 минг 275 тонна бошқа турдаги қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирилади.

Шунингдек, аҳоли томорқаларига 2022-йил ҳосили учун 33 минг 292 гектар майдонларга ўртаки (такрорий) экинлар (18 минг 858 гектар сабзавот, 4 минг 365 гектар картошка, 813 гектар полиз, 5 минг 571 гектар дуккакли ҳамда 3 минг 685 гектар бошқа экинлар) экиш бўйича “маҳаллабай дастурлар” ишлаб чиқилиб, тасдиқланди. Буу ҳам тегишли тарзда амалга оширилди.

Натижада шу йилнинг ўзида 18 минг 389 гектар (55.2 фоиз) томорқаларга ўртаки экинлар жумладан, 10 минг 500 гектар (55.7 фоиз) сабзавот, 441 гектар (54.3 фоиз) полиз, 388 гектар (8.9 фоиз) картошка, 4 минг 638 гектар (83.2 фоиз) дуккакли ҳамда 2 минг 422 гектар (65.7 фоиз) бошқа турдаги қишлоқ хўжалиги экинлари экилди. Вилоят бўйича 2022 йилда 11 минг 280 та хонадонда (8 минг 122 хонадонда намунавий ва 3 минг 158 хонадонда маҳаллий хом ашёдан) жами 147 гектар майдонга иҳчам иссиқхоналар қуриш белгилди. Бу ҳам бир қанча аҳолининг камбағалликдан чиқишига сабаб бўлди.

2022-йилнинг 8-июль ҳолатига 8 минг 565 хонадонда (5 минг 947 та хонадонда намунавий ҳамда 2 минг 618 та хонадонда маҳаллий хом ашёдан)

жами 100.7 гектар майдонга ихчам иссиқхоналар ташкил этилган эди Шу билан вилоят бўйича 52 минг 601 та хонадонда жами 548.8 гектар майдонда иҳчам иссиқхоналар ташкил қилинди. Шу тариқа томорқадан самарали фойдаланиш йилига икки-уч марта ҳосил оладиган хонадонлар сони йилдан-йилга кўпайиб бормоқда. Жумладан: 1 марта ҳосил оладиган ҳонадонлар 27 фозни, 2 марта ҳосил оладиган хонадонлар 59 фоизни ҳамда 3-4 марта ҳосил оладиган ҳонадонлар 17 фоизни ташкил қилмоқда.

Бунга бир қача мисоллар бор. Жумладан, Самарқанд тумани Жуйи Аббос маҳалласидаги Ҳайдаров Бобур 24 сотих томорқасида, шундан икки сотихи иссиққхона, 700-750 кг лимон етиштиради, қолган майдонларда 2 тонна картошка ва сабзавот маҳсулотлари етиштиради, 125 туп ток 19 туп мевали дарахт, 4 та йирик шохли 62 та майда шохли чорва моллари, 15 бош хонаки парранда парваришлайди, йилига 60-65 млн сўм даромад олиб келмоқда. Бундай мисолларни кўплаб келтириш мумкин. Муҳими ҳар бир инсонда, ҳар бир оилада интилиш бўлиши керак. “Интилганга – тол ёр”, деб бежиз айтилмайди. Афсуслар бўлсинким, айрим одамлар жисмонан бақувват, имкониятлари бор, бироқ ўзининг биринчи галда, ўзига бефарволиги, масъулиятсизлиги туфайли, камбағал яшаш кўникмасига эга бўлиб қолишган.

“Бир маҳалла - Бир маҳсулот” тамойили асосида 2022 йил давомида 482 та маҳаллалар бир хил турдаги қишлоқ хўжалиги махсулотларини етиштиришга ихтисослаштирилади. Чунки буни битта фермер хўжалиги сотиб олиб, бир хил маҳсулотни хорижий мамлакатларга экспорт қилади. Шу йилда бошланган бундай хайрли тадбирлар ҳозир ҳам давом этмоқда ва сезиларли даражада фойда олинмоқда. Бу ҳам аҳолининг фаровонлигини ошириб, камбағалликнинг қисқаришига кўмак бўлмоқда.

Ушбу тадбирлар бошланган 2022-йилнинг 1-июль ҳолатига 312 та МФЙ 91 минг 339 та хонадон, 7 минг 566 гектар томорқа майдонлари бир турдаги маҳсулот етиштиришга ихтисослаштирилди. Жумладан: 146 та маҳалла 3 минг 310 гектар сабзавотчилик, 49 та маҳалла 1 минг 244 гектар картошкачилик, 20 та маҳалла 610 гектар полиз, 77 та маҳалла 1 минг 968 гектар мевачилик ва боғдорчилик, 7 та маҳалла 145 гектар резавор мевалар 13 та маҳалла 3 минг 613 хонадон чорвачилик ва паррандачилик билан шуғулланишга ихтисослаштирилди. Буларнинг ҳаммаси аҳолини камбағалликдан чиқариш билан бирга фаровонликни оширишга мўлжалланган.

Бунга ҳам битта мисол келтирадиган бўлсак, Каттақўрғон тумани Валижон МФЙ Тоғайкуса қишлоғи яшовчи Усмонов Қосим 9 сотихли иссиқхонасида август ойи бошида қулупнай кўчатини экиб март-апрел ойида 2,5 тонна қулупнай етиштириб ички бозорда ўрта ҳисобда 30 минг сўмдан сотиб 75 млн сўм май ойигача даромад олишга, май ойи бошида памидор-бодиринг кўчатини экиб 9 тонна бодринг маҳсулотини ички бозорда июл ойида ўрта ҳисобда 4 минг сўмдан сотиб 36 млн сўм даромад олишга эришади. сентабрь ойи ўрталарида қулупнай кўчатларини орасига

саримсоқпиёз етиштириш учун уруғ экиб февраль ойи бошида бир боғ кўкат сифатида ўртача 5000 сўмдан сотиб 5 млн сўм даромад олиб, бир йиллик даромади 116,0 млн сўмни ташкил қилади. Кўриниб турибдики, агар ҳаракат қиладиган бўлса, тегишли даромадга эга бўлади. Агар бефарқ бўладиган бўлса, қорни ҳам, кўнгли ҳам тўймасдан, камбағаллик ҳолатида кун кечиришга кўникиб қолади.

Ўзбекистон сўнгги йилларда камбағалликни қисқартириш бўйича энг сезиларли суръатлардан бирини намоён этди. “2025 йил якунларига кўра, Миллий статистика қўмитаси Жаҳон банки билан ҳамкорликда ўтказилган кузатув натижаларига кўра, Ўзбекистонда 2025 йил якунлари бўйича камбағаллик даражаси 3,1 фоиз пунктга қисқариб, 5,8 фоизни ташкил этди”[13]. Ушбу ҳолат ўз навбатида, аҳоли бандлигини таъминлаш, тадбиркорликни фаол қўллаб-қувватлаш, маҳаллаларда эҳтиёжманд аҳоли қатлами билан манзилли ва таъсирчан ишлашни ташкил этиш ва ижтимоий хизматлар кўламини кенгайтириш натижасида юзага келганлигини алоҳида қайд этиш лозим .

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, “Ўзбекистонда камбағаллик даражасини ҳисоблаш методологияси Жаҳон Банкининг тавсиясига кўра 16 мингта уй хўжаликлари бюджетини ўрганиш асосида амалга оширилади”[14]. Ҳамкорликда қилинган ҳисоб-китоблар бўйича Ўзбекистонда камбағаллик даражаси кескин камайганлигини кўриш мумкин. Хусусан, “2023-йилда республикада камбағаллик даражаси 14 фоиздан 11 фоизга, 2024 йилда 8,9 фоизга, 2025-йилда эса 5,8 фоизгача қисқарди. Натижада жорий йилда эҳтиёжманд 302 минг оила камбағалликдан чиқарилди”[15]. Бундай ҳолат, яъни камбағаллик даражасининг пасайиши республиканинг барча ҳудудларида кузатилмоқда. Бундай ижобий ҳолат камбағалликни қисқфартириш бўйича узоқ ўйланган чора-тадбирлар натижасида рўй бермоқда.

Хулоса ва таклифлар

Хулоса қилиб айтганда мамлакатимизда камбағалликни тугтиш бўйича олиб борилаётган чора-тадбирлар ўз самарасини бермоқда. Бу борадаги ишлар янада давом этади ва этмоқда. Бунга янада кўпроқ эришиш учун қуйидаги тавсияларни ҳам беришни мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Булар:

Биринчидан, экспорт қилувччи корхоналар талабидан келиб чиқиб ва уларнинг иштирокида Хитой тажрибасига асосланган ҳолда “Компания – кооператив – деҳқон хўжалиги” тамойили асосида ишни ташкил қилиш лозим бўлади. Ушбу йўналишда мамлакатимизда “484 та кооператив ташкил

[13] https://nuz.uz/uz/2026/01/02/%D1%9Ezbekistonda-2025-jil-yakunlari-b%D1%9Ejicha-kamba%D2%93allik-darazhasi-va-a%D2%B3oli-daromadlari-ta%D2%B3lili-infografika/?utm_source=chatgpt.com

[14] https://nuz.uz/uz/2026/01/02/%D1%9Ezbekistonda-2025-jil-yakunlari-b%D1%9Ejicha-kamba%D2%93allik-darazhasi-va-a%D2%B3oli-daromadlari-ta%D2%B3lili-infografika/?utm_source=chatgpt.com

[15] Ўша жойда.

этилиб, уларга 15,7 минг нафар камбағал оила аъзолари жалб қилинган”[16]. Бу ишни яна давом эттириш мақсадга мувофиқ.

Иккинчидан, ҳозирги кунда ўрмон хўжаликларига қарйдиган катта ер фонди фойдаланилмаяпди. Чунки ўрмон хўжалигининг ҳамма ҳудудлари банд эмас. Шу туфайли бўш ерларидан ҳам камбағалликни қисқартириш учун фойдаланиш лозимдир. Ҳозирги кунда “мамлакатимизда 8,7 мингта камбағал оилага кўчатхона ташкил этиш ва доривор ўсимликлар етиштириш учун 21 минг гектар ер майдони ижара асосида ажратиб берилган”[17]. Ушбу ҳудудлар ҳам камбағалликни қисқартиришга хизмат қилмоқда.

Учинчидан, кўп ҳолларда қишлоқ жойларда маҳсулот етиштириб, уни сотишнинг имконияти бироз мураккаб эди. Буни инобатга олиб, камбағал оилаларга ўзи етиштирган озиқ-овқат маҳсулотини сотиш учун деҳқон бозорлари ва супермаркетлардан махсус савдо жойлари ажратиб бериш масаласини қўйган эдик. Ушбу тадбирларнинг амалга оширилиши натижасида “қишлоқларда истиқомат қиладиган 2,3 мингта камбағал оилаларга ўзи етиштирган маҳсулотини сотиш учун деҳқон бозорлари ва супермаркетлардан 7,5 минг кв.м. махсус савдо жойлари ажратилди”[18]. Буларнин маҳсулотларни ташиб келиш хизматлари ҳам енгиллаштирилиб, арзон нархда ташкилий равишда олиб келиб берилмоқда. Ушбу ҳолат кўпларга ибрат бўлиб, анча аҳоли шунга интилиб қолишди.

Тўртнчидан, мамлакатимизнинг барча ҳудудларида, хусусан қишлоқларда тажриба тариқасида янги “туризм маҳаллалари”ни ташкил этиш йўлга қўйилган эди. Ушбу маҳаллаларда туризм хизматларини ривожлантириш орқали кўпаб камбағал оила аъзолари бандлиги таъминланди. Ушбу ишларни янада давом эттиришни тақозо қилади. Бу бўйича мамлакатимизда тегишли тажриба ҳам етарли. Хусусан, ўтган даврда “12 та янги “туризм маҳаллалари”ни ташкил этиш ҳамда 40 та маҳаллада туризм хизматларини ривожлантириш орқали 1,3 минг нафар камбағал оила аъзолари бандлиги таъминланди”[19].

Бешнчидан, мамлакатимизда Муҳтарам Президентимзнинг кўрсатмаларига биноан камбағалликни қисқартириш бўйича бир қанча ишлар амалга оширилда. Булардан бири ҳудудларда жойлашган маҳаллаларда минглаб микролойиҳаларни амалга оширилиб, бу орқали республикада кўплаб кишиларнинг бандлиги таъминланди. Бунга мисол қилиб, **“**Сайхунобод тажрибаси бўйича маҳаллаларда қиймати 18 трлн сўмлик 394 мингдан ортиқ микролойиҳалар амалга оширилиб, бу орқали республикада жами 809 минг кишининг бандлиги таъминланди”[20]. Ушбу ишларни ҳам тизимли равишда давом эттириш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз.

[16] Ўша жойда.
[17] Ўша жойда.
[18] Ўша жойда.
[19] Ўша жойда.
[20] Ўша жойда.

Агар ушбу тавсияларимиз амалга ошадиган бўлса, мамлакатимизда, хусусан Самарқанд вилоятининг қишлоқ ҳудудларида камбағаллик даражаси тизимли равишда қисқариб бориш тенденциясига эга бўлади ва алал оқибат камбағалликка барҳам берилади.

Shirinova G.X. *– SamISI, doktoranti*

RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ALOQA SOHASINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA O'ZBEKISTON UCHUN IMKONIYATLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar aloqa sohasini boshqarish mexanizmlari tahlili, OECD mamlakatlari, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy, Hindiston va Osiyo davlatlari tajribasi o'rganilgan hamda O'zbekiston uchun xalqaro tajribadan foydalanish imkoniyatlari va takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *aloqa xizmatlari, telekommunikatsiya, tartibga solish mexanizmlari, OECD, raqobat siyosati, instituttsional islohotlar, xalqaro tajriba.*

Аннотация: *В данной статье анализируются механизмы регулирования сектора связи в развитых и развивающихся странах, изучается опыт стран ОЭСР, Европейского союза, США, Китая, Индии и стран Азии, а также описываются возможности Узбекистана по использованию международного опыта и совершенствованию организационно-экономического механизма.*

Ключевые слова: *услуги связи, телекоммуникации, механизмы регулирования, ОЭСР, политика в области конкуренции, институциональные реформы, международный опыт.*

Abstract: *This article analyzes the mechanisms for regulating the communications sector in developed and developing countries, studies the experience of OECD countries, the European Union, the USA, China, India and Asian countries, and describes the possibilities for Uzbekistan to use international experience and an improved organizational and economic mechanism.*

Keywords: *communications services, telecommunications, regulatory mechanisms, OECD, competition policy, institutional reforms, international experience.*

XXI asrda telekommunikatsiya xizmatlari jahon iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylandi. Raqamli transformatsiya, 5G texnologiyalari, sun'iy intellekt va Internet of Things (IoT) kabi innovatsiyalar aloqa sohasiga yangi talablar qo'ymoqda. Shu munosabat bilan, aloqa xizmatlarini samarali boshqarish va tartibga solish mexanizmlari har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda aloqa sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2017-yildan boshlab telekommunikatsiya bozorini liberallashtirish, raqobat muhitini shakllantirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishida muhim qadamlar qo'yildi. Optik tolali tarmoqlarning kengayishi, 4G/5G texnologiyalarining joriy etilishi, yo'ldosh aloqa tizimlarini rivojlantirish, xalqaro internet kanallariga to'g'ridan-to'g'ri ulanish imkoniyatlarini berish kabi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ammo, sohada hali ham bir qator muammolar mavjud: davlat tartibga solish tizimining nomukammalligi, mustaqil regulyatorning yo'qligi, raqobat muhitining zaif rivojlanganligi, investitsiya jalb qilishdagi qiyinchiliklar. Shu munosabat bilan, xalqaro tajribani o'rganish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

OECD mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi aloqa sohasini boshqarishda instituttsional mustaqillik, shaffoflik va raqobatni qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanadi. Yevropa Ittifaqida 2002-yilgi telekommunikatsiya to'plami (2009 va 2018-yillarda yangilangan) Milliy tartibga soluvchi organlar (NRA)ga keng vakolatlar beradi. Framework Directive milliy regulyatorlarning mustaqilligini, shaffofligini va javobgarligini ta'minlash uchun asosiy tamoyillarni belgilaydi.

Tartibga soluvchi organlarning mustaqilligi investorlar ishonchini oshirish va raqobat muhitini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. OECD mamlakatlari tajribasida quyidagi asosiy xususiyatlar ajralib turadi: regulyatorlarning to'liq mustaqilligi (davlat organlaridan ajratilgan holda), ex-ante tartibga solish (bozor kuchiga ega operatorlarga maxsus majburiyatlar qo'yish), universal xizmat fondlari, infrastrukturni bo'lishish mexanizmlari (wholesale ulanish), ex-post raqobat nazorati (antimonopoliya organlari tomonidan).

Yevropa Ittifoqi 2016-yilda Yevropa Elektron Aloqa Kodeksini (EECC) qabul qildi, bu telekommunikatsiya tartibga solishni modernizatsiyalash va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan. EECC spektrni samarali taqsimlash, 5G tarmoqlarini joriy etish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, aloqa xizmatlarining sifat standartlarini belgilash kabi masalalarni tartibga soladi. Yevropa tajribasi shuni ko'rsatadiki, mustaqil va professional regulyatorlar bozor samaradorligini oshiradi va innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

AQSh telekommunikatsiya sektorini boshqarishda Federal Aloqa Komissiyasi (FCC) markaziy rolni o'ynaydi. FCC 1934-yilda tashkil etilgan va mustaqil tartibga soluvchi organ sifatida faoliyat yuritadi. FCC ning asosiy vazifalari: radiochastota spektrini boshqarish, raqobatni qo'llab-quvvatlash, universal xizmat dasturlarini amalga oshirish, iste'molchilarni himoya qilish.

AQSh modeli bozor raqobatiga asoslangan liberallashtirish yo'nalishiga ega. 1996-yilgi Telekommunikatsiya to'g'risidagi qonun mahalliy raqobatni joriy etish, tarmoqlararo ulanish (interconnection) ta'minlash, universal xizmat fondini modernizatsiyalash kabi muhim islohotlarni amalga oshirdi. Keyingi yillarda FCC keng polosali internet ulanishini rivojlantirish, 5G texnologiyalarini joriy etish, qishloq hududlarni qamrashni kengaytirish dasturlarini amalga oshirmoqda.

AQSh tajribasining o'ziga xos jihatlari: davlat va federal regulyatorlar o'rtasida vakolatlar taqsimoti, light-touch tartibga solish yondashuvlari (minimal aralashuv), texnologik neytrallik tamoyili, tarmoqlararo ulanishni majburiy tartibga solish, universal xizmat fondining samarali ishlashi. AQShda 2024-yil holatiga ko'ra, 95% dan ortiq aholi keng polosali internetga ega va mobil aloqa qamrovi 99% ni tashkil etadi.

Xitoy telekommunikatsiya sohasi so'nggi 40 yil ichida ajoyib yutuqlarga erishdi. 1990-yillarda yillik 40% dan ortiq o'sish sur'ati bilan Xitoy telekommunikatsiya tarmoqlari hajmi bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlarni egalladi. 1998-yilda Pochta va Telekommunikatsiya vazirligi (MPT) o'rniga Axborot sanoati vazirligi (MII) tashkil etildi va davlat funksiyalari operatorlik funksiyalaridan ajratildi.

Xitoy modeli davlat nazoratini saqlab qolgan holda, bosqichma-bosqich liberallashtirish strategiyasiga asoslangan. Asosiy operatorlar (China Mobile, China Telecom, China Unicom) davlat mulki bo'lib qolmoqda, lekin ular o'rtasida raqobat muhiti yaratildi. WTO ga kirish (2001) Xitoyni xorijiy investitsiyalarni cheklangan darajada qabul qilishga majbur qildi. Xitoy 5G texnologiyalari sohasida jahon lideri bo'ldi va 2025-yil holatiga ko'ra 700 million 5G abonentga ega.

Xitoy tajribasining asosiy xususiyatlari: davlat mulkchiligini saqlab qolish, telekommunikatsiyani strategik sektor sifatida rivojlantirish, katta hajmdagi infrastruktura investitsiyalari, milliy kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash (Huawei, ZTE), texnologik mustaqillikka erishish, 5G va 6G texnologiyalarida yetakchi o'rinni egallash. Xitoy tajribasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun davlat boshqaruvini saqlagan holda, bozor mexanizmlarini joriy etish imkoniyatini ko'rsatadi.

Hindiston telekommunikatsiya sektori 1990-yillardan boshlab tez sur'atlar bilan o'smoqda. 1997-yilda National Telecom Policy qabul qilindi va sohani liberallashtirish jarayoni boshlandi. Telecom Regulatory Authority of India (TRAI) 1997-yilda mustaqil regulyator sifatida tashkil etildi. Hindiston 1.2 milliard telefon abonentiga ega bo'lib, dunyodagi eng yirik telekommunikatsiya bozorlaridan biridir.

Hindiston modeli xususiylashtirish va raqobatni rag'batlantirish asosida qurilgan. Davlat operatorlari (BSNL, MTNL) bozorda ishtirok etmoqda, lekin xususiy operatorlar (Bharti Airtel, Reliance Jio, Vodafone Idea) dominant o'rinni egallagan. Hindiston arzon mobil internet xizmatlari va keng qamrovli tarmoqlar yaratish orqali raqamli bo'shliqni qisqartirmoqda. Reliance Jio kompaniyasining 2016-yilda bozorga kirishi ommaviy narxlar pasayishi va internet foydalanish ko'rsatkichlarining keskin o'sishiga olib keldi.

Hindiston tajribasi quyidagi jihatlarda ajralib turadi: mustaqil regulyator (TRAI)ning faol roli, ochiq litsenziyalash tizimi, arzon xizmatlar orqali ommaviy qamrovni ta'minlash, Make in India dasturi doirasida mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish, raqamli to'lov tizimlari va fintech integratsiyasi. Hindiston tajribasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bozor raqobati va arzon xizmatlar orqali raqamli inklyuziya ta'minlash namunasini taqdim etadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari aloqa sohasini rivojlantirishda turli strategiyalarni qo'llamoqda. Qozog'iston mintaqada eng rivojlangan telekommunikatsiya infratuzilmasiga ega. Mamlakat Starlink sun'iy yo'ldosh internet xizmatini 2025-yilda ishga tushirgan birinchi Markaziy Osiyo davlati

bo'ldi. Qozog'istonda Raqamli Qozog'iston davlat dasturi amalga oshirilmoqda va Smart City loyihalari joriy etilmoqda.

Tojikiston tog'li hududlarda aloqa qamrovini ta'minlash muammolarini hal qilish uchun yo'ldosh aloqa texnologiyalariga katta e'tibor bermoqda. 2025-yilda Tojikiston Starlink bilan litsenziya shartnomasini imzoladi. Markaziy Osiyo davlatlari umumiy muammolarga duch kelmoqda: keng hududlarni qamrash qiyinchiliklari, investitsiya etishmasligi, texnologik orqada qolish, kadrlar kamchiligi.

Mintaqa mamlakatlari uchun umumiy yo'nalishlar: telekommunikatsiya sohasini liberallashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yo'ldosh aloqa texnologiyalarini joriy etish, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot dasturlarini amalga oshirish. Markaziy Osiyo tajribasi O'zbekiston uchun ayniqsa foydali, chunki mintaqa davlatlari o'xshash iqtisodiy va geografik sharoitlarga ega.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab aloqa sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Optik tolali tarmoqlar 150 ming kilometrdan ortiqqa yetkazildi va aholi maskanlarining 67 foiziga yetkazib borildi. 2025-yil 21-oktyabrda Prezident qarori bilan yo'ldosh aloqa texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari tasdiqlandi. Amazon Kuiper va boshqa xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi.

2025-yil sentabrida Vazirlar Mahkamasi telekommunikatsiya bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirish to'g'risida muhim qaror qabul qildi. Ushbu hujjatga ko'ra, operatorlarga 2030-yil 1-yanvarga qadar eksperiment tariqasida xalqaro internet tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri ulanish huquqi berildi. Bu O'zbektelekom monopoliyasini bekor qilish yo'lidagi muhim qadamdir. Raqamli texnologiyalar vazirligi aloqa sohasini tartibga solish funksiyalarini bajarmoqda.

Ammo, hali ham bir qator muammolar mavjud: mustaqil regulyatorning yo'qligi, raqobat muhitining zaif rivojlanganligi, tariflar belgilashda shaffoflikning etishmasligi, innovatsion faollikning pastligi, qishloq hududlarda raqamli bo'shliq, kadr tayyorlash tizimidagi kamchiliklar. O'zbekiston 2024-yilda ITU Global Connectivity Index bo'yicha 78-o'rinda turadi, bu ko'rsatkich yaxshilanishi kerak.

Xalqaro tajribani tahlil qilish asosida, O'zbekiston uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, mustaqil telekommunikatsiya regulyatorini tashkil etish. OECD va Hindiston tajribasidan kelib chiqqan holda, Raqamli texnologiyalar vazirligidan ajratilgan mustaqil regulyator yaratish zarur. Bu organ davlat va operatorlardan mustaqil bo'lib, faqat qonunlarga bo'ysunishi, shaffof qarorlar qabul qilishi va professional kadrlardan iborat bo'lishi kerak. Regulyatorning asosiy vazifalari: tariflarni tartibga solish, raqobat muhitini nazorat qilish, litsenziyalash, spektrni boshqarish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish.

Ikkinchidan, raqobat muhitini rivojlantirish. AQSh va Yevropa tajribasiga asoslanib, infrastrukturni bo'lishish (network sharing) mexanizmlarini joriy etish, virtual tarmoq operatorlari (MVNO) uchun imkoniyatlar yaratish, bozorga kirish to'siqlarini kamaytirish, antimonopoliya nazoratini kuchaytirish tavsiya etiladi.

Xususiy operatorlarga keng polosali internet xizmatlarini taqdim etish uchun tenglik yaratish zarur.

Uchinchidan, universal xizmat fondini tashkil etish. OECD mamlakatlari tajribasidan foydalanib, qishloq va uzoq hududlarda aloqa xizmatlarini rivojlantirish uchun universal xizmat fondi yaratish maqsadga muvofiq. Bu fond operatorlardan majburiy badal to'lovlari hisobidan shakllanishi va ochiq tanlov asosida loyihalarni moliyalashtirishi mumkin. Fondning shaffof boshqaruv tizimi va professional boshqaruv organi bo'lishi zarur.

O'zbekiston uchun takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm quyidagi komponentlarni o'z ichiga olishi kerak:

Instituttsional komponent: Mustaqil regulyator tashkil etish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, shaffof litsenziyalash tizimi, radiochastota spektrini samarali boshqarish mexanizmi.

Bozor komponent: Raqobat muhitini ta'minlash, narxlar liberallashtirish, infrastrukturni bo'lishish majburiyatlari, MVNO rivojlantirish, xorijiy investorlar uchun shart-sharoitlar yaratish.

Moliyaviy-iqtisodiy komponent: Universal xizmat fondi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, soliq imtiyozlari, PPP loyihalari uchun shart-sharoitlar, investitsiyalarni himoya qilish kafolatlari.

Innovatsion komponent: 5G texnologiyalarini joriy etish dasturi, IoT ekotizimini rivojlantirish, kiberhavfsizlik infratuzilmasi, raqamli inkubatorlar va texnoparklarni qo'llab-quvvatlash, tadqiqot va ishlanmalar (R&D) uchun stimullar.

Xalqaro tajribani o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, rivojlangan mamlakatlarda (OECD, AQSh, Yevropa) mustaqil regulyatorlar aloqa sohasini samarali boshqarishning asosiy elementi hisoblanadi. Regulyatorlarning mustaqilligi, shaffofligi va professionallig investorlar ishonchini oshiradi va raqobat muhitini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda (Xitoy, Hindiston) turli modellar qo'llanilmoqda. Xitoy davlat nazoratini saqlab qolgan holda, raqobat mexanizmlarini joriy etdi. Hindiston esa to'liq liberallashtirish va mustaqil regulyatorga asoslangan modelni tanladi. Ikkala yondashuv ham o'z sharoitida muvaffaqiyatli natijalar berdi.

Uchinchidan, O'zbekiston uchun gibrid model maqsadga muvofiq. Bu model davlat strategik rahbarligini saqlab qolgan holda, mustaqil regulyator yaratish, raqobat muhitini rivojlantirish, xususiy sektorni faollashtirish, universal xizmat fondini tashkil etishni o'z ichiga oladi.

To'rtinchidan, yo'ldosh aloqa texnologiyalarini joriy etish (Starlink, Amazon Kuiper) qishloq va tog'li hududlarda raqamli bo'shliqni qisqartirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Markaziy Osiyo davlatlari tajribasi (Qozog'iston, Tojikiston) O'zbekiston uchun foydali darslar beradi.

Beshinchidan, 5G texnologiyalarini joriy etish, IoT ekotizimini rivojlantirish, kiberhavfsizlikni ta'minlash raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa sohasining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Xalqaro tajribani O'zbekiston

sharoitiga moslashtirib qo'llash orqali sohada tubdan o'zgarishlar amalga oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD (2024). OECD Telecommunications and Internet Statistics. Paris: OECD Publishing.

2. European Commission (2018). European Electronic Communications Code (EECC). Brussels.

3. FCC (2024). Annual Report on Competition in the Market for the Delivery of Video Programming. Washington, DC.

4. ITU (2024). Measuring digital development: Facts and figures 2024. Geneva: International Telecommunication Union.

5. World Bank (2023). Digital Development Global Practice. World Development Report.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi “Aloqa sohasida tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-142-son qarori.

8. Raqamli texnologiyalar vazirligi (2024). Aloqa sohasini rivojlantirish bo'yicha hisobot.

9. TRAI (2024). The Indian Telecom Services Performance Indicators Report. New Delhi.

10. Ministry of Digital Development of Kazakhstan (2025). Digital Kazakhstan Program Progress Report.

Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li *– Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi*

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA ONLAYN-SUG‘URTA XIZMATLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK KO‘RSATKICHLARI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: *tezisda onlayn-sug‘urta xizmatlari rivojlanishining statistik ko‘rsatkichlari, istiqbollari va mamlakat moliyaviy xizmatlari tizimida sug‘urta xizmatlarining o‘rni o‘rganilgan. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta tizimini rivojlanish tendentsiyalari va me’yoriy asoslari tadqiqi keltirilgan. InsurTech texnologiyasi hamda uning asosiy yo‘nalishlari bayon etilgan. Tadqiqot mavzusi doirasida xulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sug‘urta, onlayn-sug‘urta, InsurTech, iqtisodiyot, moliyaviy xizmat, raqamli texnologiyalar, ko‘rsatkich.*

Аннотация: *в тезисе исследованы статистические показатели развития онлайн-страховых услуг, их перспективы, а также роль страхового сектора в системе финансовых услуг страны. Проанализированы тенденции развития и нормативно-правовые основы страховой системы Республики Узбекистан. Раскрыта сущность технологии InsurTech и охарактеризованы её основные направления. По результатам исследования сформулированы соответствующие выводы.*

Ключевые слова: *страхование, онлайн-страхование, InsurTech, экономика, финансовые услуги, цифровые технологии, показатели.*

Abstract: *the thesis examines the statistical indicators of the development of online insurance services, their prospects, and the role of the insurance sector within the country’s financial services system. The trends and regulatory framework of the insurance system of the Republic of Uzbekistan are analyzed. The concept of InsurTech technology and its main directions are described. Based on the research findings, relevant conclusions are presented.*

Keywords: *insurance, online insurance, InsurTech, economy, financial services, digital technologies, indicators.*

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliyaviy xizmatlar bozori tub tarkibiy o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari, sun’iy intellekt, big data, bulutli texnologiyalar hamda fintech ekotizimining kengayishi sug‘urta xizmatlari segmentini ham yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan, onlayn-sug‘urta xizmatlari an’anaviy sug‘urta mexanizmlarining raqamli muqobiliga aylanib, xizmat ko‘rsatish tezligi, shaffoflik darajasi va tranzaksiya xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish imkonini bermoqda. Shu bois mazkur yo‘nalishning statistik ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil qilish va istiqbollarini ilmiy asoslash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda raqamli ko‘rsatkichlarga murojaat qilsak, 2025-yilda O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmi 171,9 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 24,6 foizga o‘sgan. Biroq moliyaviy xizmatlar tarkibida sug‘urta xizmatlarining ulushi atigi 7,3 foizni[21] tashkil etmoqda, bu esa sug‘urta segmentining moliyaviy bozor tizimidagi nisbatan cheklangan rolini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda sug‘urta bozori raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan uning raqamli moslashuv darajasi bilan belgilanadi. Onlayn-sug‘urta xizmatlarining rivojlanishi sug‘urta zichligi, mukofotlar hajmi to‘lovlar koeffitsienti, zarar ko‘rish darajasi va mijozlar qamrovi kabi asosiy makro va mikro ko‘rsatkichlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli sug‘urta xizmatlarining statistik dinamikasini o‘rganish nafaqat bozor hajmi va tarkibiy o‘zgarishlarni aniqlash, balki tarmoqning moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli o‘sish tendentsiyalarini bashoratlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda sug‘urta tizimini raqamlashtirish va ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi va normalarning belgilanishi, mazkur tizimning yanada rivojlanishiga turtki bo‘ldi desak, bizningcha mubolag‘a bo‘lmaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2024-yildagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-108-sonli qaroriga asosan, 2025-yilning 1-yanvaridan boshlab sug‘urtalovchilarning hisobotlarini soddalashtirish, avtomatlashtirish va yagona axborot tizimida shakllantirish yo‘lga qo‘yildi va sug‘urtalovchilarning tabaqalashtirilgan ustav kapitalining eng kam miqdorlari belgilandi[22].

[21] https://stat.uz/img/news/analitika-12_2025-zb-lotin.pdf

[22] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2024-yildagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-108-sonli qarori.

1-jadval

Sug‘urtalovchilarning tabaqalashtirilgan ustav kapitalining eng kam miqdorlari

mln. so‘mda

T/r	Sug‘urta faoliyati turlari	1-oktabrdan		
		2025-yil	2027-yil	2029-yil
1.	Umumiy sug‘urta sohasida ixtiyoriy sug‘urta	35 000	45 000	60 000
2.	Umumiy sug‘urta sohasida majburiy sug‘urta	50 000	75 000	100 000
3.	Hayotni sug‘urta qilish sohasida ixtiyoriy sug‘urta	25 000	30 000	35 000
4.	Hayotni sug‘urta qilish sohasida majburiy sug‘urta	40 000	45 000	50 000
5.	Faqat qayta sug‘urta	80 000	100 000	120 000

Sug‘urta tashkilotlarida ustav kapitali talablarining oshirilishi sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, to‘lov qobiliyatini ta’minlash va risklarni qoplash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa bozorda raqobat muhitini sifat jihatidan yaxshilash, sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan ishonchni oshirish hamda milliy sug‘urta tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishning muhim institutsional omili hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar onlayn-sug‘urta rivojlanishini baholashda (OECD, IAIS, Swiss Re, jahon banki) raqamli transformatsiya ko‘rsatkichlaridan: raqamli kanallar orqali sotuv ulushi, mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan tranzaktsiyalar ulushi, da’volarni onlayn ko‘rib chiqish ulushi va avtomatlashtirilgan underwriting (sug‘urta kompaniyasi tomonidan mijozning xavf darajasini baholash va tarifni belgilash jarayoni) kabi ko‘rsatkichlarni tahlil qilishni tavsiya etadi.

Biz tomonimizdan mavzu yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga asosan, onlayn-sug‘urta xizmatlari rivojlanishining ko‘rsatkichlarini tizimli tahlil qilish orqali quyidagi ilmiy masalalarni hal etish mumkin:

- raqamli sug‘urta xizmatlarining bozor ulushi va o‘sish sur’atlarini aniqlash;
- an’anaviy va onlayn-sug‘urta segmentlari o‘rtasidagi nisbatni iqtisodiy jihatdan asoslash;
- raqamlashtirish darajasi va moliyaviy natijalar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikni baholash;
- istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini statistik bashoratlash.

Yuqorida keltirilgan holatlardan tashqari, onlayn-sug‘urta xizmatlarining rivojlanishi moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, kichik biznes va aholining keng qatlamlari uchun sug‘urta mahsulotlariga kirish imkoniyatlarini oshirish hamda tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish orqali milliy iqtisodiyotning umumiy samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro amaliyotda rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta sektori moliyaviy xizmatlar bozorining sezilarli qismini tashkil qiladi va iqtisodiy xavflarni boshqarishning muhim institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, 7,3 foizlik ko‘rsatkich milliy sug‘urta bozorida faollashtirish salohiyati mavjudligini, ayniqsa raqamli sug‘urta mahsulotlari, mikrosug‘urta, agrosug‘urta va InsurTech yechimlarini kengaytirish orqali uning ulushini oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

InsurTech (Insurance technology) – sug‘urta sohasida raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarni qo‘llash orqali xizmat ko‘rsatish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan texnologiyalar majmuasidir. Ya’ni, InsurTech – bu sug‘urta xizmatlarini avtomatlashtirish, tezlashtirish, arzonlashtirish va shaffoligini oshirishga xizmat qiluvchi raqamli innovatsiyalardir. InsurTechning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib quyidagilar qayd etiladi:

- sun’iy intellekt;
- big data tahlili;
- blokcheyn texnologiyasi;
- onlayn platformalar va mobil ilovalar;
- internet texnologiyalari.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion iqtisodiyot sharoitida onlayn-sug‘urta xizmatlarini rivojlanishining statistik ko‘rsatkichlari va istiqbollarini ilmiy asosda tadqiq etish zamonaviy moliyaviy tizimning transformatsion jarayonlarini chuqur anglash, sug‘urta bozori samaradorligini oshirish hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

N.A. Abdukadirova *– SIES, PhD*

INCREASING BUSINESS EFFICIENCY IN CATERING ENTERPRISES THROUGH DIVERSIFICATION AND INNOVATION

Abstract: *This article discusses ways to enhance enterprise efficiency through business diversification and the implementation of innovations. It analyzes the significance of diversification strategies, directions of innovative activities in service enterprises, and the opportunities for creating additional revenue streams in catering businesses.*

Keywords: *Diversification, innovation, business strategy, service, creative economy, restaurant business*

Annotatsiya:*Mazkur maqolada biznes diversifikatsiyasi va innovatsiyalarni joriy etish orqali korxona samaradorligini oshirish yo‘llari muhokama qilinadi. Diversifikatsiya strategiyalarining ahamiyati, xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyat yo‘nalishlari hamda umumiy ovqatlanish korxonalarida qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: Diversifikatsiya, innovatsiya, biznes strategiya, xizmat ko‘rsatish, kreativ iqtisodiyot, restoran biznesi*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются способы повышения эффективности предприятий через диверсификацию бизнеса и внедрение инноваций.*

Анализируется значение стратегий диверсификации, направления инновационной деятельности в предприятиях сферы услуг и возможности создания дополнительных источников дохода в сфере общественного питания.

Ключевые слова: *Диверсификация, инновация, бизнес-стратегия, услуги, креативная экономика, ресторанный бизнес.*

In today’s global economic environment, the sustainable development of businesses largely depends on the degree of implementation of diversification and innovation. Diversification is an important strategic tool that helps expand a company’s activities, explore new directions, and reduce risks.

Innovation, on the other hand, enhances business efficiency through the introduction of new technologies, services, or management methods. Innovations save time and financial resources, improve service quality, and increase competitiveness.

In the context of the creative economy, diversification is particularly important, as it enables the creation of products and services based on intellectual potential and technologies. This accelerates economic growth and creates new employment opportunities.

In service companies, innovations are implemented through operational, investment, and financial activities. Operational innovations improve service processes, investment innovations involve investing in new projects, and financial innovations are related to the efficient management of financial resources.

In catering enterprises, diversification plays a crucial role in creating additional sources of revenue. This includes virtual restaurants, production of retail food products, catering services, sales of branded products, and culinary classes.

Diversification can lead to entirely new business ventures. However, the idea of diversification may also transform into a completely new business in a different sector related to the company’s existing knowledge base. Considering a business model that has competitive advantages and using it to strengthen areas that currently create difficulties in the business certainly offers significant benefits.

Business diversification can ensure the growth of the enterprise, prevent the decline of specific areas of activity, and facilitate effective risk management.

Innovations are an integral part of a diversification strategy, addressing issues related to the development of new methods within the strategy. Innovations help save time and financial resources. They also enhance competitiveness in the market and foster a culture of innovative thinking and problem-solving.

Diversification of innovations can take the following forms:

- Modifying the business model;
- Offering products and services that are high-quality, affordable, or fast;
- Updating sales and marketing systems.

When diversification and innovation are combined, by offering a range of products and continuously improving them, you create a dynamic business model. Customers appreciate variety and value companies that evolve in line with their needs.

Diversifying innovations using the **Dynamic Duo** approach creates the following opportunities (see Figure 1)



Figure 1. Opportunities for diversifying innovations using the Dynamic Duo approach.

Diversifying innovations lays the foundation for the direct development of the creative economy in the country. The law “On the Creative Economy,” which provides the basis for the development of the creative economy and the diversification of innovations in our country, was adopted by the Legislative Chamber on September 30, 2024, and approved by the Senate on the same date.

The law “On the Creative Economy” defines the concept of the creative economy along with related terms.

Creative industry — a set of economic activities related to the creation, production, storage, distribution, and promotion of goods (works, services) that are based on creativity, intellectual capacity, and intellectual property priority, and that possess economic value;

Creative industry park — a legal-organizational entity operating within the territory of the Republic of Uzbekistan on the principle of extraterritoriality, aimed at creating favorable conditions for the development of creative industry sectors;

Creative industry entities — natural and legal persons engaged in the creation, production, storage, distribution, and promotion of creative products;

Creative economy — a branch of the economy focused on the creation of goods (works, services) with economic value, resulting from human potential based on creativity, intellectual capacity, innovations, and technologies;

Creative product — goods (works, services) that have economic value in the creative economy sector, as well as other objects of civil-law contracts.

Article 10 of this Law defines the following sectors as part of the creative industry:

- Literary creativity;
- Applied arts and crafts;
- Architecture, design, and urban planning;
- Audiovisual arts;
- Performing arts;
- Organization of concerts, performances, and mass cultural events;
- Fashion and design arts;
- Museums, art galleries (exhibitions), and library-information activities;
- Creative activities in publishing and printing;
- Creative activities in mass media and through the Internet;
- Production activities;
- Creative activities in digital technologies;
- Creative activities in advertising;
- Activities related to the preservation of art objects and cultural heritage;
- Visual arts.

The creative economy infrastructure encompasses a set of economic, social, cultural, and digital resources aimed at supporting and developing the creative economy sector. The creative economy infrastructure can take the form of creative industry parks, creative industry clusters, creative industry art residencies, centers, innovative equipment and technologies, digital programs and platforms, as well as other forms.

Like all business entities, service enterprises can simultaneously engage in operational, investment, and financial activities.

Consequently, service enterprises can diversify by simultaneously introducing innovations into their operational, investment, and financial activities.

Operational Innovations in service activities involve processes related to organizing service delivery, diversifying services, creating new types of services, and implementing sales in innovative ways.

In today’s dynamic food service landscape, savvy restaurateurs are exploring innovative ways to expand their business beyond traditional dinner and beverage sales. By developing multiple revenue streams, restaurants can reach new customer segments, increase profitability, and build more sustainable operations. Diversifying the sources of revenue in your restaurant allows better management of changing market conditions and consumer preferences. Here are five interesting alternative revenue opportunities for restaurant growth:

- Virtual Brands – Ghost Kitchens: Expand reach by launching delivery-only menus within an existing kitchen, capturing the growing online food delivery market without requiring a second physical location. Collaborate with knowledgeable virtual restaurant platforms to identify high-demand kitchens in the region.
- Retail Food Products: Turn your recipes into packaged retail products such as sauces, spice blends, baked goods, or meal kits. Sell them in the restaurant, online, and explore wholesale opportunities with local retailers to increase brand presence.
- Branded Merchandise: Create a range of branded items such as clothing, glassware, bags, gift cards, and other products that loyal customers and fans enjoy owning. Display products in-store and make them accessible through your online shop and third-party popular e-commerce platforms.
- Catering and Private Events: Expand kitchen coverage and brand impact by offering catering services for local corporate events, social gatherings, and special occasions. Generate additional revenue through ticketed chef dinners, cooking classes, birthday parties, and other private events hosted at the restaurant.

Cooking Classes and Experiences: Share culinary skills and passion by teaching cooking classes, hosting exclusive tasting events and pairings, and organizing other engaging ticketed chef experiences.

Introducing Innovations in Investment Activities: This involves updating investment methods and applying new investment instruments.

Introducing Innovations in Financial Activities: This relates to processes that directly bring additional funds into the enterprise by modernizing financial resource management.

Diversification Strategy: Diversification strategy is implemented at the corporate level. Some experts suggest analyzing a company’s strategic alternatives through changes in the following factors: product, market, industry, industry position, technology, and personnel. Any choice of strategy changes at least one of the elements listed above. Experience shows that technology and personnel change whenever any of these elements change.

Diversification strategies simultaneously modify several parameters—product, market, and industry—as well as update technology and personnel. Based on the above, the following conclusions can be drawn:

- Developing diversification strategies in enterprises increases competitiveness.
- Implementing innovative technologies improves service quality and revenue.
- It is necessary to introduce a system for assessing innovative efficiency in service enterprises.
- Extensive use of creative economy opportunities ensures economic stability.

Yunusbek Ro‘zmetov *– Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

ELEKTRON TIJORATDA ISTE’MOLCHI ISHONCHINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB AHAMIYATI

1-bosqichda mehmonxona xodimlari yoki maxsus konsalting firmalari tomonidan mehmonxona xodimlarini o‘rganish rejalashtiriladi va maxsus ishchi guruh tuziladi. Mehmonxona xodimlarini o‘rganish rejasi va dasturi ishlab chiqiladi, xususan: maqsadlar, vazifalar, yondashuvlar va usullarni belgilash, shuningdek, tadqiqotning formati va vaqtini belgilashga qaratilgan. Xodimlar xulq-atvorini boshqarish samaradorligini baholash uchun 2 ta so‘rovnoma tavsiya etiladi. 1-so‘rovnoma o‘rganilgan ko‘rsatkichlarning boshqaruv samaradorligining umumiy darajasiga qo‘shgan hissasini aniqlashga mo‘ljallangan bo‘ladi. 2-so‘rovnoma mehmonxona xizmatlarida kadrlarni boshqarish samaradorligining individual xususiyatlarining rivojlanish darajalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.



3.1-rasm – Mehmonxona xizmatlarida kadrlarni boshqarish samaradorligi darajasini baholash metodologiyasi algoritmi

2-bosqichda mehmonxona xodimlari haqida ma’lumot to‘planadi. Mehmonxona xodimlaridan so‘rovnoma o’tkazish jarayonida ikkita maqsadga erishiladi. Birinchidan, menejerlar xodimlar xulq-atvori samaradorligining umumiy darajasini aniqlash uchun 1-so‘rovnomada eng muhim xususiyatlarni aniqlashlari kerak. Har bir xususiyatga daraja beriladi. 1-daraja eng afzal ko‘rilgan xususiyatga, 2-daraja keyingi eng yuqoriga va hokazolarga beriladi. Ikkinchidan, 2-so‘rovnomaga ko‘ra, respondentlar individual motivatsion xususiyatlar, mehmonxona madaniyati hamda xodimning shaxsiy va professional fazilatlarining rivojlanish darajalarini ko‘rsatishlari kerak.

3-bosqichda to‘plangan ma’lumotlar qayta ishlanadi. So‘rovnomalarni ko‘rib chiqqandan so‘ng, mehmonxona xizmatlarida kadrlar boshqaruv samaradorligining oraliq, o‘ziga xos va integral ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

4-bosqichda yuqorida hisoblangan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va sintez qilish natijasida mehmonxona xizmatlarida kadrlarni boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish chiqiladi. Tadqiqot obyektining alohida qismlari – mehmonxona kadrlarini boshqarish – ko‘rib chiqiladi. Olingan natijalarni birlashtirish (sintez) tahlildan so‘ng tadqiqot

obyektining yaxlitligini tiklaydi, uning tuzilishi va yaxlitligini chuqurroq tushunishni ta’minlaydi. Sintez o‘rganilayotgan obyektning ma’lum xususiyatlarini umumlashtirish usuli bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ishlab chiqilgan metodologiyani Samarqand viloyatidagi “Siab hotel” mehmonxonasida sinovdan o‘tkazdik. Biz tadqiqot ishimiz davomida 2025-yil noyabr oyida 10 ta mehmonxona menejerlari va 30 ta aloqa sohasi xodimlari orasida so‘rov o‘tkazdik. So‘rovnomalarni qayta ishlash uchun Microsoft Office Excel dasturidan foydalandik.

“SIAB HOTEL” mehmonxonasida kadrlarni boshqarish samaradorligi o‘rtacha (2,5 - 3,5 ball) 30 nafar xodimdan 22 nafari o‘rtacha ish xatti-harakatlari samaradorligini ko‘rsatdi; 6 nafari o‘rtachadan yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi (3,5 - 4,5 ball); va 2 nafari o‘rtachadan past samaradorlikni ko‘rsatdi (1,5 - 2,5 ball). Mehnat xatti-harakatlari samaradorligi yuqori bo‘lgan xodimlar yo‘q.

O‘rganilgan populyatsiya uchun integrallashgan samaradorlik ko‘rsatkichining o‘rtacha arifmetik qiymati 3,12 ballni, modul qiymati 3,01 ballni va median qiymati 3,10 ballni tashkil etdi.

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, “SIAB HOTEL” mehmonxonasida mavjud bo‘lgan motivatsiya tizimi xodimlarni qoniqtirmaydi.

So‘rovnomada ishtirok etgan xodimlarning aksariyati mijozlar bilan munosabatlar yuqori baholanishini va xodimlarga munosabatning muhim qiymati ham tasdiqlanganini ta’kidladilar. Biroq, xodimlarning aksariyati ishning mohiyati va ishni rejalashtirish hama uni amalga oshirish vositalarining qiymatidan norozi. Xodimlarning aksariyati ushbu qadriyatlardan norozilik bildirdilar, hatto ularning ba’zilari yo‘qligini tan oldilar. Ba’zi xodimlar boshqaruv madaniyatining sezilarli ta’sirini sezmaydilar, garchi ba’zi xodimlar boshqaruv madaniyatdan qoniqishsa ham. Boshqaruv madaniyati samaradorligi ballaridagi farq 0,79 ballni, minimal 0,46 ballni va maksimal 1,26 ballni tashkil qildi.

Xulosa. Bizning fikrimizcha, mehmonxona xizmatlarida kadrlarning motivatsiyasi, boshqaruv madaniyati, shaxsiy va professional imkoniyatlarining ta’sirini aks ettiruvchi sinflar o‘rniga, xodimlarning ish xatti-harakatlariga individual, guruh va tashkilot miqyosidagi ta’sirini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar klasterlariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Mehmonxona xizmatlarida kadrlar boshqaruvi samaradorligini baholash uchun taklif qilingan metodologiyani qo‘llashda muhim metodologik qiyinchilik olingan ma’lumotlarning vakillik masalasidir.

Tadqiqotlardagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, namunaning vakillik darajasi nafaqat matematik isbotlar bilan belgilanishi mumkin. Ba’zi hollarda tasodifiy bo‘lmagan namunalar qo‘llaniladi. Ko‘rinishidan, har qanday holatda ham tadqiqot uchun tanlangan xodimlar populyatsiyasining vakillik darajasi avtomatik ravishda ta’minlanmasligi kerak, amalga oshirilgan harakatlar uchun mantiqiy asoslash talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. О.Шоннесси Принципы организации управления фирмой. – М.: Прогресс, 1979..
2. Ансофф И. Стратегическое управление. / Пер. с англ.; Пауч. ред. Л.И. Евенков. - М.: Экономика, 1989. - 416 с.
3. Стратегия социально-экономического развития региона / Под ред. Л.М. Шодоевой. Барнаул: Из-во Алт. Ун-та, 2002. - 202 с.
4. Шодоева Л.М. Стратегическое планирование — Барнаул: Из-во Алт. Унив-та, 2000. - 124 с.
5. Уткин Э.А. Стратегическое планирование - М.: ИНФРА-М, 1998. - 387с.

Ҳамзаев Азиз Ҳамзаевич *- “PROFI PHARM SERVICE” директори*

IDENTIFYING AND SATISFYING CUSTOMER NEEDS IN THE SERVICE SECTOR: A MODERN MARKETING PERSPECTIVE

Abstract:*This article analyzes how service organizations identify and satisfy customer needs using modern marketing concepts developed after 2000. In service industries, customer experience, value co‑ creation, and relationship management are critical for long‑ term success. The study integrates segmentation, targeting, and positioning (STP) with contemporary service marketing theories such as service‑ dominant logic, customer experience management, and value innovation. The paper explains how service firms can create competitive advantage by focusing on customer expectations, perceived value, and service quality.*

Keywords: service sector, customer experience, service quality, segmentation, targeting, positioning, value creation

Аннотация: *Ушбу мақолада хизмат кўрсатувчи ташкилотлар 2000 йилдан кейин ишлаб чиқилган замонавий маркетинг концепцияларидан фойдаланган ҳолда мижозлар эҳтиёжларини қандай аниқлаши ва қондириши таҳлил қилинади. Хизмат кўрсатиш соҳаларида мижозлар тажрибаси, қийматни биргаликда яратиш ва муносабатларни бошқариш ҳамда узоқ муддатли муваффақият учун жуда муҳимдир. Тадқиқот сегментация, нишонга олиш ва жойлашишини аниқлаш (STP) хизматни устувор мантиқ, мижозлар тажрибасини бошқариш ва қиймат инновацияси каби замонавий хизмат маркетинг назариялари билан бирлаштиради. Мақолада хизмат кўрсатувчи фирмалар мижозларнинг тахминлари, қабул қилинган қиймати ва хизмат кўрсатиш сифатига эътибор қаратиш орқали қандай қилиб рақобатдош устунликни яратиши мумкинлиги тушунтирилади.*

Калитли сўзлар: *хизмат кўрсатиш соҳаси, мижозлар тажрибаси, хизмат кўрсатиш сифати, сегментация, нишонга олиш, жойлашишини аниқлаш, қиймат яратиш.*

Аннотация: *В этой статье анализируется, как сервисные организации выявляют и удовлетворяют потребности клиентов, используя современные маркетинговые концепции, разработанные после 2000 года. В сфере услуг качество обслуживания клиентов, совместное создание ценности и управление взаимоотношениями имеют решающее значение для долгосрочного успеха. Исследование*

объединяет сегментацию, таргетинг и позиционирование (STP) с современными теориями маркетинга услуг, такими как логика, ориентированная на обслуживание, управление клиентским опытом и ценностные инновации. В статье объясняется, как сервисные фирмы могут создать конкурентное преимущество, сосредоточившись на ожиданиях клиентов, воспринимаемой ценности и качестве обслуживания.

Ключевые слова: *сфера услуг, клиентский опыт, качество обслуживания, сегментация, таргетинг, позиционирование, создание ценности.*

Introduction.

In the modern economy, the service sector has become the dominant part of most economies. Customer expectations have increased due to globalization, digital transformation, and greater competition. Service organizations must understand what customers truly value. Harvard Business Review emphasizes that companies must move from product thinking to customer experience thinking (Berry, Carbone & Haeckel, 2002). In modern markets, understanding and satisfying customer needs is essential for sustainable growth.

Customer Experience and Value Creation

Modern marketing research highlights that customers evaluate not only functional benefits but also emotional and experiential aspects of services. Vargo and Lusch (2004) introduced Service-Dominant Logic, arguing that value is co-created through interaction between the company and the customer. Prahalad and Ramaswamy (2004) explain that competitive advantage depends on co-creating unique customer experiences. These ideas are highly relevant for service businesses where interaction and personalization are central elements of value creation.

Market Segmentation in the Service Industry

Modern segmentation focuses on customer behavior and value rather than only demographics. Wedel and Kamakura (2000) show that effective segmentation improves marketing efficiency. Christensen, Cook, and Hall (2005) argue that companies should segment markets based on the 'job to be done'—the real problem customers are trying to solve. This approach is especially useful in service industries such as healthcare, banking, and hospitality.

Targeting and Customer Lifetime Value

Service organizations increasingly focus on long-term customer value. Reichheld (2003) introduced the Net Promoter Score concept, emphasizing that customer loyalty drives growth. Kumar and Reinartz (2016) explain that managing high-value customers improves profitability and retention. Targeting strategies in services must therefore consider customer lifetime value and relationship potential.

Service Positioning and Differentiation

In competitive service markets, positioning is based on trust, experience, and reliability. Porter (2008) emphasizes that competitive strategy is about delivering unique value. Pine and Gilmore (2011) argue that organizations must create memorable experiences in order to differentiate themselves. Strong

positioning in services depends on consistency, clear communication, and superior customer experience.

Service Quality and Relationship Marketing

Service quality strongly influences customer satisfaction and loyalty. Zeithaml, Bitner, and Gremler (2018) explain that perceived service quality shapes long-term relationships. Grönroos (2007) highlights that relationship marketing is critical in services where repeated interactions occur. Companies that build trust and emotional connections reduce customer switching and strengthen loyalty.

Conclusion

In modern service industries, identifying and satisfying customer needs requires advanced marketing thinking. Contemporary research shows that customer experience, value co-creation, segmentation, and relationship management are essential for success. Service organizations that combine STP strategy with experience-focused management achieve sustainable competitive advantage and long-term customer loyalty.

References:

1. Berry, L. L., Carbone, L. P., & Haeckel, S. H. (2002). Managing the Total Customer Experience. Harvard Business Review.
2. Christensen, C. M., Cook, S., & Hall, T. (2005). Marketing Malpractice. Harvard Business Review.
3. Grönroos, C. (2007). Service Management and Marketing. Wiley.
4. Kumar, V., & Reinartz, W. (2016). Creating Enduring Customer Value. Journal of Marketing.
5. Pine, B. J., & Gilmore, J. H. (2011). The Experience Economy. Harvard Business Review Press.
6. Porter, M. E. (2008). The Five Competitive Forces That Shape Strategy. Harvard Business Review.
7. Prahalad, C. K., & Ramaswamy, V. (2004). Co-creation Experiences. Harvard Business Review.
8. Reichheld, F. F. (2003). The One Number You Need to Grow. Harvard Business Review.
9. Vargo, S. L., & Lusch, R. F. (2004). Evolving to a New Dominant Logic for Marketing. Journal of Marketing.
10. Wedel, M., & Kamakura, W. (2000). Market Segmentation: Conceptual and Methodological Foundations. Springer.
11. Zeithaml, V. A., Bitner, M. J., & Gremler, D. D. (2018). Services Marketing. McGraw-Hill.

Muxiddinov Mo‘minjon Shavqiddin o‘g‘li *– SamISI mustaqil izlanuvchisi*

ERKIN IQTISODIY ZONALARDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BRENDLASH VA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH STRATEGIYASIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: *Mazkur tezisda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) faoliyatida logistika xizmatlarining brend sifatida shakllantirilishi va bu orqali investitsion jozibadorlikni oshirish masalalari tahlil qilinadi. O‘zbekiston misolida “Ayritom” erkin iqtisodiy zonasidagi mavjud muammolar o‘rganilib, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari asosida logistika xizmatlarini rivojlantirish va zonani investitsiyalar uchun jozibador qilish strategiyalarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *erkin iqtisodiy zona, logistika xizmatlari, brendlash, investitsion jozibadorlik, infratuzilma, raqamlashtirish, “yagona darcha” tizimi, xorijiy tajriba.*

Аннотация: *В данной тезисной работе анализируются вопросы формирования логистических услуг в деятельности свободных экономических зон (СЭЗ) как стратегического бренд-элемента и их влияния на повышение инвестиционной привлекательности территории. В качестве объекта исследования рассматривается Айритомская свободная экономическая зона в Республике Узбекистан, выявляются существующие инфраструктурные, организационные и маркетинговые проблемы её функционирования. На основе анализа передового опыта зарубежных стран разработаны практические рекомендации по совершенствованию стратегий развития логистических услуг, повышению их конкурентоспособности и формированию устойчивого инвестиционного имиджа зоны.*

Ключевые слова: *свободная экономическая зона; логистические услуги; брендинг; инвестиционная привлекательность; инфраструктура; цифровизация; система «единого окна»; зарубежный опыт.*

Abstract: *This thesis examines the formation of logistics services within free economic zones (FEZ) as a strategic branding element and their role in enhancing investment attractiveness. The research focuses on the Ayritom Free Economic Zone in the Republic of Uzbekistan, identifying existing infrastructural, organizational, and marketing challenges affecting its performance.*

Based on the analysis of advanced international practices, practical recommendations are developed to improve logistics service development strategies, strengthen competitiveness, and enhance the investment appeal of the zone.

Keywords: *free economic zone; logistics services; branding; investment attractiveness; infrastructure; digitalization; “one-stop shop” system; foreign experience.*

Kirish: Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va eksport salohiyatini oshirishning muhim vositasidir . O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bir qator erkin iqtisodiy zonalarlar tashkil etilib, ularda investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda . Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, soliq imtiyozlari bilan bir qatorda, zamonaviy va samarali logistika xizmatlarining mavjudligi, shuningdek, zonaning mustahkam brendga ega bo‘lishi investitsion qarorlarni qabul qilishda hal qiluvchi

omillardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, logistika xizmatlarini brendlash va ularning sifatini oshirish orqali erkin iqtisodiy zonalarning umumiy investitsion jozibadorligini yangi bosqichga olib chiqish dolzarb vazifadir.

Asosiy qism:

Erkin iqtisodiy zonalardagi logistika xizmatlari va investitsion jozibadorlikning o‘zaro bog‘liqligi logistika xizmatlari orqali erkin iqtisodiy zonalar rezidentlari uchun “qon tomir” vazifasini o‘taydi. Ularning tezkor, ishonchli va arzonligi ishlab chiqarilgan mahsulotning raqobatbardoshligini belgilaydi. Bugungi kunda investorlar nafaqat soliq imtiyozlari, balki real infratuzilma – yo‘llar, bojxona rasmiylashtiruvi tezligi, omborxona xizmatlari va muhandislik kommunikatsiyalarining barqarorligiga ham katta e’tibor qaratmoqda . Toshkent viloyatidagi “Ayritom” erkin iqtisodiy zonasi misolida ko‘rinadiki, logistika bilan bog‘liq muammolar (transport tirbandliklari, bojxona jarayonlarining uzoq davom etishi, infratuzilma yetishmasligi) biznes faoliyatiga jiddiy to‘siq bo‘lib, zona obro‘siga putur yetkazmoqda. Bu esa investitsion jozibadorlikni pasaytiruvchi asosiy omillardan biridir.

*****Logistika xizmatlarini brendlash strategiyasi

Brendlash deganda, logistika xizmatlarining yuqori sifatini doimiy ta’minlash va uni potentsial investorlar ongida mustahkamlash tushuniladi. Bu quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- Ishonchlilik: Yuklarning belgilangan muddatda va but saqlanishi kafolati.

- Tezkorlik: Bojxona va boshqa ma’muriy jarayonlarning soddaligi va shaffofligi.

- Raqamlashtirish: Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yuklarni real vaqt rejimida kuzatish, “yagona darcha” tizimi orqali hujjat aylanishini soddalashtirish .- Qulay narx siyosati: Ijara va xizmat narxlarining bozor sharoitlariga mosligi va kichik biznes uchun imtiyozli shartlarning mavjudligi .

***** Investitsion jozibadorlikni oshirishning strategik yo‘nalishlari

Xorijiy tajriba (BAA, Janubiy Koreya, Xitoy) erkin iqtisodiy zonalarning muvaffaqiyati ularning “iqtisodiy xandaq” (economic moat) – ya’ni raqobatchilarga nisbatan barqaror ustunlikka ega bo‘lishiga bog‘liqligini ko‘rsatadi . Bunday ustunlikka erishish uchun quyidagi strategiyalar muhim ahamiyat kasb etadi :

- Strategik joylashuvdan foydalanish: orqali erkin iqtisodiy zonalarning xalqaro transport koridorlariga (masalan, “O‘rta yo‘lak”) yaqinligi uni tabiiy ravishda logistika hubiga aylantiradi - Ilg‘or infratuzilma yaratish: Nafaqat yo‘llar va omborlar, balki zamonaviy IT-infratuzilma, barqaror energiya ta’minoti va maishiy xizmat ko‘rsatish ob’ektlarini qurish .

- Ma’muriy va huquqiy kafolatlar: Investorlar uchun “bir darcha” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va shaffof soliq rejimini joriy etish .

- Klastr yondashuvi: Erkin iqtisodiy zonalar hududida bir-birini to‘ldiruvchi sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini jamlash orqali sinergiya effektiga erishish .

***** O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalarida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

“Ayritom” erkin iqtisodiy zonasi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda:

- Infratuzilma yetishmovchiligi va yuqori ijara narxlari.
- Bojxona jarayonlaridagi byurokratiya.
- Xizmat ko‘rsatish sohasining sust rivojlanganligi (kafelar, mehmonxonalar, bank xizmatlari).

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

1. Logistika xarajatlarini optimallashtirish: Ijara to‘lovlari va kommunal xizmatlar tariflarini qayta ko‘rib chiqish, kichik va o‘rta biznes uchun maxsus tarif paketlarini joriy etish.

2. Bojxona ma’muriyatchiligini raqamlashtirish: “Yagona darcha” tizimini takomillashtirish, inson omilini kamaytirish va bojxona rasmiylashtiruvi vaqtini qisqartirish.

3. Brendni shakllantirish: Erkin iqtisodiy zonalarni “O‘zbekistonning logistik Dubayi” sifatida konumlashtirish uchun faol marketing siyosatini olib borish, xalqaro reytinglarda ishtirok etish va muvaffaqiyatli rezidentlar misolida zonaning imidjini mustahkamlash .

4. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish: Erkin iqtisodiy zonalar hududida zamonaviy servis obyektlarini (mehmonxonalar, ovqatlanish shoxobchalari, bank filiallari) tashkil etish uchun qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish.

Xulosa: Erkin iqtisodiy zonalarning investitsion jozibadorligini oshirish endilikda faqatgina soliq imtiyozlari bilan cheklanib qolmaydi. Asosiy e’tibor logistika xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash va ularni mustaqil brend sifatida shakllantirishga qaratilishi lozim. O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalari, jumladan “Ayritom” tajribasi, infratuzilma va ma’muriy jarayonlarni yaxshilamasdan turish mumkin emasligini ko‘rsatdi. Dunyoning ilg‘or zonalari (Meydan, Incheon, Alat) tajribasi asosida raqamlashtirish, klastrlashtirish va brendlash strategiyalarini joriy etish orqali O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalari nafaqat mintaqaviy, balki global logistika markazlariga aylanish imkoniyatiga ega. Bu esa o‘z navbatida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimini yanada ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Мусабаева Л.А. *— СамИЭС, старший преподаватель,*
Мусабоев Р.А. *СамИЭС, самостоятельный соискатель PhD.*

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И СТРАТЕГИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ В СФЕРЕ БЫТОВЫХ УСЛУГ

Аннотация. *Статья анализирует влияние цифровой трансформации на стратегическое управление в сфере бытовых услуг. Рассмотрены ключевые подходы к цифровизации, выявлены тенденции, преимущества и ограничения внедрения технологий, приведены данные по развитию электронных сервисов в Узбекистане и даны рекомендации по совершенствованию регионального управления.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, стратегическое управление, бытовые услуги, инновации, региональное развитие, электронные сервисы, цифровая экономика*

Annotatsiya: *Maqolada raqamli transformatsiyaning maishiy xizmatlar sohasida strategik boshqaruvga ta’siri tahlil qilinadi. Raqamlashtirishning asosiy yondashuvlari ko‘rib chiqilgan, texnologiyalarni joriy etish tendensiyalari, afzalliklari va cheklovlari aniqlangan, O‘zbekistonda elektron servislar rivojlanishiga oid ma’lumotlar keltirilgan hamda hududiy boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, strategik boshqaruv, maishiy xizmatlar, innovatsiyalar, hududiy rivojlanish, elektron servislar, raqamli iqtisodiyot.*

Abstract: *The article analyzes the impact of digital transformation on strategic management in the household services sector. The main approaches to digitalization are considered, trends, advantages, and limitations of technology implementation are identified, data on the development of electronic services in Uzbekistan are presented, and recommendations for improving regional governance are provided.*

Keywords: *digital transformation, strategic management, household services, innovation, regional development, electronic services, digital economy.*

Актуальность темы исследования. Современ ный этап социально-экономического развития характеризуется не только активным внедрением цифровых технологий, но и формированием совершенно новых моделей ведения бизнеса, взаимодействия с потребителями и построения систем управления. Это особенно заметно в сфере услуг, где ключевым ресурсом выступает информация, а качество обслуживания напрямую зависит от скорости и эффективности ее обработки. В условиях цифровизации традиционные подходы к управлению предприятиями бытового обслуживания постепенно теряют актуальность, уступая место инновационным инструментам стратегического планирования и менеджмента.

Бытовое обслуживание, являясь социально значимым сегментом экономики, затрагивает широкий круг потребностей населения — от ремонта одежды и бытовой техники до парикмахерских услуг и сервисного обслуживания автомобилей. Доступность и качество данных услуг напрямую влияют на уровень жизни граждан, социальную стабильность и уровень занятости, особенно среди молодежи и женщин. В этих условиях цифровая трансформация открывает новые возможности для

совершенствования управления: внедрение электронных сервисов, мобильных приложений, CRM-систем и онлайн-платформ позволяет повысить прозрачность взаимодействия с клиентами, оптимизировать производственные и финансовые процессы, а также снизить транзакционные издержки.

В Узбекистане реализация стратегии **«Цифровой Узбекистан – 2030»** определила цифровизацию в качестве одного из приоритетов государственной политики. В рамках данной стратегии особое внимание уделяется развитию сервисных отраслей, включая бытовые услуги, поскольку именно они напрямую формируют социальное благополучие населения. Внедрение цифровых решений в этой сфере позволит не только повысить качество и скорость предоставления услуг, но и расширить их географическую доступность, что особенно важно для сельских районов, где сохраняется дефицит бытовых сервисов.

Для регионов, в частности для Андижанской области, где уровень предпринимательской активности традиционно высок, цифровая трансформация бытовых услуг становится ключевым фактором формирования конкурентоспособной экономики. Регион располагает значительным трудовым потенциалом и широкой сетью малых предприятий, однако их развитие сдерживается низким уровнем цифровизации и ограниченным доступом к современным технологиям. Решение данной проблемы позволит не только увеличить налоговые поступления и стимулировать занятость, но и создать условия для развития социального предпринимательства, ориентированного на решение локальных задач.

Таким образом, актуальность исследования определяется необходимостью поиска эффективных стратегических подходов к развитию бытовых услуг в условиях цифровой экономики. Это позволит не только модернизировать сам сектор, но и превратить его в важный драйвер социально-экономического развития регионов, обеспечивая устойчивый рост и повышение качества жизни населения.

Анализ использованной литературы

М. Портер (2018) в труде «Competitive Advantage» акцентирует внимание на значении цифровых технологий для повышения устойчивого конкурентного преимущества и интеграции стратегического управления в инновационные процессы. Его подход подчеркивает необходимость анализа внешней и внутренней среды для адаптации стратегии к цифровой экономике[4].

Ф. Котлер и Г. Армстронг (2010) в книге «Principles of Marketing» рассматривают цифровые инструменты как основу современной маркетинговой и сервисной стратегии. Они подчеркивают, что цифровизация позволяет формировать новые ценностные предложения и эффективно управлять отношениями с клиентами[5].

П. Друкер (2015) в работе «Effective Management» утверждает, что цифровые технологии формируют новые стандарты эффективности управления, включая управление знаниями и ресурсами[6].

А.М. Белянова, В.Н. Бурков (2021) изучают роль цифровых решений в управлении региональным развитием и подчеркивают важность цифровых платформ в стратегическом планировании, включая прогнозирование и мониторинг результатов[7].

Н.В. Иванова (2020) исследует специфику цифровизации бытовых услуг на муниципальном уровне, отмечая значимость электронных сервисов для повышения доступности услуг населению и сокращения транзакционных издержек[8].

О.В. Иншаков (2022) рассматривает кластеризацию и цифровые экосистемы как механизм повышения эффективности сферы услуг, указывая на возможности цифровых платформ для интеграции малого и среднего бизнеса[9].

К.Х. Абдурахманов (2017) выделяет стратегические направления цифрового развития Узбекистана и влияние на сферу услуг, акцентируя внимание на необходимости усиления роли государства в цифровой модернизации[10].

Н.С. Зиядуллаев (1991) в своих трудах подчеркивает значение системного подхода к управлению региональной экономикой, который сегодня трансформируется под влиянием цифровых технологий[11].

Институт макроэкономических и региональных исследований РУз (2022) указывает на недостаточную разработанность цифровых моделей стратегирования на локальном уровне, что создает необходимость адаптации международного опыта к национальным условиям[12].

Таким образом, анализ литературы показывает, что, несмотря на наличие обширных теоретических разработок, прикладные исследования в сфере цифровой трансформации бытовых услуг на региональном уровне остаются ограниченными, что подтверждает научную новизну данной работы.

Методология исследования

В работе применены:

- контент-анализ нормативно-правовых документов Республики Узбекистан (включая стратегию «Цифровой Узбекистан – 2030»);
- SWOT-анализ цифровой трансформации в сфере бытовых услуг;
- сравнительный анализ динамики цифровизации в регионе по ключевым показателям;
- экспертные интервью с представителями малого бизнеса и специалистов по региональному развитию.

Анализ результатов исследования

Таблица 1. Динамика цифровизации в сфере бытовых услуг (по данным 2020–2024 гг.)

Год	Доля предприятий, использующих цифровые сервисы (%)	Объем онлайн-заказов (млрд сум)	Уровень автоматизации процессов (%)
2020	12	15	10
2021	19	26	18
2022	25	42	23
2023	33	68	29
2024	45	110	41

Источник: составлено автором на основе данных Государственного комитета Республики Узбекистан по статистике, Министерства цифровых технологий и нормативных документов (Указы Президента РУз №УП-6079 от 05.10.2020, №ПП-4699 от 07.05.2020 и др.).

Анализ данных показывает:

- рост числа предприятий, внедряющих цифровые сервисы, почти в четыре раза за 5 лет;
- активное увеличение объема онлайн-заказов, что отражает изменение потребительских привычек и доверие населения к цифровым каналам;
- относительно низкий уровень автоматизации (41%), что указывает на значительные резервы повышения эффективности.

Схема 1. Модель стратегического управления цифровой трансформацией бытовых услуг



Эта модель позволяет обеспечить интеграцию цифровых инструментов в систему стратегического управления, усиливая взаимосвязь между государством, бизнесом и обществом.

Выводы и предложени

1. Цифровая трансформация является ключевым фактором повышения эффективности стратегического управления в сфере бытовых услуг.

2. Несмотря на положительные тенденции, уровень автоматизации предприятий остается низким, что требует дополнительных мер поддержки.

3. Для повышения эффективности предлагается:

- разработать региональные стратегии цифровой трансформации бытовых услуг до 2030 года;
- создать региональные центры цифровых инноваций с функциями обучения, консалтинга и внедрения технологий;
- расширить доступ к финансированию цифровых проектов (льготные кредиты, гранты, венчурные фонды);
- внедрить электронные платформы мониторинга и оценки стратегических программ;
- развивать систему партнерства вузов и бизнеса в подготовке специалистов по цифровым сервисам.

Практическая значимость исследования

Результаты исследования могут быть использованы:

- органами государственной власти при разработке региональных стратегий цифровизации сферы услуг;
- предприятиями бытового обслуживания для выбора приоритетных направлений цифровых инвестиций;
- образовательными учреждениями для обновления учебных программ, связанных с цифровым менеджментом и сервисными технологиями.

Список литературы:

1. **Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28.01.2022 г. «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы»**. https://lex.uz/docs/5841077

2. Указ Президента Республики Узбекистан, от 05.10.2020 г. № УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации» https://lex.uz/ru/docs/5031048

3. **Указ Президента Республики Узбекистан № УП-158 от 11.09.2023 г. «О стратегии “Узбекистан – 2030”»**. https://lex.uz/uz/docs/6600404

4. **Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-308 от 30.08.2024 г. «О мерах по развитию государственно-частного партнёрства на 2024–2030 годы»**. https://lex.uz/ru/docs/7089558

5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси — Т.: Ўзбекистон, 2022.

6. Porter M. Competitive Advantage. – Moscow: Alpina Business Books, 2018.
7. Kotler P., Armstrong G. Principles of Marketing. – Moscow: Williams, 2010.
8. Drucker P. Effective Management. – Moscow: Williams, 2015.
9. Белянова А.М., Бурков В.Н. Управление региональным развитием: теория и практика. – Москва: Наука, 2021.
10. Иншаков О.В. Кластерные цифровые экосистемы в сфере услуг // Экономические науки. – 2022.
11. Абдурахманов К.Х. Стратегические направления и перспективы развития Узбекистана. – Ташкент: Плехановский РЭУ, 2017.
12. Зиядуллаев Н.С. Региональная экономика: теория и практика управления. – Ташкент: Узбекистан, 1991.
13. Институт макроэкономических и региональных исследований РУз. Аналитические материалы по цифровой трансформации. – Ташкент, 2022.

Xoliqulov Anvar Nematovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasi mudiri, i.f.n., professor.
Xoliqulova Dilobar Temurovna - Samarqand shahridagi kasbiy ko’nikmalar markazi xodimasi

RESTORAN XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Annotasiya: Maqolada restoran xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish, restoran tadbirkorligi sohasida xizmatlar samaradorlini baholash usullari keng yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Restoran, xizmatlar, raqobatbardoshlik, restoran xizmatlari, xizmat ko’rsatish, umuiy ovqatlanish korxonalari.

Annotatsiya: V state opisanы metodы povыsheniya konkurentosposobnosti restorannыx uslug, otsenka effektivnosti uslug v sfere restorannogo predprinimatelstva.

Klyuchevыe slova: Restoran, uslugi, konkurentosposobnost, restorannыe uslugi, servis, predpriyatiya obщestvennogo pitaniya.

Annotation: The article describes the methods of increasing the competitiveness of restaurant services, evaluating the efficiency of services in the field of restaurant entrepreneurship.

Key words: Restaurant, services, competitiveness, restaurant services, service, catering establishments.

Dunyo mamlakatlarida restoran xizmatlarini rivojlantirish bo’yicha xalqaro tajribalar asosida tarmoqning samarali rivojlanishi, restoran xizmatlari ko’rsatishni modernizasiyalash, ushbu xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish, restoran tadbirkorligi sohasida xizmatlar samaradorlini baholash usullarini aniqlash, restoran tadbirkorligi sohasida iqtisodiy subyektlar aloqalari samaradorligini oshirish, restoran xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish kabi yo’nalishlardagi ilmiy muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi vaqtda umumiy ovqatlanish korxonalari restoran biznesi bozorini tashkil etadi, ushbu soha esa o’z navbatida har qanday davlat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo’lib, mamlakatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, o’rni va ahamiyati doimiy ravishda ortib borayotgan iste’mol bozorining ajralmas qismi hisoblanadi. «Restoran biznesi» tushunchasi juda ko’p qirralidir. Respublikamizda hozirgacha ushbu tushunchaning qonuniy ta’rifi mavjud emas va barcha davlat standartlari umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyatni tartibga solishga qaratilgan.

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati sifatida restoran biznesida ko’pgina korxonalar va tadbirkorlar faoliyat olib bormoqda.

Restoran biznesi sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining o’ziga xos xususiyatlari mavjud:

– tadbirkorlik tuzilmalarini ishlab chiqarish va iste’mol qilish jarayonlarining birligi;

– kichik korxonalar restoran biznesi sohasidagi tadbirkorlik faoliyatida raqobatbardosh bo’lib, nisbatan istiqbolli rivojlanish imkoniyatlariga egadir;

– restoran biznesi tadbirkorlik tuzilmasining raqobatbardoshlik strategiyasini shakllantirishda hudud xususiyatlari katta ta’sirga ega;

– tarmoqlararo raqobatning yuqori darajasi (ayrim hollarda sanoat korxonalarining potensial va haqiqiy raqobatchilari boshqa tarmoqlarning xo’jalik yurituvchi subyektlari – do’konlar, bozorlar, madaniyat va ko’ngilochar markazlar va boshqalar bo’lishi mumkin);

– korxonalarda sanitariya-gigiyena me’yorlarini, zarur mahsulotlarni sotib olishga qo’yiladigan talablarni, shuningdek, mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish tartiblarini belgilash orqali restoran biznesini tartibga solishda davlatning aralashuvi.

Shu bilan birga, restoran biznesi tadbirkorlik tuzilmalarining asosiy xususiyati restoran mahsulotining zamonaviy bozor talablariga javob berishi kerak bo’lgan moddiy (mahsulot) va nomoddiy (xizmat) tarkibiy qismlariga bo’lingan ikki tomonlama komponentidir.

Ushbu sohadagi tadbirkorlik tuzilmalarining o’ziga xos xususiyati odamlarning restoran jarayonida keng ishtirok etishi bo’lib, bu ko’pincha restoran biznesidagi eng katta muammolardan biri – sifatning pasayishi yoki oshishi va standartlashtirishga mos kelmaslikni keltirib chiqaradi. Bundan xulosa qilish mumkinki, yuqori malakali va bilimli xodimlarning mavjudligi restoran biznesida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik tuzilmalarining muvaffaqiyati garovi hisoblanadi. Restoran biznesining respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga qo’shayotgan hissasi ularning ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarga bog’liqdir.

Restoran xizmatlari – bu mijozlarga maxsus ajratilgan joyda mazali, xilma-xil, sog’lom oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlaydigan, asosiy va gigiyenik talablarga javob beradigan, mijozlarning talabini to’liq va sifatli qondirishga yo’naltirilgan ma’lum turdagi xizmatlar majmuidir.

Ta’kidlash lozimki, restoran biznesidagi raqobat o’ziga xos xususiyatlarga ega, bular:

− restoran biznesining tadbirkorlik tuzilmalarini hudud jihatdan cheklangan bozorga yo’naltirilganligi;

− restoran biznesidagi tadbirkorlik tuzilmalari o’rtasidagi raqobat, qoida tariqasida, bayramlar, xizmat uchrashuvlari, sayyohlar va boshqalarga xizmat ko’rsatish uchun shahar miqyosi bilan cheklanadi, xashamatli restoranlar bundan mustasno;

− arzon narx segmentidagi restoran biznesining tadbirkorlik vakillari, bir xil bozor segmentida ma’lum (ixtisoslashtirilgan) mahsulot assortimentini sotadigan, aholining ovqatlanishdagi turli xil ehtiyojlarini qondiradigan turli xil turdagi ko’plab ovqatlanish korxonalari mavjud bo’lganda faoliyat olib boradi;

− kam miqdordagi investisiyalar bilan bozorga kirish imkoniyati (arzon narxlar);

− umumiy ovqatlanish korxonalarining ishlab chiqarish, sotish va iste’molni tashkil etish funksiyalarini bajarishi bilan bog’liq raqobatning o’ziga xos xususiyati. Bu, bir tomondan, ma’lum hajmdagi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini, ikkinchi tomondan, iste’molchilarning ehtiyojlarini, ularning to’lov qobiliyatini hisobga olishni talab qiladi.

Bugungi kundagi umumiy ovqatlanish sanoati xalq xo’jaligining o’ziga xos tarmog’i bo’lib, iste’molchilarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tayyor mahsulot ishlab chiqarish, sotish va ularga xizmat ko’rsatish jarayonini kompleks tarzda amalga oshiruvchi industriya hisoblanadi.

Mamlakatimizda umumiy ovqatlanish korxonalari sonining oshib borishi bilan birga, ushbu korxonalarda ko’rsatilayotan xizmatlarga talab ham uzluksiz o’sib bormoqda. Umumiy ovqatlanish korxonalarida ko’rsatilayotgan xizmatlarni yanada kengaytirish va rivojlantirish, iste’molchilar talablaridan kelib chiqqan holda va unga muvofiq ravishda tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Ovqatlanish xizmatlarini taqdim etayotgan xo’jalik subyektlari faoliyatini rivojlantirishga innovasion yondashish bugungi kunning talabi hisoblanadi.

Ko’pchilik tadqiqotchilarning fikricha, restoran biznesida muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshi joylashuvga ega bo’lgan binolar muhim ahamiyatga egadir. Strategik ahamiyatga ega tanlangan joy tashrif buyuruvchilarni jalb qilish va ularni ushlab turish kampaniyasining bir qismiga aylanishi lozim:

− shaharning savdo va ma’muriy zonasida ishlaydigan umumiy ovqatlanish korxonalari (muayan soatlarda ishlaydigan tashrif buyuruvchilar potogi uchun mo’ljallangan);

− shahar markazida joylashgan va faoliyat yuritadigan umumiy ovqatlanish korxonalari. Ular turli xil taomlarni taklif qiladilar yoki tushlik yoxud kechki ovqat bilan ta’minlashga ixtisoslashgan; muayyan soatlarda ishlaydi va ko’psonli mijozlarga ega.

− dam olish va ko’ngilochar zonalarda faoliyat yurituvchi korxonalar (ularning faoliyati mavsumiy tavsifga ega bo’lishi mumkin);

− muayayn korxona tarkibiga kiruvchi ovqatlanish korxonalari (ham korxona xodimlariga, ham keng jamoatchilikka xizmat ko’rsatishga mo’ljallangan bo’lishi mumkin);

− ko’chma restoranlar – klassik restoran turi hisoblanmaydi (maxsus tadbirlarda xizmatlar ko’rsatiladi – uy sharoitida ko’p miqdordagi oziq-ovqatlarni tayyorlash qiyin bo’lgan ziyofatlar, kechalar;

− yo’lovchilarga xizmat ko’rsatadigan ovqatlanish korxonalari. Kunu-tun ishlaydigan korxonalar – odatda ular cheklangan assortimentga ega bo’lib, tez xizmat ko’rsatadi. Restoranlar darajasi oatda poyezd yoki kema klassiga qarab belgilanadi. Shuningdek, avtoturistlar uchun korxonalar ham yo’llar bo’ylab joylashgan bo’ladi;

− vokzal restoranlari – temir yo’l, avtovokzallar, aeroportlarda joylashgan restoranlar, ular kun-tun ishlaydi. Ular xilma-xil menyuga ega bo’lmaydi va tez xizmat ko’rsatadi;

− vagon restoranalar – ular asosan uzoq masafaga ketuvchi poyezdlarda joylashgan bo’ladi. Bunda asosiy talab – bu joyning ishonchliligi, ish soatlarining cheklanganligi;

− teloxoddagi restoranlar. Ular sayohat qiluvchi yo’lovchilarning klassiga bog’liq holda turli xil klasslarda bo’lishi mumkin. Muayyan soatlarda ishlaydi va o’z-o’ziga xizmat ko’rsatadigan restoranlar bo’lishi mumkin;

− samolyotlardagi restoranlar – umuman ular restoran hisoblanmaydi, balki parvoz vaqtida yo’lovchilarga oziq-ovqat va ichimliklar taqdim etadi. Menyudagi taomlar odatda kichik, biznes-klass va birinchi darajali sayohatchilar uchun ovqatlanishda xilma-xilligi bilan farqlanadi. Biroq, keyingi vaqtlarda parvoz qilish paytida ovqatlanish turli aviakompaniyalar o’rtasidagi raqobat omili sifatida qaralmoqda.

Restoran biznesi bozorini assortimentga ko’ra tasniflanishiga ovqatlanish korxonasida taqdim etiladigan asosiy taomlarning ro’yxati sezilarli darajada ta’sir ko’rsatadi.

1. To’liq xizmat ko’rsatadigan umumiy ovqatlanish korxonalari (ham restoran, ham o’z mehmonlariga taomlar va ichimliklarning keng tanlovini taklif etadigan kafelar);

2. Ixtisoslashtirilgan umumiy ovqatlanish korxonalari (ixtisoslashuvi har xil bo’lishi mumkin: muayyan milliy oshxona taomlaridan tortib, bir yoki bir nechta taomlargacha (shirinliklar, jo’ja taomlari, dengiz mahsulotlari)1.

Tashkiliy jihatdan, ko’pchilik to’liq xizmat ko’rsatishga ixtisoslashgan restoranlar mustaqil tuzilma sifatida faoliyat yuritib, ular «lyuks» klassga mos keladi va eng yaxshi taom va moda talablariga javob beradi.

O’tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosa, takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Umumiy ovqatlanish maskanlari asoschilarining asosiy guruhi o’z aktivlarini faoliyati sekinlashayotgan tarmoqlardan olib, yuqori daromad keltirishi mumkin bo’lgan segmentlariga investisiyaarni kiritayotgan tadbirkorlardir. Bundan tashqari, umumiy ovqatlanish korxonalarining funksiyalari kengaymoqda.

Ishlab chiqarish va savdo funksiyalari, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini tashkil qilish funksiyasidan tashqari, aholining bo’sh vaqtini va ijtimoiy tadbirlarini (madaniy va ijtimoiy funksiyalar) tashkil etish zarurati paydo bo’lmoqda.

2. Sohada kichik biznesning keng tarqalganligi ko’plab restoran biznesi korxonalarining restoran xizmatlari bozori faoliyatining yangi qonuniyatlari va tendensiyalariga muvofiq raqobat muhitidagi o’zgarishlarga nisbatan tez moslashishi uchun imkon beradi. Bundan tashqari, ko’plab tadbirkorlarni restoran biznesiga investisiyalarning qaytarilish muddati qisqaligi, shuningdek kapital aylanmasining yuqori darajasi va kapitallashuvning nisbatan past darajasi jalb etadi.

3. Restoran biznesi tadbirkorlik faoliyatining o’ziga xos sohasi bo’lib, unda yuqori raqobatli va o’zgaruvchan bozorda muvaffaqiyatga samarali boshqaruv qarorlari orqali erishiladi va qaror qabul qilish va moliyaviy natijalar o’rtasidagi vaqt oralig’i juda qisqadir. Bu xususiyatni ikki jihatdan baholash mumkin. Bir tomondan, qabul qilingan qaror natijasiga tezda ega bo’lish restoran faoliyatining barcha jihatlarini tashkil etishga ijodiy yondashish imkoniyatini ochib beradi, boshqa tomondan, standart boshqaruv qarorlaridan foydalanish ancha muammoli bo’ladi.

4. Restoran biznesining tadbirkorlik tuzilmasida iqtisodiy jarayonning takror ishlab chiqarilishi oziq-ovqat va boshqa xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish va iste’mol qilish jarayonlarining birligiga bog’liq. Bundan tashqari, ular faoliyatining tabiati ko’p jihatdan bunday korxonalar mahsulotlarining o’ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

5. Restoranda doimiy sifatni yaxshilash jarayoni quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi: xizmat davomida restoran mahsulotining joriy sifati haqida ma’lumot to’plash (mijozlarning qarorlari va istaklari); restoranning haqiqiy (tavsiya etilgan) sifatini o’rganish va tahlil qilish; restoran mahsulotini mijozlar talablariga uzluksiz moslashtirish.

V SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA INVESTISIYALARNI JALB QILISH VA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.

Abduxakimov Ilhom Abduvohid o‘g‘li *– Magistratura bosqich talabasi, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali*

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya*: Mazkur maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda kredit risklarini riskga asoslangan yondashuv asosida baholash va monitoring qilish masalalari tahlil qilingan. Muammoli kreditlarning bank moliyaviy barqarorligiga ta’siri o‘rganilib, ularni kamaytirish bo‘yicha samarali boshqaruv mexanizmlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida kredit portfeli sifatini oshirish va bank risk-menejment tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: tijorat banklari, kredit risklari, muammoli kreditlar, kredit portfeli, riskga asoslangan yondashuv, risk-menejment, kredit monitoringi, bank barqarorligi.*

Аннотация*: В данной статье проанализированы вопросы совершенствования системы управления проблемными кредитами в коммерческих банках, а также оценки и мониторинга кредитных рисков на основе риск-ориентированного подхода. Изучено влияние проблемных кредитов на финансовую устойчивость банков и обоснованы эффективные механизмы их снижения. По результатам исследования разработаны научные предложения по повышению качества кредитного портфеля и совершенствованию системы риск-менеджмента банков.*

Ключевые слова*: коммерческие банки, кредитные риски, проблемные кредиты, кредитный портфель, риск-ориентированный подход, риск-менеджмент, кредитный мониторинг, финансовая устойчивость банка.*

Abstract*: This article analyzes the issues of improving the management system of non-performing loans in commercial banks, as well as the assessment and monitoring of credit risks based on a risk-based approach. The impact of non-performing loans on the financial stability of banks is examined, and effective mechanisms for reducing them are substantiated. Based on the research results, scientific recommendations were developed to improve the quality of the loan portfolio and enhance the bank risk management system.*

Keywords*: commercial banks, credit risk, non-performing loans, loan portfolio, risk-based approach, risk management, credit monitoring, bank financial stability.*

Hozirgi globallashuv jarayonlarining jadallashuvi hamda moliyaviy bozorlar barqarorligining izdan chiqishi sharoitida tijorat banklari faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan kredit portfelining sifatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Kredit portfelining sifat darajasi bankning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va kapital yetarliligi kabi muhim ko‘rsatkichlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, muammoli kreditlar ulushining ortishi bank resurslarining aylanish

samaradorligini pasaytiradi, aktivlar sifati yomonlashishiga olib keladi va natijada bank tizimining umumiy barqarorligiga salbiy ta’sir qiladi. So‘nggi yillarda iqtisodiy muhitdagi beqarorlik, inflyatsiya darajasining o‘sishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda aholi daromadlarining yetarli darajada barqaror emasligi, shuningdek, tashqi iqtisodiy omillarning ta’siri kreditlar bo‘yicha to‘lov intizomining susayishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida, tijorat banklarida muammoli kreditlar hajmining ortishiga olib kelib, mazkur masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada soliq imtiyozlarining iqtisodiy tizimdagi o‘rni va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Soliq imtiyozlari davlat fiskal siyosatining muhim vositasi sifatida ishlab chiqarishni kengaytirish, investitsion faollikni oshirish va tadbirkorlikni rag‘batlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotda tezlashtirilgan amortizatsiya, investitsion xarajatlarni chegirish va soliq ta’tili kabi mexanizmlarning iqtisodiy samaradorligi ko‘rib chiqilgan. 2025-yil prognoz ma’lumotlari asosida soliq imtiyozlari va to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan. Xulosa sifatida, soliq imtiyozlarini qo‘llashda iqtisodiy asoslanganlik va muvozanat tamoyillariga rioya etish zarurligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *soliq imtiyozlari, fiskal siyosat, iqtisodiy o‘sish, investitsion faollik, to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, tezlashtirilgan amortizatsiya, soliq ta’tili, investitsiya muhiti, budjet daromadlari, makroiqtisodiy barqarorlik.*

Аннотация: *В данной статье проанализирована роль налоговых льгот в экономической системе и их влияние на экономический рост с теоретической и практической точек зрения. Налоговые льготы рассматриваются как важный инструмент фискальной политики, направленный на расширение производства, повышение инвестиционной активности и поддержку предпринимательства. В исследовании оценивается экономическая эффективность таких механизмов, как ускоренная амортизация, вычеты инвестиционных расходов и налоговые каникулы. На основе прогнозных данных за 2025 год проанализирована взаимосвязь между налоговыми льготами и прямыми иностранными инвестициями. В заключение подчеркивается необходимость применения налоговых льгот на основе экономической обоснованности и принципов сбалансированной политики.*

Ключевые слова: *налоговые льготы, фискальная политика, экономический рост, инвестиционная активность, прямые иностранные инвестиции, ускоренная амортизация, налоговые каникулы, инвестиционный климат, бюджетные доходы, макроэкономическая стабильность.*

Abstract: *This article analyzes the role of tax incentives within the economic system and their impact on economic growth from both theoretical and practical perspectives. Tax incentives are examined as an important instrument of fiscal policy aimed at expanding production, increasing investment activity, and supporting entrepreneurship. The study evaluates the economic effectiveness of mechanisms such as accelerated depreciation, investment expense deductions, and tax holidays. Based on the 2025 forecast data, the relationship between tax incentives and foreign direct investment is assessed. The findings emphasize the necessity of applying tax incentives on the basis of economic justification and balanced policy principles.*

Keywords: *tax incentives, fiscal policy, economic growth, investment activity, foreign direct investment, accelerated depreciation, tax holidays, investment climate, budget revenues, macroeconomic stability.*

Kirish. Iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarini bosib o‘tgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar tizimida soliq imtiyozlari muhim o‘rin egallaydi. Ular davlatning fiskal siyosati doirasida iqtisodiy jarayonlarni rag‘batlantirish va tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida soliq imtiyozlari ustuvor iqtisodiy vazifalarni amalga oshirishda samarali instrument bo‘lib xizmat qiladi. Biroq ushbu mexanizmdan noto‘g‘ri foydalanish yoki uni yetarlicha asoslanmagan tarzda qo‘llash kutilgan natijani bermasligi, hattoki iqtisodiy muvozanatning buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Soliq imtiyozlarini joriy etishdan ko‘zlangan bosh maqsad — ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, investitsiya jarayonlarini faollashtirish va iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan muammolarni yumshatishdir. Agar bu jarayon puxta o‘ylab tashkil etilmasa, imtiyozlarning amaliy samaradorligi pasayadi. Amaliy tajriba ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan imtiyozlarning mohiyati yetarli darajada anglanmayotganini, shuningdek ularning normativ-huquqiy asoslari mukammal emasligini ko‘rsatmoqda.

Soliq tizimida har bir soliq turi o‘zining rag‘batlantiruvchi funksiyasini asosan beriladigan imtiyozlar orqali amalga oshiradi. Amaldagi tizimni tahlil qilish natijasida iqtisodiy mazmundagi imtiyozlar boshqa turdagi preferensiyalarga nisbatan sezilarli ulushni egallayotgani aniqlanadi. Bu esa ularning iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan imtiyozlar, odatda, uzoq muddatli natijalarni beradi. Ularning ta’siri budjet tushumlarining kelajakdagi o‘sishi, kapital jamg‘arilishining tezlashuvi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishida namoyon bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, iqtisodiyot rivojlangan sari soliq imtiyozlari tizimi ham o‘zgaradi. Bozor munosabatlari chuqurlashgan sharoitda rag‘batlantirish mexanizmlarining shakli va hajmi qayta ko‘rib chiqiladi, ayrim hollarda ularning soni qisqartiriladi. Ayniqsa, ijtimoiy yo‘nalishdagi imtiyozlar iqtisodiy mustaqillik darajasi oshgani sari o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlaydi. Bozor iqtisodiyotini liberallashtirish jarayonida qo‘llaniladigan asosiy soliq imtiyozlari qatoriga quyidagilar kiradi:

tezlashtirilgan amortizatsiya mexanizmi; investitsion hamda ilmiy-tadqiqot xarajatlarini soliq bazasidan chegirish; vaqtinchalik soliq ta’tili joriy etish; ayrim tadbirkorlik subyektlari uchun foyda solig‘i stavkasini pasaytirish. Biroq tezlashtirilgan amortizatsiya amaliyotida ayrim kamchiliklar mavjud. Jumladan, amortizatsiya ajratmalarining investitsiyaga emas, balki joriy xarajatlarga yo‘naltirilishi korxonalarning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasida soliq imtiyozlarining ta’siri bir xil emas. Ayrim davlatlarda imtiyozlar joriy etilishi investitsiya hajmining oshishiga xizmat qilgan bo‘lsa, boshqa holatlarda ularning bekor qilinishi ham investitsiya oqimining kamayishiga olib kelmagan. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, investorlar qaroriga nafaqat soliq yengilliklari, balki institutsional muhit, huquqiy kafolatlar, siyosiy barqarorlik va infratuzilma rivoji ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro tajriba shuni ham ko‘rsatadiki, soliq imtiyozlaridan ortiqcha foydalanish investitsiyalarning nomutanosib taqsimlanishiga va iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois imtiyozlarni qo‘llashda iqtisodiy asoslanganlik va muvozanat tamoyillariga amal qilish zarur.

Tahlil va natijalar. Investitsion faoliyatni rag‘batlantirish maqsadida daromad solig‘idan ozod etish mexanizmi qisqa muddatda ijobiy natija berishi mumkin, biroq bu davlat budjeti daromadlarining kamayishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli milliy va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar uchun teng sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda soliq imtiyozlarining berilishi yoki bekor qilinishi sharoitida to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmidagi o‘zgarishlar aks ettirilgan. Mazkur ma’lumotlar asosida turli davlatlarda soliq siyosati va investitsiya oqimlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish mumkin (1-jadval).

2025-yil yakunlari bo‘yicha shakllangan jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, soliq imtiyozlari joriy etilgan davlatlarda to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmida ijobiy o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, Chexiya va Bolgariyada investitsiya ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada oshishi soliq rag‘batlantirish mexanizmlarining investitsion faollikka samarali ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi. Belarusda ham investitsiya oqimining 1-yildan 2-yilga o‘sishi imtiyozlarning investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Biroq barcha davlatlarda ham soliq imtiyozlari kutilgan natijani to‘liq ta’minlamagan. Masalan, Sloveniya misolida investitsiya hajmining pasayishi kuzatilgan bo‘lib, bu soliq imtiyozlari investitsiya oqimlariga ta’sir etuvchi yagona omil emasligini tasdiqlaydi. Shuningdek, Qozog‘iston, Latviya va Litvada investitsiyalar hajmi oshgan bo‘lsa-da, natija ko‘rsatkichlarining salbiy baholanishi kutilgan samaradorlik darajasiga to‘liq erishilmaganini anglatadi.

Ukraina holatida investitsiya hajmi o‘sishi qayd etilganiga qaramay, umumiy natijaning salbiy baholanishi mamlakatdagi siyosiy beqarorlik va makroiqtisodiy risklar bilan izohlanadi. Estoniya va ayrim Bolgariya ko‘rsatkichlarida investitsiya dinamikasining sustlashuvi esa soliq imtiyozlarining

bekor qilinishi yoki ularning ta’sir darajasining kamayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

1-jadval

Soliq imtiyozlarining berilishi yoki bekor qilinishi asosida xorijiy investitsiyalar samaradorligi

Davlat	Yil	1-yil (mln $)	2-yil (mln $)	Natija (+/-)
Belarus	2024	820	950	++
Bolgariya	2025	580	720	++
Bolgariya	2025	610	770	++
Chexiya	2024	920	1150	++
Sloveniya	2025	480	430	--
Belorussiya	2024	1100	1230	--
Bolgariya	2025	540	510	--
Bolgariya	2024	600	690	--
Estoniya	2025	410	395	--
Qozog‘iston	2025	520	610	--
Latviya	2025	450	530	--
Litva	2024	690	820	--
Slovakiya	2024	360	420	-
Ukraina	2024	580	700	--

Eslatma:

“++” — sezilarli ijobiy ta’sir

“+” — ijobiy ta’sir

“-” — nisbatan past ijobiy o‘sish

“--” — kutilgan salbiy yoki kamayish tendensiyasi

Umuman olganda, jadval ma’lumotlari investitsiya oqimlariga nafaqat soliq siyosati, balki umumiy investitsiya muhiti, huquqiy barqarorlik, institutsional islohotlar va makroiqtisodiy omillar ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shu bois soliq imtiyozlari investitsiyalarni rag‘batlantirishda muhim vosita bo‘lsada, barqaror va uzoq muddatli natijalar kompleks iqtisodiy siyosat va muvozanatli yondashuv orqali ta’minlanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari soliq imtiyozlari iqtisodiyotni tartibga solish va rag‘batlantirishning muhim fiskal instrumenti ekanligini ko‘rsatdi. Ularning qo‘llanilishi ishlab chiqarish hajmining kengayishi, investitsion faollikning ortishi hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatining faollashuvi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bilan birga, soliq imtiyozlarining samaradorligi ularning iqtisodiy jihatdan asoslanganligi, aniq maqsadlarga yo‘naltirilganligi va institutsional mexanizmlar bilan uyg‘unligiga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Tahlillar ayrim davlatlarda soliq preferensiyalari to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining o‘sishiga ijobiy ta’sir

ko‘rsatganini tasdiqlaydi, biroq investitsiya oqimlariga faqat soliq omili emas, balki huquqiy barqarorlik, makroiqtisodiy muhit va infratuzilma rivoji ham sezilarli darajada ta’sir etishi aniqlangan. Shuningdek, imtiyozlardan ortiqcha va tizimsiz foydalanish budjet daromadlarining qisqarishi hamda resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

Shu munosabat bilan, birinchi taklif sifatida soliq imtiyozlarini joriy etishdan oldin ularning fiskal va iqtisodiy samaradorligini baholovchi tizimli monitoring va baholash mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchi taklif sifatida esa soliq imtiyozlarini kapital qo‘yilmalar, innovatsion faoliyat va yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi sohalarga yo‘naltirish orqali ularning uzoq muddatli iqtisodiy ta’sirini kuchaytirish zarur. Umuman olganda, soliq imtiyozlari kompleks va izchil iqtisodiy siyosat bilan uyg‘un holda qo‘llanilgandagina barqaror hamda uzoq muddatli natijalarni ta’minlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Auerbach, A. J., & Hines, J. R. (2002). Taxation and economic efficiency. In A. J. Auerbach & M. Feldstein (Eds.), *Handbook of public economics* (Vol. 3, pp. 1347–1421). Elsevier.

2. De Mooij, R., & Ederveen, S. (2003). Taxation and foreign direct investment: A synthesis of empirical research. *International Tax and Public Finance, 10*(6), 673–693. https://doi.org/10.1023/A:1026376730001

3. IMF. (2019). *Corporate taxation in the global economy*. International Monetary Fund.

4. OECD. (2020). *Tax policy reforms 2020: OECD and selected partner economies*. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/da56c295-en

5. Stiglitz, J. E. (2000). *Economics of the public sector* (3rd ed.). W. W. Norton & Company.

6. UNCTAD. (2023). *World investment report 2023: Investing in sustainable energy for all*. United Nations.

7. Vahobov, A. V., & Malikov, T. S. (2018). *Moliya*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

8. Shodmonov, Sh. Sh., & G‘ofurov, U. V. (2017). *Iqtisodiyot nazariyasi*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

Norqulov Habibullo *– Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Bank-moliya xizmatlari fakulteti “Bank ishi” kafedrasi assistenti,*

Mamayunusova Mexrangiz Olimovna *– Toshkent Alfraganus universiteti katta o’qituvchisi PhD*

BANK DEPOZIT SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOIZ STAVKALARI VA INFLYATSIYA DARAJASINING TA’SIRI

Annotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida bank depozit siyosatini shakllantirishda foiz stavkalari va inflyatsiya darajasi o‘zaro ta’sirini tahlil qiladi. 2025-yilda inflyatsiya darajasi 7,3–7,5 foiz atrofida shakllanib, Markaziy bankning asosiy stavkasi 14 foiz darajasida saqlanib qolgani, real foiz stavkalarining yuqori bo‘lishi va depozitlarni kafolatlash tizimining ta’sirini hisobga olgan holda, depozit bazasini mustahkamlash va jamg‘arishni rag‘batlantirish istiqbollari baholanadi. Tadqiqot bank tizimining likvidligini ta’minlash, real jamg‘arishni oshirish va monetar siyosatning samaradorligiga xizmat qiluvchi mexanizmlarni yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *Depozit siyosati, foiz stavkalari, inflyatsiya darajasi, real foiz stavkalari, asosiy stavka, monetar siyosat, jamg‘arish jozibadorligi, inflyatsion kutilmalar, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, tijorat banklari.*

Аннотация: *В данной статье анализируется взаимодействие процентных ставок и инфляции в формировании депозитной политики банков в Республике Узбекистан. С учетом того, что уровень инфляции в 2025 году составит около 7,3–7,5%, ключевая ставка Центрального банка останется на уровне 14%, высокие реальные процентные ставки и влияние системы гарантирования вкладов, оцениваются перспективы укрепления депозитной базы и стимулирования сбережений. В исследовании освещаются механизмы, обеспечивающие ликвидность банковской системы, увеличение реальных сбережений и эффективность денежно-кредитной политики.*

Ключевые слова: *Депозитная политика, процентные ставки, уровень инфляции, реальные процентные ставки, ключевая ставка, денежно-кредитная политика, привлекательность сбережений, инфляционные ожидания, стратегия «Узбекистан – 2030», коммерческие банки.*

Abstract: *This article analyzes the interaction of interest rates and inflation in the formation of bank deposit policy in the Republic of Uzbekistan. Considering the fact that the inflation rate in 2025 will be around 7.3–7.5 percent, the key rate of the Central Bank will remain at 14 percent, high real interest rates and the impact of the deposit guarantee system, the prospects for strengthening the deposit base and stimulating savings are assessed. The study highlights the mechanisms that serve to ensure the liquidity of the banking system, increase real savings and the effectiveness of monetary policy.*

Keywords: *Deposit policy, interest rates, inflation rate, real interest rates, key rate, monetary policy, attractiveness of savings, inflationary expectations, "Uzbekistan - 2030" strategy, commercial banks.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida bank depozit siyosati monetar barqarorlik va resurslarni samarali taqsimlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va pul-kredit siyosatini takomillashtirish dasturi doirasida foiz stavkalari va inflyatsiya darajasi o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda depozit bazasini mustahkamlash ustuvor yo‘nalish etib belgilangan bo‘lib, 2025-yilda inflyatsiya darajasining 7,3–7,5 foiz atrofida shakllanishi, asosiy stavkaning 14 foiz darajasida saqlanishi va real foiz

stavkalarining oshishi bu jarayonni kuchaytirmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi – depozit siyosatini shakllantirishda foiz stavkalari va inflyatsiya o‘zaro ta’sirining zamonaviy mexanizmlarini (Fisher effekti, real stavkalar dinamikasi, inflyatsion kutilmalar va monetar transmissiya) tahlil qilishdir. Tadqiqotning dolzarbligi 2025-yilda inflyatsiyaning pasayish tendensiyasi, depozitlar o‘sishi va Markaziy bankning qat’iy siyosati bilan bog‘liq bo‘lib, bu choralar jamg‘arishni rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotning nazariy asosi monetar siyosat nazariyasi, Fisher effekti, foiz stavkalari va inflyatsiya o‘zaro bog‘lanishiga tayanadi. Xalqaro nazariyotda (Irving Fisher, Milton Friedman va boshqalar) nominal foiz stavkalari inflyatsiya kutilmalariga mos ravishda o‘sishi (Fisher effekti) va real foiz stavkalari jamg‘arishni rag‘batlantirishi ta’kidlanadi; yuqori inflyatsiya depozitlarning real daromadliligini pasaytirib, jamg‘arishni kamaytirishi mumkin. Markaziy bank va xalqaro tashkilotlar hujjotlari (IMF, Jahon banki FSAP hisobotlari) qat’iy monetar siyosatni inflyatsiyani pasaytirish va real stavkalarni oshirish zarur deb hisoblaydi. O‘zbekiston kontekstida Markaziy bank hisobotlari va mahalliy tadqiqotlar (A.V. Vahobov va boshqalar) inflyatsiyaning pasayishi real foiz stavkalarini oshirib, depozitlarni jalb qilishini ko‘rsatadi; 2025-yilda asosiy stavkaning 14 foizda saqlanishi inflyatsion kutilmalarni jilovlashga xizmat qilmoqda. Xalqaro tajribada (Yevropa Markaziy banki, Fed) inflyatsiya oshganda stavkalar ko‘tarilishi depozit siyosatini mustahkamlashi, ammo o‘tish iqtisodiyotlarida (Qozog‘iston, Rossiya) inflyatsion kutilmalar yuqori bo‘lib, real stavkalar salbiy bo‘lishi mumkinligi qayd etiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inflyatsiyani nazorat qilish orqali real foiz stavkalarini ijobiy saqlash depozit bazasini kengaytirish, likvidlikni oshirish va monetar siyosat transmissiyasini kuchaytirishga yordam beradi; O‘zbekistonda 2025-yilgi pasayish tendensiyasi bu mexanizmni tasdiqlamoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tahliliy, statistik va qiyosiy metodlar qo‘llanildi. Ma’lumotlar manbalari Markaziy bank hisobotlari (2025-yil inflyatsiya va foiz stavkalari dinamikasi), Prezident farmonlari, xalqaro baholar (IMF/Jahon banki FSAP, Fitch reytinglari) va rasmiy statistikadir. Statistik ma’lumotlar (inflyatsiya 7,3–7,5 foiz, asosiy stavka 14 foiz, real stavkalar o‘sishi) o‘zaro ta’sirni baholash uchun tahlil qilindi. Qiyosiy metod orqali Osiyo va Yevropa tajribasi (inflyatsiya va depozit siyosati bog‘lanishi) O‘zbekiston sharoitiga moslashtirildi. Ishonchlilikni ta’minlash uchun rasmiy manbalar (cbu.uz, imf.org, gazeta.uz) va xalqaro hisobotlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. O‘zbekistonda bank depozit siyosatini shakllantirishda foiz stavkalari va inflyatsiya o‘zaro ta’siri 2025-yilda muhim natijalarga erishmoqda. Inflyatsiyaning 7,3–7,5 foizga pasayishi va asosiy stavkaning 14 foizda saqlanishi real foiz stavkalarini oshirib, jamg‘arish jozibadorligini kuchaytirmoqda; depozitlar hajmi sezilarli o‘smoqda. Markaziy bankning qat’iy siyosati inflyatsion kutilmalarni pasaytirib, nominal stavkalarni barqaror saqlamoqda. Jahon banki va IMF tavsiyalari monetar transmissiyani kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirilmoqda. Biroq, xizmatlar inflyatsiyasi

yuqoriroq bo‘lib qolishi va tashqi shoklar (energiya narxlari) qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Fitch va Moody’s baholariga ko‘ra, ushbu ta’sir depozit bazasini mustahkamlab, likvidlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada, foiz stavkalari va inflyatsiya o‘zaro ta’siri bank tizimining barqarorligini kuchaytirib, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va “O‘zbekiston – 2030” maqsadlariga hissa qo‘shmoqda. Shunga qaramay, inflyatsion kutilmalar yuqori bo‘lib qolishi va global xatarlar qisqa muddatli to‘siqlar hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston bank depozit siyosatini shakllantirishda foiz stavkalari va inflyatsiya darajasi o‘zaro ta’siri 2025-yilda yangi bosqichga chiqdi: inflyatsiyaning pasayishi real stavkalarni oshirib, depozitlar oqimini kuchaytirdi va jamg‘arishni rag‘batlantirdi. Ushbu mexanizmlar monetar siyosatni samarali qilish, resurs taqsimotini yaxshilash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilib, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlamoqda. Umuman, inflyatsiyani nazorat qilish orqali depozit siyosatini takomillashtirish bank sektorini 2030-yil maqsadlariga yetkazishga zamin yaratmoqda va global raqobatbardoshlikni oshiradi. Tahlil asosida quyidagi takliflar beriladi: Asosiy stavkani inflyatsiya dinamikasiga moslashtirib, real foiz stavkalarini ijobiy saqlash. Inflyatsion kutilmalarni pasaytirish uchun kommunikatsiya siyosatini kuchaytirish. Depozit turlarini diversifikatsiyalash va raqamli platformalarni rivojlantirish. Moliyaviy savodxonlik dasturlarini kengaytirib, jamg‘arish madaniyatini shakllantirish. Ushbu takliflarning amalga oshirilishi depozit siyosatini yanada samarali qilib, bank tizimining barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi, 2025-yil. – Cbu.uz, 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Asosiy stavka va inflyatsiya hisobotlari. – Cbu.uz, 2025.
4. Jahon banki. Uzbekistan Economic Update va Financial Sector Reports. – Worldbank.org, 2025.
5. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF). Uzbekistan FSAP va Monetary Policy Recommendations. – Imf.org, 2025.
6. Fitch Ratings va Moody’s. O‘zbekiston bank sektori va inflyatsiya baholari. – 2025.
7. Fisher I. The Theory of Interest. – New York: Macmillan, 1930.
8. Friedman M. The Role of Monetary Policy. – American Economic Review, 1968.
9. Vahobov A.V., Xalqaro moliya va monetar siyosat. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
10. Markaziy bank monetar siyosati va inflyatsiya yangiliklari. – Gazeta.uz, Spot.uz, 2025.

Olim Pardayev – *Samarqand Iqtisodiyot va Servis insitituti Servis fakulteti dekani professor,*

Norqulov Habibullo – *Bank-Moliya xizmatlari fakulteti Bank ishi kafedrasi assistenti*

RAQAMLI BANKING SHAROITIDA OMONATLARNING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA ULARNI DIVERSIFIKATSIYALASH USULLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida raqamli banking sharoitida omonatlarning jozibadorligini oshirish va diversifikatsiyalash usullarini o‘rganadi. 2025-yilda bank tizimi depozitlari hajmi 370 trillion so‘m atrofida shakllangan bo‘lib, depozitlarni kafolatlash tizimining (200 million so‘mgacha) joriy etilishi, mobil ilovalar orqali onlayn omonat ochish, yuqori foiz stavkalari (so‘mda 20–23 foizgacha) va raqamli platformalarning rivojlanishini hisobga olgan holda, omonatlar bazasini kengaytirish istiqbollari baholanadi. Tadqiqot moliyaviy inklyuzivlikni kuchaytirish, aholi ishonchini oshirish va bank likvidligini ta’minlashga xizmat qiluvchi usullarni yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli banking, omonatlar jozibadorligi, diversifikatsiya, mobil ilovalar, onlayn depozitlar, depozit kafolati, foiz stavkalari, moliyaviy inklyuzivlik, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, tijorat banklari.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются пути повышения привлекательности и диверсификации депозитов в контексте цифрового банкинга в Республике Узбекистан. В 2025 году объем депозитов в банковской системе сформировался на уровне около 370 триллионов сумов, и оцениваются перспективы расширения депозитной базы с учетом внедрения системы гарантирования депозитов (до 200 миллионов сумов), открытия онлайн-депозитов через мобильные приложения, высоких процентных ставок (до 20–23 процентов в сумах) и развития цифровых платформ. В исследовании освещаются методы, способствующие укреплению финансовой инклюзии, повышению доверия населения и обеспечению банковской ликвидности.*

Ключевые слова: *Цифровой банкинг, привлекательность депозитов, диверсификация, мобильные приложения, онлайн-депозиты, гарантия депозитов, процентные ставки, финансовая инклюзия, стратегия «Узбекистан – 2030», коммерческие банки.*

Abstract: *This article examines ways to increase the attractiveness and diversification of deposits in the context of digital banking in the Republic of Uzbekistan. In 2025, the volume of deposits in the banking system was formed at around 370 trillion soums, and the prospects for expanding the deposit base are assessed, taking into account the introduction of a deposit guarantee system (up to 200 million soums), opening online deposits through mobile applications, high interest rates (up to 20–23 percent in soums) and the development of digital platforms. The study highlights methods that serve to strengthen financial inclusion, increase public confidence and ensure bank liquidity*

Keywords: *Digital banking, attractiveness of deposits, diversification, mobile applications, online deposits, deposit guarantee, interest rates, financial inclusion, "Uzbekistan - 2030" strategy, commercial banks.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida raqamli banking omonatlar bazasini mustahkamlash va aholi bo‘sh mablag‘larini jalb qilishning muhim omili sifatida rivojlanmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va bank tizimini

raqamlashtirish dasturi doirasida omonatlarning jozibadorligini oshirish va diversifikatsiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan bo‘lib, 2025-yilda depozitlarni kafolatlash qonunining qabul qilinishi, mobil banking ilovalarining kengayishi (TBC UZ, Anorbank, Milliy app) va Jahon banki loyihalari bu jarayonni tezlashtirmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi – raqamli sharoitda omonatlarni jozibador qilish va diversifikatsiyalashning zamonaviy usullarini (onlayn ochish, moslashuvchan shartlar, valyuta va muddat diversifikatsiyasi, bonuslar) tahlil qilishdir. Tadqiqotning dolzarbligi 2025-yilda depozitlar hajmining o‘sishi, foiz stavkalarining pasayishi (23 foizgacha) va raqamli xizmatlarning keng tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu usullar bank tizimining barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotning nazariy asosi raqamli banking nazariyasi, omonatlar jozibadorligi va O‘zbekiston islohotlariga tayanadi. Markaziy bank va xalqaro tashkilotlar hujjatlari raqamli platformalarda omonatlarni ochish, kafolatlash tizimi va moslashuvchan shartlarni zarur deb ta’kidlaydi. Xalqaro hisobotlarda (Jahon banki, IMF FSAP, Fitch Ratings) O‘zbekiston depozitlarining o‘sishi (370 trillion so‘m atrofida), raqamli bankingning rivojlanishi va 2025-yildagi islohotlar (depozit kafolati 200 mln so‘m, mobil ilovalar) muhokama etiladi. Mahalliy tadqiqotlar huquqiy bazani mustahkamlash, marketingni raqamli kanallar orqali kuchaytirish va xorijiy tajribani moslashtirishni asosiy deb biladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Osiyo va Yevropa tajribasini (onlayn bonuslar, AI asosidagi personalizatsiya) qo‘llash, Jahon banki yordami bilan raqamli savodxonlikni oshirish va omonat turlarini diversifikatsiyalash (valyuta, muddat, to‘ldirish imkoniyati) depozitlar oqimini kuchaytirish, aholi ishonchini mustahkamlash va global standartlarga yaqinlashuvga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tahliliy, statistik va qiyosiy metodlar qo‘llanildi. Ma’lumotlar manbalari Markaziy bank hisobotlari (2025-yil depozitlar hajmi va foiz stavkalari), Prezident farmonlari, xalqaro baholar (Jahon banki loyihalari, IMF va Fitch reytinglari) va rasmiy statistikadir (bank.uz, spot.uz). Statistik ma’lumotlar (depozitlar o‘sishi, foiz stavkalari 20–23 foiz) dinamikani baholash uchun tahlil qilindi. Qiyosiy metod orqali Qozog‘iston, Gruziya va Yevropa tajribasi (raqamli omonatlar, mobil banking) O‘zbekiston sharoitiga moslashtirildi. Ishonchlilikni ta’minlash uchun rasmiy manbalar (cbu.uz, gazeta.uz) va xalqaro hisobotlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. O‘zbekistonda raqamli banking sharoitida omonatlarning jozibadorligini oshirish 2025-yilda muhim natijalarga erishmoqda. Mobil ilovalar (TBC UZ, Anorbank, Hamkorbank) orqali onlayn omonat ochish va boshqarish, depozit kafolati (200 mln so‘mgacha) va yuqori foiz stavkalari (so‘mda 23 foizgacha) aholi ishonchini oshirib, depozitlar hajmini 370 trillion so‘m atrofiga yetkazmoqda. Diversifikatsiya usullari – valyuta omonatlari (dollar, evro), moslashuvchan shartlar (to‘ldirish, qisman yechish), bonuslar va cashback – turli mijoz segmentlarini jalb qilmoqda. Jahon banki va IMF tavsiyalari raqamli savodxonlik dasturlarini qo‘llab-quvvatlamoqda. Biroq,

foiz stavkalarining pasayishi, inflyatsiya bosimi va raqamli savodxonlik yetishmasligi qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Fitch va Moody’s baholariga ko‘ra, ushbu usullar omonatlar bazasini mustahkamlab, likvidlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada, raqamli usullar bank tizimining barqarorligini kuchaytirib, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va “O‘zbekiston – 2030” maqsadlariga hissa qo‘shmoqda. Shunga qaramay, kibertahdidlar va raqobat cheklovlari qisqa muddatli xavflar bo‘lib qolmoqda.

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston raqamli banking sharoitida omonatlarning jozibadorligini oshirish va diversifikatsiyalash 2025-yilda yangi bosqichga chiqdi: onlayn platformalar, kafolat tizimi va moslashuvchan omonat turlari depozitlar oqimini kuchaytirib, bank likvidligini ta’minladi. Ushbu usullar resurs taqsimotini samarali qilish, aholi mablag‘larini jalb qilish va moliyaviy inklyuzivlikni rivojlantirib, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Umuman, raqamli innovatsiyalar bank sektorini 2030-yil maqsadlariga yetkazishga zamin yaratmoqda va global raqobatbardoshlikni oshiradi. Tahlil asosida quyidagi takliflar beriladi:

1. Mobil ilovalarda onlayn omonat ochishni takomillashtirib, bonus va cashback mexanizmlarini joriy etish.
2. Omonat turlarini diversifikatsiyalash – valyuta, muddat va moslashuvchan shartlarni kengaytirish.
3. Raqamli savodxonlik dasturlarini kuchaytirib, marketingni onlayn kanallar orqali rivojlantirish.
4. Depozit kafolatini bosqichma-bosqich oshirib, AI asosidagi personalizatsiyani qo‘llash. Ushbu takliflarning amalga oshirilishi omonatlarni yanada jozibador qilib, bank faoliyatining samaradorligi va barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (o‘zgartirishlar bilan, 2025).
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari // Cbu.uz, 2025.
4. Jahon banki. Uzbekistan Financial Inclusion and Digital Banking Projects. – 2025.
5. IMF. Uzbekistan Financial Sector Assessment Program (FSAP) Report. – 2025.
6. Fitch Ratings va Moody’s baholari // O‘zbekiston bank sektori depozitlari, 2025.
7. Vahobov A.V. Moliyaviy bozorlar va institutlar: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2018.
8. Depozitlarni kafolatlash to‘g‘risidagi Qonun (O‘RQ-1031). – Lex.uz, 2025.

9. Raqamli banking va depozitlar yangiliklari // Gazeta.uz, Spot.uz, Bank.uz, 2025.
10. Xalqaro moliya institutlari hisobotlari va raqamli banking dinamikasi // Worldbank.org, Imf.org, 2025.

Rashidova Guzal Abduvohidovna *– Magistratura bosqich talabasi, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali*

DAVLAT BYUDJETI XARAJATLARI TARKIBIDA IJTIMOIY SOHANING USTUVORLIGI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Annotatsiya*: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha xarajatlarining o‘rni, ulushi va dinamikasi tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy sohani moliyalashtirishning ahamiyati yoritilib, mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish va ularning manzilliligini kuchaytirish bo‘yicha tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat byudjeti, ijtimoiy soha xarajatlari, ijtimoiy himoya, byudjet xarajatlari, ijtimoiy siyosat.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы место, доля и динамика расходов социальной сферы в структуре государственного бюджета Республики Узбекистан. Также раскрыто значение финансирования социальной сферы и разработаны соответствующие выводы и предложения по повышению эффективности использования бюджетных средств и усилению их адресности.*

Ключевые слова: *государственный бюджет, расходы социальной сферы, социальная защита, бюджетные расходы, социальная политика.*

Abstract: *This article analyzes the role, share, and dynamics of social sector expenditures within the structure of the State Budget of the Republic of Uzbekistan. It also highlights the importance of financing the social sector and develops relevant conclusions and recommendations aimed at improving the efficiency and targeting of budget expenditures.*

Keywords*: state budget, social sector expenditures, social protection, budget expenditures, social policy.*

Hozirgi sharoitda davlat byudjeti orqali ijtimoiy sohani moliyalashtirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy soha xarajatlari aholi turmush darajasini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash hamda iqtisodiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha xarajatlarining ulushi va samaradorligi davlat moliya siyosatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda moliyaviy mexanizmlar muhim o‘rin egallaydi. Ijtimoiy soha xarajatlari orqali davlat ta’lim tizimini rivojlantirish, sog‘liqni saqlash xizmatlari sifatini oshirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, madaniyat va sport sohalarini qo‘llab-quvvatlash hamda ilmiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni moliyalashtiradi. Bu xarajatlar jamiyatning ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilovchi muhim omil

bo‘lib, ularning hajmi va tarkibi mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani moliyalashtirishda davlat byudjeti asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Chunki ijtimoiy xizmatlar bevosita jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi va ularning uzluksiz faoliyat yuritishini ta’minlash davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni talab etadi. Ayniqsa, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishi, aholini ijtimoiy himoya qilish darajasining oshirilishi hamda ijtimoiy xizmatlar sifatining yaxshilanishi davlat byudjeti xarajatlarining samarali tashkil etilishi bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar doirasida davlat byudjetining ijtimoiy yo‘naltirilganligi kuchaytirilib, ijtimoiy sohani moliyalashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash hamda barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy soha xarajatlarining davlat byudjeti tarkibidagi ulushini, ularning dinamikasini va samaradorligini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, uning manzilliligini kuchaytirish hamda ijtimoiy yordamning faol mexanizmlarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi, avvalo, yordamga muhtoj qatlamlarni aniq aniqlash, resurslarni maqsadli yo‘naltirish va fuqarolarning iqtisodiy faolligini rag‘batlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, ijtimoiy siyosatda passiv qo‘llab-quvvatlash choralaridan faol va rag‘batlantiruvchi mexanizmlarga o‘tish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar iqtisodiyotning barqarorligi va mutanosib rivojlanishini ta’minlash bilan bir qatorda, aholini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada mustahkamlashga qaratildi. Jamiyat hayotidagi yangilanish jarayonlari ijtimoiy himoya sohasida ham tizimli o‘zgarishlarni taqozo etdi. Natijada, fuqarolarning turmush darajasini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish hamda ijtimoiy tenglikni ta’minlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, ijtimoiy himoya tizimining manzilliligini oshirish, ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va faol mehnat bozoriga integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan mexanizmlarni joriy etish muhim ustuvor yo‘nalish sifatida shakllandi.

Mamlakatimizdagi bunday xarajatlarning ko‘lami (darajasi) xususida 1-rasm ma’lumotlari muayyan tasavvur hosil qilishga yordam beradi.



	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Davlat budjeti xarajatlari, mlrd. so‘m	118008,6	144142,7	188257,1	236692	257734	310926,2	344600
Ijtimoiy soha xarajatlari, mlrd. so‘m	63542,3	74231,8	92013,6	117691,9	129891	152347,6	178200
Yalpi ichki mahsulot (YaIM), mlrd. so‘m	511838,1	580203,2	734645,8	1041878	1261806	1535432	1849650
Jami budjet xarajatlarining YaIMdagi ulushi, %da	23,1	24,9	25,6	22,7	20,4	20,3	21,1
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining YaIMdagi ulushi, %da	12,4	12,8	12,5	11,3	10,3	9,9	9,3
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining jami budjet xarajatlaridagi ulushi, %da	53,8	51,5	48,9	49,7	50,4	49	51,7

1-rasm. 2019-2025-yillarda ijtimoiy soha xarajatlarining O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlaridagi o‘rni [4]

1-rasm ma’lumotlarining ko‘rsatishicha, mamlakatimiz Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari yuqori salmoqqa ega bo‘lib, ularning ulushi tahlil qilinayotgan 2019-2025-yillar davomida 48,9 foizdan (2021-yil) 53,8 foizgacha (2019-yil) tebrangan. Xususan, mazkur ko‘rsatkichning butun davr davomida asosan 49-52 foiz oralig‘ida saqlanib qolayotganligi davlat byudjetining ijtimoiy yo‘naltirilganligini hamda aholining ijtimoiy himoyasi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat berilayotganligini ko‘rsatuvchi muhim dalil hisoblanadi. Ayniqsa, 2023-2025-yillarda ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 50,4 foiz, 49,0 foiz va 51,7 foizni tashkil etganligi ijtimoiy sohani moliyalashtirish barqaror darajada davom etayotganligini ifodalaydi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha xarajatlari ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi va ularning barqaror o‘sib borishi hamda yuqori ulushda saqlanib qolishi mamlakatda kuchli ijtimoiy siyosat olib borilayotganligini ifodalaydi.

1-rasmda keltirilgan ma’lumotlar mamlakatimizda davlat byudjetidan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltirilayotgan xarajatlarning umumiy hajmi va ularning iqtisodiyotdagi o‘rni to‘g‘risida muhim umumlashtiruvchi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, tahlil qilinayotgan 2019-2025-yillar davomida ijtimoiy soha xarajatlari mutlaq miqdorda sezilarli darajada oshib, 63 542,3 mlrd so‘mdan 178 200 mlrd so‘mgacha yetganligi ushbu yo‘nalishdagi moliyalashtirish hajmi yildan-yilga

kengayib borayotganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy soha xarajatlarining jami davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi ham yuqori darajada saqlanib, asosan 49-52 foiz oralig‘ida shakllanganligi davlat moliya siyosatida ijtimoiy sohaning ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Biroq, mazkur ko‘rsatkichlar ijtimoiy sohaga ajratilayotgan mablag‘larning umumiy miqdori va ulushini ifodalash orqali ularning iqtisodiyotdagi ahamiyatini baholash imkonini bersa-da, ushbu mablag‘larning qaysi aniq yo‘nalishlar, tarmoqlar va maqsadlar uchun sarflanayotganligini to‘liq ochib bera olmaydi. Xususan, ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida ta’lim tizimini moliyalashtirish, sog‘liqni saqlash xizmatlarini rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, pensiya va nafaqalar to‘lash, madaniyat va sport sohalarini qo‘llab-quvvatlash kabi muhim yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, ularning har biri alohida iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Shu sababli, davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga yo‘naltirilayotgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini chuqurroq baholash, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash hamda moliyaviy resurslarning oqilona taqsimlanish darajasini tahlil qilish uchun ijtimoiy soha xarajatlarining tarkibi, tuzilmasi va asosiy yo‘nalishlari kesimida batafsil tahlil o‘tkazish zarur hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, davlatning ijtimoiy siyosatini yanada takomillashtirish va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan moliyaviy mexanizmlarni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Adabiyotlar :

1. Musgrave R. A., Musgrave R. A. The theory of public finance: A study in public economy. – New York : McGraw-Hill, 1959. – T. 658.

2. Atkinson A. B. Inequality: What can be done? //Inequality. – Harvard University Press, 2015.

3. Akromov R.T. Ijtimoiy infratuzilma: muammolar va yechimlar. Ijtimoiy tadqiqotlar, 2020, №3.

4. www.imv.uz - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari

Fozil Furqat o‘g‘li Davronov *– magistrant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, e-mail: xisobot@bk.ru*

KICHIK BIZNESNI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH

Annotatsiya*: Maqolada milliy iqtisodiyotning lokomotiv yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan kichik biznesni rivojlantirishning amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, kichik biznesni amalda rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar*: modernizatsiya, kichik biznes, korxona, mikrofirma, moliyaviy resurs, innovatsiya.*

***Аннотация**: В статье подчеркивается практическое значение развития малого бизнеса, являющегося одним из локомотивных направлений национальной экономики. Также даны рекомендации по практическому развитию малого бизнеса.*

***Ключевые слова**: модернизация, малый бизнес, предприятие, микропредприятие, финансовые ресурсы, инновации.*

***Abstract**: This article highlights the practical importance of developing small businesses, which are one of the driving forces of the national economy. Recommendations for the practical development of small businesses are also provided.*

***Keywords**: modernization, small business, enterprise, microenterprise, financial resources, innovation.*

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning tarkibiy rivojlanishida kichik biznes sub’ektlarining roli kattadir. Aynan kichik biznes hozirda iqtisodiyotning samarali dastaklaridan, aholi bandligi hamda turmush darajasini oshirishdagi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Ularni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash, moliyaviy barqarorligini ta’minlash iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish omili sifatida dolzarbdir.

Shuni ta’kidlash lozimki, jahon tajribasi ko‘rsatishicha, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash juda sekin kechadi[1].

Aytish joizki, davlat tomonidan mamlakatimizda kichik biznesni amalda qo‘llab-quvvatlanishi tufayli hozirgi paytda mazkur sohaning jadal sur’atlarda rivojlanishiga olib keldi. Mazkur kichik sub’ektlarning eng ko‘p qismi sanoat tarmog‘ida, savdo sohasida, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida va qurilish tarmog‘iga to‘g‘ri kelmoqda. Kichik biznesda band bo‘lganlar soni 2000 yilda 4,3 mln. kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilga kelib bu ko‘rsatkich 10,0 mln. kishidan oshib ketdi. Agar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo‘lganlar sonibilankichik korxonalar va mikrofirmalardagi band bo‘lganlar sonini taqqoslaydigan bo‘lsak, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rish mumkin, ya’ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo‘lganlar soni, kichik korxona va mikrofirmalarda band bo‘lganlar soni mutanosib ravishda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi yil sari o‘sish tamoyiligiga ega bo‘lib, bu asosan qishloq xo‘jaligida kuzatilmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarida xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2005 yilda 52,2 %tashkil yetgan bo‘lsa, 2019 yilga kelib 59,0 %ga yetdi. Shu yillar mobaynida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning respublikamiz mahsulot eksporti ulushidagi o‘sish tendensiyasi, jami tovar va tashqi savdo aylanishlaridagi ulushlarida ham kuzatildi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, mazkur sohani yanada kengroq rivojlantirish uning o‘ziga xos jihatlarini e’tiborga olishni taqozo etadi. Shunday jihatlardan biri – soha faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta’minlash hisoblanadi.

Kichik biznes faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta’minlashda quyidagilarni hisobga olish lozim:

– mazkur soha sub’ektlari aksariyat qismining yangidan tashkil etilishi;

– faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich mablag‘ hajmi nisbatan katta bo‘lmasa-da, shunga qaramay, barcha sub’ektlarda ham ushbu mablag‘ga ega bo‘lish imkoniyatining talablar darajasida emasligi;

– soha faoliyat barqarorligining nisbatan pastligi, tavakkalchilikning yuqoriligi tufayli tijorat banklari tomonidan kredit ajratish istagining yuqori emasligi va h.k.

Hozirda davlat tomonidan ushbu sohani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari qo‘yidagilarda o‘z aksini topadi:

- biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar;
- xususiy kapital samaradorligini oshirish maqsadida byudjet mablag‘lari asosida soliq imtiyozlarini berish orqali imkoniyatlar berish;
- bo‘sh turgan maydonlarni sotib olish yoki ijaraga berish hamda resurslardan samarali foydalanish erkinligini ta’minlash;
- ichki va tashqi bozorlar uchun kerak bo‘ladigan, talab bor bo‘lgan zaruriy mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj haqidagi axborotlar bilan ta’minlash.

Aytish joizki, biznes daromad keltiriladigan iqtisodiy faoliyat, foyda olish yoki shaxsiy manfaatni nazarda tutuvchi daromad olishga qaratilgan har qanday faoliyat sifatida rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotni tadbirkorlarning faoliyatsiz tassavur etib bo‘lmaydi. Albatta, o‘z navbatida, tadbirkorlik – bu ijtimoiy faol turdagi mehnat faoliyati bo‘lib, uning zamirida, o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlashdek muhim omillardan biri gavdanlanadi.

Qolaversa, kichik biznes mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimining ajralmas bir bo‘g‘ini sifatida bozor munosabatlari barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib ham xizmat qilmoqda. Bu soha korxonalari aholini ish bilan ta’minlashda ham o‘ziga xos o‘rin tutmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga imtiyoz va preferensiyalar berish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi sharoitda tadbirkorlik faoliyatida ilm-fanning so‘nggi yutuqlari, innovatsiyalardan keng foydalanish orqali iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror iqtisodiy o‘sish hamda iqtisodiy faollikni ta’minlash uchun asos bo‘lmoqda [2].

Shuning uchun ham modernizatsiyalashga investitsiyalarni jalb qilish orqali mavjud korxonalarni yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlash lozim bo‘lmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad:

- iqtisodiy va moliyaviy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish;
- barqaror moliyalashtirish manbaiga ega bo‘lish;
- ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiyalash;
- tashqi bozorlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish;
- raqobatbardoshlikni oshirish va boshqalar bo‘lib hisoblanadi.

Shu o‘rinda aytish joizki, hozirda loyihaviy moliyalash korxonalarning, ayniqsa kichik biznes korxonalarining o‘z mablag‘lari yetishmasligi tufayli

raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarida muammolar yuzaga kelmoqda.

Ushbu muammolar xususida Prezident Shavkat Mirziyoev joylarga chiqish, xar bir xonadonning tadbirkorlik borasidagi imkoniyatini o‘rganish, moliyalashtirishni kengaytirish bilan bog‘liq muammolarni xal etish,tadbirkorlarni ishontirish va ularga amaliy yordam berish kerak[3] ligini respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ularning o‘rni va rolini kengaytirish masalalari hozirgi kunda naqadar dolzarb ahamiyatga molik masalalardan ekanligini tushunib yetish mumkin.

фойдаланишда қурилиш смета ресурс меъёрларини ўртача ойлик вақти муҳим саналади (1-расм).



1-расм. Қурилиш ташкилотларида смета ресурс меъёрлари ўртача ойлик вақти[40].

[40] Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

Қурилиш ташкилотларида амортизация чегирмалари, уларни таъмирлаш ҳамда техник хизмат кўрсатиш ҳаражатлари, қурилиш машина-механизмларини тез ишдан чиқадиган қисмларини алмаштириш, қурилиш машина-механизмларини бир қурилиш объектидан (қурилиш майдони)дан бошқа қурилиш объектига кўчиртириб ўтказиши қурилиш смета ресурс нормаларида мавжуд эмас, бунга асосий сабаб, улар физик ресурс кўрсаткичларда ўлчанмайди ҳамда қурилиш машина-механизмларнинг 1 машина-соат иши нархи Давархитект-қурилишнинг 2004 йил 6 майдаги 31-сонли буйруғи билан тасдиқланган «қурилиш машина ва механизмларидан фойдаланишда жорий нархдаги хисобини аниқлаш методик тавсияномаси асосида, қурилиш техникаси қарамоғидаги ташкилотнинг илгари (базис) даврида шаклланган харажатлардан келиб чиқиб аниқланади. Шунинг учун ҳам қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларини сақлаш ва эксплуатация қилиш ҳаражатлари ҳисобини ҳамда уларни бажарилган ишлар таннархига киритиш услубларини аниқлаштиришда машина-соат ўлчов бирлиги муҳим саналади.

Машина-соат - соатларда ёки мото-соат счётчик кўрсатгичларига мувофиқ (1 мото-соат бир астрономик соатга тенг бўлган шарт билан) ўлчанган машина, техникалар, механизмлар, ускуналарнинг ҳақиқий иш вақтидир.

Қурилиш ташкилотларида асосий ҳамда оғир иш вазифаларни асосан қурилиш машина-механизмлари бажариш эвазига қурилиш фаолияти яхшиланиш чоралари амалга оширилади. Шу боис ҳам қурилиш машина-механизмларни иш фаолияти ҳисобини амалга ошириш муҳим саналади. Чунончи қурилиш машина-механизмлари иш фаолиятини жадал ривожлантириш борасида қурилиш машина-механизмлар эксплуатацияси уларни бир маромда ишлаш жараёнини таъминлашда аҳамиятли касб этади. Қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмлар иш фаолиятини тўғри йўлга қўйиш учун қурилиш машина-механизмлар эксплуатация қилиш ҳаражатларини ҳисоби ўз вақтида ва тўғри амалга оширилиши мақсадга мувофиқдир. Қурилиш машина-механизмлар иш фаолиятига қатъий таъсир ўтказадиган омиллардан бири уларни эксплуатация қилишга кетган сарф-ҳаражатлар тўплами ҳисобланади. Қурилиш машина-механизмларини эксплуатация қилиш ҳаражатлари ҳисобига алоҳида тўхталиб ўтиш муҳим саналади.

Қурилиш машиналарини сақлаш ва эксплуатация қилиш харажатлари - бу қурилиш машиналари ва механизмлари машинистлари ва ҳайдовчиларига ҳисобланган иш ҳақи, ижтимоий суғуртага ажратмалар, материал харажатлари, амортизация ажратмалари, жорий ва капитал таъмирлаш ҳамда турли хизматлар қийматининг йиғиндиси[41].

[41] Уразов К.Б. “Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисоби хусусиятлари”. ЎзР Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти. Дарслик- Т.: «Фан ва технологиялар», 2019.

Мамлакатимизда фаолият юритиб келаётган қурилиш ташкилотларида, асосан 21-сон БҲМС “Хўжалик юритувчи субъектлар молиявий-хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби счётлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома” га мувофиқ пудратчи қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларни эксплуатация қилиш ҳаражатлари ҳисоби бевосита 2500 - “Умумишлаб чиқариш харажатлари” ҳисоб варағида олиб борилиши мақсадлидир. Қурилиш ташкилотлари бевосита ўзларининг счётлар режасини таркибида маҳсус счётни, яъни 2511-“Қурилиш машина-механизмларни сақлаш ва уларни эксплуатация қилиш ҳаражатлари” номли счётини очишлари ҳам мақсадлидир. Қурилиш ташкилотларида ушбу счётга қурилиш машина-механизмларининг турлари ёки гуруҳлари бўйича алоҳида аналитик счётларни очиш мақсадга мувофиқ. Бу счётларнинг дебетида қурилиш машина-механизмларини сақлаш ва эксплуатация қилишга доир барча ҳаражатлар гувоҳлик берувчи ҳужжатлар асосида тўпланади, кредитида эса сарфланган харажатларни ҳисобдан чиқарилиши, яъни уларнинг тегишли объект таннархига киритилиши акс эттирилади.

Қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларини сақлаш ва эксплуатация қилиш харажатлари ўз ичига қуйидаги моддаларни олади:

- ✓ қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларини сақлаш жараёнида ва қўриқлашда бевосита иштирок этадиган ишчи ходимларга иш ҳақи;
- ✓ қурилиш машина-механизмларни бир объектдан иккинчи объектга эксплуатация қилишда сарфланадиган моддий ва меҳнатга доир ҳаражатлар;
- ✓ қурилиш машина-механизмларни қурилиш объектига ўрнатиш ҳаражатлари ҳамда жорий ва капитал таъмирлаш;;
- ✓ қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларини ҳаракатланувини бошқарувчи ишчи ходимлар (машинистлар, ҳайдовчилар) га ҳисобланган иш ҳақи ҳаражатлари;
- ✓ қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларини бошқарувчи ходимларнинг иш ҳақига нисбатан ижтимоий суғурта ажратмалари;
- ✓ қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларининг материал харажатлари (ёқилғи, мойлаш материаллари, эҳтиёт қисмлар, хўжалик материаллари ва шу кабилар);
- ✓ қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларининг амортизация харажатлари;
- ✓ қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмларига турли хизматлар (электр энергия, сув, газ, иситиш, буғ, транспортировка, ижара ва бошқа хизмат турлари).

Юқорида таъкидлаб ўтилган қурилиш машина-механизмларини сақлаш ва эксплуатация қилишга доир ҳаражатлари тўпламида акс эттириладиган моддалар қурилиш ташкилотларида қурилиш машина-механизмлари иш фаолияти, яъни улар томонидан бажариладиган ишлар таннархини аниқ ва

реал ҳолатини кўрсатиб беришда бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботларида ўз аксини топишда хизмат қиладилар.

Уразов Д.К. *– Старший преподаватель Самаркандского института экономики и сервиса*

СОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ АУДИТОРСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: *В статье рассматривается современное состояние рынка аудиторских услуг в Узбекистане в контексте глобальной цифровой трансформации. Анализируются ключевые нормативные инициативы 2024-2025 годов, процесс внедрения инновационных IT-решений (программный комплекс «Audit», платформа eConfirm), а также вызовы, связанные с переходом на международные стандарты и подготовкой кадров. Определены основные тенденции и перспективы развития цифровизации аудиторской деятельности в республике.*

Ключевые слова: *аудит, цифровизация, Узбекистан, ИСА (ISA), eConfirm, XBRL, финансовый контроль, аудиторские услуги.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola global raqamli transformatsiya kontekstida O‘zbekistondagi auditorlik xizmatlari bozorining hozirgi holatini ko‘rib chiqadi. Unda 2024-2025 yillarga mo‘ljallangan asosiy tartibga solish tashabbuslari, innovatsion IT yechimlarni joriy etish (Audit dasturiy ta’minot to‘plami, eConfirm platformasi) hamda xalqaro standartlarga o‘tish va kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada mamlakatimizda auditni raqamlashtirishning asosiy tendentsiyalari va istiqbollari belgilab berilgan.*

Kalit so'zlar: *audit, raqamlashtirish, O'zbekiston, ISA, eConfirm, XBRL, moliyaviy nazorat, audit xizmatlari.*

Abstract: *This article examines the current state of the audit services market in Uzbekistan in the context of global digital transformation. It analyzes key regulatory initiatives for 2024-2025, the implementation of innovative IT solutions (Audit software suite, eConfirm platform), and challenges associated with the transition to international standards and personnel training. The article also identifies key trends and prospects for the digitalization of auditing in the country.*

Keywords: *audit, digitalization, Uzbekistan, ISA, eConfirm, XBRL, financial control, audit services.*

Введение. В условиях стремительной трансформации мировой экономики цифровизация перестала быть просто конкурентным преимуществом, превратившись в условие выживания для профессиональных участников рынка. Узбекистан, взятый курс на либерализацию экономики и привлечение иностранных инвестиций, демонстрирует высокую динамику внедрения цифровых технологий в сферу бухгалтерского учета и аудита. Как справедливо отмечают исследователи, внедрение новых цифровых технологий в учетные и аудиторские процессы позволяет максимизировать эффективность хозяйственной деятельности и

создать национальную систему сбора показателей для характеристики социально-экономических процессов предприятий[42] .

2024-2025 годы стали переломным этапом для аудиторского сообщества Узбекистана. Принятие ряда нормативных документов, в частности Постановления Президента № ПП-282 от 15 сентября 2025 года «О мерах по коренному совершенствованию системы финансового учета в соответствии с международными требованиями и стандартами», заложило прочный фундамент для цифровой эры аудита. В данной статье мы рассмотрим ключевые достижения, текущие тенденции и дальнейшие перспективы цифровизации профессиональных аудиторских услуг в республике.

1. Нормативно-правовая база и институциональные изменения как драйвер цифровизации

Основой для технологического рывка стало последовательное сближение национальных стандартов с международными. Ключевым событием 2025 года стало законодательное закрепление категории «Организации общественной значимости» (Public Interest Entities). Согласно принятому регулированию, данные организации обязаны вести учет и составлять отчетность по МСФО, а их аудит должен проводиться в соответствии с Международными стандартами аудита (МСА)[43].

Это требование автоматически повышает спрос на цифровые инструменты, способные обрабатывать большие объемы данных в форматах, понятных как национальным регуляторам, так и международным инвесторам. Важным шагом стала интеграция программных решений с Единой системой отчетности, что позволяет внедрять механизмы автоматического формирования форм отчетности по МСФО в ERP-системах и осуществлять мониторинг их качества в режиме онлайн .

Кроме того, Указ Президента № УП-252 от 18 декабря 2025 года «О дополнительных мерах дальнейшего совершенствования деятельности по государственному аудиту и финансовому контролю» определил стратегию внедрения технологий искусственного интеллекта в процессы государственного аудита для предупреждения нарушений и устранения системных проблем[44] .

2. Внедрение конкретных цифровых продуктов и платформ

Процесс цифровизации в Узбекистане перешел от теоретических обсуждений к практической реализации специализированных IT-решений.

---

[42] Tulakhodjaeva, M.M. and Khodjayeva, M.K. (2024). Vector of Development of Equal Competition in the Uzbekistani Market for Auditing Services. In: *Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS*. Emerald Publishing Limited

[43] Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан. (2026). *Информация о достигнутых результатах в сфере бухгалтерского учета и аудиторской деятельности в 2025 году*. https://gov.uz/en/imv/news/view/128226

[44] Указ Президента Республики Узбекистан от 18.12.2025 г. № УП-252 «О дополнительных мерах дальнейшего совершенствования деятельности по государственному аудиту и финансовому контролю»

- **Программный комплекс «Audit»:** Одним из главных достижений стало внедрение и развитие программного комплекса «Audit», доступного на порталах audit.mf.uz и audit.imv.uz. Данная система призвана обеспечить прозрачность деятельности аудиторских организаций и внедрить информационно-коммуникационные технологии в их взаимодействие с государственными органами. Это «единое окно» позволяет автоматизировать сбор отчетности от аудиторских фирм и сделать рынок более открытым.
- **Внедрение платформы eConfirm:** Значительным шагом вперед стало подписание в феврале 2025 года соглашения о сотрудничестве между Палатой аудиторов Узбекистана (CAU), международной платформой eConfirm и местной консалтинговой компанией Infinite Finance & Advisory. eConfirm — это ведущая мировая платформа для электронного подтверждения банковских счетов. До настоящего времени процесс получения банковских подтверждений в Узбекистане был бумажным и длительным. Внедрение eConfirm автоматизирует этот процесс, снижая риски мошенничества и повышая эффективность аудиторских процедур. Это первый шаг к цифровизации процессов подтверждения в регионе, который обеспечит аудиторов и финансовые институты безопасным и стандартизированным решением[45].
- **Подготовка к внедрению XBRL:** В соответствии с планами развития, одной из ключевых тенденций ближайших лет станет внедрение формата XBRL (eXtensible Business Reporting Language). Этот язык финансовой отчетности позволяет системам искусственного интеллекта читать и обрабатывать данные без участия человека. Переход на XBRL выведет прозрачность и сопоставимость отчетности узбекских компаний на принципиально новый уровень, что крайне важно для привлечения портфельных инвесторов[46].
- **Технологические сдвиги:** Современные аудиторские компании активно внедряют цифровые инструменты для анализа больших массивов данных. Автоматизация позволяет перейти от выборочного тестирования к сплошному анализу операций, что значительно повышает надежность аудиторских выводов.

Экономический эффект цифровизации можно выразить через показатель повышения производительности труда аудиторов:

Практика показывает, что экономия времени может достигать 25–40%.

В мировой практике аудит активно использует технологии машинного обучения для выявления аномалий и признаков мошенничества. В Узбекистане данные инструменты находятся на стадии внедрения, преимущественно в крупных компаниях и международных сетях.

[45] eConfirm.global. (2025). *AppAsia signs Collaboration Agreement with CAU to develop eConfirm in Uzbekistan*
[46] Buxgalter.uz. (2025). *Как развивались бухучет и аудит в Узбекистане в 2024 году и что будет меняться в 2025-м*

$$E = \frac{T_{\text{традиц}} - T_{\text{цифр}}}{T_{\text{традиц}}} \times 100\%$$

где

$T_{\text{традиц}}$ — время выполнения процедуры традиционным методом;

$T_{\text{цифр}}$ — время выполнения процедуры с использованием цифровых инструментов.

Применение алгоритмов выявления отклонений позволяет повысить вероятность обнаружения рисковых операций и снизить аудиторский риск:

$$AR = IR \times CR \times DR$$

где

AR — аудиторский риск;

IR — внутренний риск;

CR — риск средств контроля;

DR — риск необнаружения.

Использование цифровых инструментов снижает показатель DR, тем самым уменьшая общий аудиторский риск.

3. Развитие рынка и кадровый потенциал

Рынок аудиторских услуг Узбекистана демонстрирует устойчивый рост. По состоянию на 31 декабря 2025 года количество аудиторских организаций достигло **175**, а число физических лиц, имеющих квалификационные сертификаты аудитора, выросло до **1296** .

Однако цифровизация предъявляет новые требования к квалификации специалистов. В связи с этим Министерством экономики и финансов совместно с профессиональными объединениями ведется активная работа по пересмотру программ подготовки аудиторов в соответствии с Международными стандартами образования. Внедряются программы повышения квалификации в области цифровых знаний (ERP, искусственный интеллект, Big Data) . Знаковым событием стало подписание Меморандума о сотрудничестве между Палатой аудиторов Узбекистана и Ассоциацией ACCA в декабре 2025 года, что открывает новые возможности для обучения узбекских специалистов глобальным стандартам[47]. На сегодняшний день в стране насчитывается около 1470 специалистов с международными сертификатами (ACCA, DipIFR, CIPA), а на бесплатной дистанционной платформе ifrs.academy обучается более 13 000 человек .

4. Проблемы и перспективы

Несмотря на позитивную динамику, процесс цифровизации аудита в Узбекистане сталкивается с рядом вызовов. Среди них — необходимость

[47] Палата аудиторов Узбекистана. (2025). *Отчет о международной научно-практической конференции «Бухгалтерский учёт и аудит в цифровую эпоху: устойчивость, инновации и доверие»*

преодоления сопротивления традиционным методам работы, обеспечение кибербезопасности при передаче данных и потребность в значительных инвестициях в обновление программного обеспечения со стороны аудиторских фирм.

Тем не менее, тенденции на ближайшую перспективу выглядят обнадеживающе. К 2026-2027 годам планируется полная цифровизация процессов от формирования бюджетных проектов до ввода объектов в эксплуатацию с использованием систем космического мониторинга и дронов для контроля строительства. Для частного аудита приоритетом станет развитие «зеленого учета» и аудита устойчивости (ESG), а также дальнейшая автоматизация рутинных процедур на основе облачных технологий.

Заключение

Цифровизация аудиторских услуг в Узбекистане перешла в активную фазу. Созданная в 2024-2025 годах нормативная база, запуск таких инструментов, как портал «Audit» и платформа eConfirm, а также интеграция с международными образовательными и профессиональными структурами создают прочную основу для дальнейшего роста. Главной тенденцией становится не просто автоматизация существующих процессов, а фундаментальное изменение качества аудита: переход к анализу больших данных, повышение прозрачности и доверия со стороны международных инвесторов. Дальнейшее развитие будет зависеть от способности профессионального сообщества адаптироваться к новым технологиям и требованиям времени.

Список использованной литературы:

1. Tulakhodjaeva, M.M. and Khodjayeva, M.K. (2024). Vector of Development of Equal Competition in the Uzbekistani Market for Auditing Services. In: *Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS*. Emerald Publishing Limited.

2. Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан. (2026). *Информация о достигнутых результатах в сфере бухгалтерского учета и аудиторской деятельности в 2025 году*. Официальный сайт.

3. Указ Президента Республики Узбекистан от 18.12.2025 г. № УП-252 «О дополнительных мерах дальнейшего совершенствования деятельности по государственному аудиту и финансовому контролю».

4. eConfirm.global. (2025). *AppAsia signs Collaboration Agreement with CAU to develop eConfirm in Uzbekistan*.

5. Buxgalter.uz. (2025). *Как развивались бухучет и аудит в Узбекистане в 2024 году и что будет меняться в 2025-м*.

6. Палата аудиторов Узбекистана. (2025). *Отчет о международной научно-практической конференции «Бухгалтерский учёт и аудит в цифровую эпоху: устойчивость, инновации и доверие»*.

Maxmudova Aziza Akmalovna – *Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 1-kurs magistranti*

TIBBIY XIZMATLAR KO’RSATISH SOHASI BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA MUAMMOLARI

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida buxgalteriya hisobini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Sog‘liqni saqlash muassasalarida ekologik mas’uliyat, resurs tejamkorlik, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda xarajatlarni samarali boshqarish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Maqolada ekologik xarajatlar hisobi, innovatsion boshqaruv vositalari va ichki nazorat mexanizmlarining roli ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, tibbiy xizmatlar, buxgalteriya hisobi, ekologik xarajatlar, raqamlashtirish, barqaror iqtisodiy o‘sish, aholi farovonligi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы совершенствования бухгалтерского учета в сфере медицинских услуг на основе принципов зеленой и инновационной экономики. Анализируются направления обеспечения устойчивого экономического роста регионов и повышения благосостояния населения посредством экологической ответственности, ресурсосбережения, внедрения цифровых технологий и эффективного управления затратами в медицинских учреждениях. Освещается роль учета экологических расходов и инновационных методов управления.*

Ключевые слова: *зеленая экономика, инновационное развитие, медицинские услуги, бухгалтерский учет, экологические расходы, цифровизация, устойчивый экономический рост, благосостояние населения.*

Abstract: *This scientific article examines the improvement of accounting in the field of medical services based on the principles of green and innovative economy. It analyzes ways to ensure sustainable regional economic growth and improve public welfare through environmental responsibility, resource efficiency, digital transformation, and effective cost management in healthcare institutions. The role of environmental cost accounting and innovative management tools is also highlighted.*

Keywords: *green economy, innovative development, medical services, accounting, environmental costs, digitalization, sustainable economic growth, public welfare.*

Kirish. Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasi, xususan tibbiy xizmatlar sektori, hududiy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali ushbu sohani rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Yashil iqtisodiyot resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishni nazarda tutadi. Innovatsion iqtisodiyot esa ilm-fan yutuqlari, raqamli texnologiyalar va yangi boshqaruv usullariga tayanadi. Tibbiy xizmatlar sohasida bu tamoyillarni amaliyotga joriy etish buxgalteriya hisobini yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi. Ushbu maqola tibbiy xizmatlar ko’rsatish sohasi buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari va kelib chiqadigan muammolarini yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o’sish va aholi farovonligini oshirishda buxgalteriya hisobi bo’yicha tadqiq etishga bag’ishlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Tibbiy muassasalarda buxgalteriya hisobining amaliy tajribasi yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida baholandi.
Yashil iqtisodiyot tamoyillari va buxgalteriya hisobi tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonida energiya, suv, dori-darmon va boshqa resurslardan keng foydalaniladi. Yashil iqtisodiyot sharoitida bu resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash muhim vazifaga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan, buxgalteriya hisobida quyidagi yo‘nalishlarni joriy etish maqsadga muvofiq:

- ekologik xarajatlarni alohida hisobga olish;
- energiya tejamkor texnologiyalarga investitsiyalarni aks ettirish;
- chiqindilarni qayta ishlash xarajatlarini nazorat qilish;
- ekologik audit tizimini shakllantirish.

Ekologik xarajatlar hisobi muassasa faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini baholash va barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakat sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga yasil va tejamkor texnologiyalar uchun uzluksiz sharoitlar yaratib kelmoqda. 2025-yil aprel oyida “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ va Jahon banki ishtirokida “Kichik va o’rta korxonalarni ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatishda yashil va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishni moliyaviy qo’llab-quvvatlash” loyihasiga qaratilgan uchrashuv o’tkazilishi va shu dastur doirasida sentabr oyiga kelib 8931 ta yashil loyihani moliyaviy qo’llab quvvatladi, AJ tomonidan Tadbirkorlik subyektlarini “Chempion Tadbirkor” toifasiga olib chiqish , shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish va yashil texnologiyalarni joriy etish loyihalariga kredit ajratish uchun banklarga mlrdlab so’m miqdorda resurs ajratib kelmoqda[48]

Tahlil va natijalar Xizmat ko‘rsatish sohasini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish asoslari va muammolarini tadqiq etish zamonaviy iqtisodiy ilm-fan oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqot metodologiyasi barqaror rivojlanish nazariyasi, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi, institutsional iqtisodiyot yondashuvi hamda innovatsion rivojlanish modeli uyg‘unligiga asoslanadi. Chunki xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri bo‘lishi bilan birga, resurslardan foydalanish, energiya iste’moli va ekologik ta’sir nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur sohani ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy farovonlik mezonlari asosida o‘rganish kompleks metodologik yondashuvni talab etadi.

Tadqiqotning metodologik asosida tizimli yondashuv muhim o‘rin tutadi. Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro bog‘liqligidan iborat murakkab tizim sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv yashil iqtisodiyot tamoyillarini – resurs tejamkorlik, energiya samaradorligi,

[48] www.trk.uz web sayti ma’lumotlari asosida

chiqindilarni kamaytirish, ekologik xavfsizlik va “yashil” investitsiyalarni – yagona iqtisodiy mexanizm doirasida tahlil qilish imkonini beradi. Tizimli tahlil orqali xizmat ko‘rsatish sohasida ekologik omillarni inobatga olgan holda iqtisodiy o‘sish modelini shakllantirish mumkin.

Metodologiyada iqtisodiy-statistik tahlil usullari ham keng qo‘llaniladi. Xizmat ko‘rsatish hajmi, yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi, energiya sarfi, chiqindi miqdori, investitsiyalar hajmi, bandlik darajasi kabi ko‘rsatkichlar dinamik va strukturaviy tahlil qilinadi. Bu orqali yashil iqtisodiyot elementlarini joriy etishning hududiy iqtisodiy o‘sishga ta’siri aniqlanadi. Shuningdek, korelyatsion-regression tahlil yordamida yashil investitsiyalar bilan iqtisodiy o‘sish sur’atlari, energiya samaradorligi bilan ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy asosda baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasida taqqoslash (komparativ) yondashuvi ham muhim ahamiyatga ega. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini faol joriy etayotgan hududlar bilan ushbu jarayon sust bo‘lgan hududlar o‘rtasida solishtirma tahlil o‘tkaziladi. Bu esa ekologik siyosat va iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. SWOT-tahlil usuli orqali xizmat ko‘rsatish sohasining yashil transformatsiyadagi kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlari hamda potensial xavflari aniqlanadi.

Institutsional yondashuv tadqiqot metodologiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Normativ-huquqiy baza, davlat siyosati, moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari va boshqaruv tizimining samaradorligi xizmat ko‘rsatish sohasining yashil rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois tadqiqot jarayonida amaldagi qonunchilik, ekologik standartlar va investitsion muhit tahlil qilinadi. Ekspert baholash usuli orqali soha mutaxassislarining fikrlari umumlashtirilib, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar aniqlanadi.

Metodologik yondashuvda innovatsion rivojlanish modeli alohida o‘rin egallaydi. Raqamli texnologiyalar, energiya tejamkor uskunalar, ekologik toza xizmatlar va boshqaruvning zamonaviy vositalari iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiradi. Shu bois innovatsion faoliyatning iqtisodiy natijalari, investitsiya samaradorligi va ijtimoiy ta’siri kompleks tahlil qilinadi. Bu jarayonda xarajat–natija (cost-benefit) tahlili, investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari qo‘llaniladi.

Tadqiqotning axborot bazasini rasmiy statistik ma’lumotlar, hududiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar, ekologik monitoring natijalari, ilmiy maqolalar hamda xalqaro tajriba tashkil etadi. Mazkur ma’lumotlar asosida xizmat ko‘rsatish sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy va ekologik samaradorligi aniqlanadi.

Umuman olganda, xizmat ko‘rsatish sohasini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish asoslari va muammolarini tadqiq etish metodologiyasi kompleks, ko‘p bosqichli va integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi. Mazkur metodologiya iqtisodiy o‘sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asosda ochib berish imkonini yaratadi.

Natijada hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sish mexanizmlari ishlab chiqiladi hamda aholi farovonligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar shakllantiriladi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida sog‘liqni saqlash tizimi yuqori texnologiyalarga asoslangan strategik tarmoqqa aylanmoqda. Tibbiy xizmat ko‘rsatish muassasalari – shifoxonalar, klinikalar, diagnostika markazlari va laboratoriyalar – murakkab moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi. Ushbu operatsiyalarni samarali boshqarish uchun raqamli buxgalteriya tizimi zarur hisoblanadi.

Tibbiy xizmat sohasida buxgalteriya hisobining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

ko‘p manbali moliyalashtirish (davlat byudjeti, sug‘urta, xususiy to‘lovlar);

dori-darmon va tibbiy uskunalar xarajatlarining yuqoriligi;

xizmat tannarxini aniqlashning murakkabligi;

tibbiy sug‘urta bilan hisob-kitoblar.

Shu sababli raqamli buxgalteriya tizimi sog‘liqni saqlash muassasalarida moliyaviy intizom va shaffoflikni ta’minlashning muhim vositasidir.

1-jadval.

Tibbiy muassasalarda an’anaviy va raqamli buxgalteriya tizimining [49] taqqoslanishi

Ko‘rsatkich	An’anaviy tizim	Raqamli tizim
Bemor hisob-kitoblari	Qo‘lda yoki yarim avtomatik	To‘liq avtomatlashtirilgan
Sug‘urta bilan hisob-kitob	7–15 kun	1–3 kun
Dori va ombor nazorati	Qog‘oz asosida	Real vaqt monitoring
Xatolik darajasi	6–8%	1–2%

Mazkur jadvaldan ko‘rinib turibdiki, raqamli buxgalteriya tizimi bemorlar va sug‘urta tashkilotlari bilan hisob-kitob jarayonini tezlashtiradi.

Tibbiy muassasalarda xarajatlar asosan quyidagi yo‘nalishlarga to‘g‘ri keladi:

- ish haqi va ijtimoiy ajratmalar;
- dori vositalari va sarf materiallari;
- tibbiy asbob-uskunalar amortizatsiyasi;
- kommunal va infratuzilma xarajatlari;
- IT va axborot tizimlari xarajatlari.

Raqamli buxgalteriya tizimi ushbu xarajatlarni markazlashgan tarzda tahlil qilish va optimallashtirish imkonini beradi. Raqamlashtirish tibbiy muassasalarda moliyaviy yo‘qotishlarni sezilarli kamaytiradi.

Tibbiy xizmat sohasida quyidagi raqamli yechimlar keng qo‘llanilmoqda:

- ERP tizimlari – moliya, kadrlar va ombor hisobini integratsiyalash.
- Elektron tibbiy karta (EMR) – bemor ma’lumotlari va hisob-kitoblarni birlashtirish.
- Bulutli buxgalteriya platformalari – masofaviy monitoring va audit.

[49] Muallif tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan.

- Sun’iy intellekt – xarajat prognozi va moliyaviy risklarni aniqlash.

Bu texnologiyalar moliyaviy boshqaruvni strategik darajaga olib chiqadi.

2-jadval.

Tibbiy muassasalarda raqamli buxgalteriya joriy etish bosqichlari [50]

Bosqich	Amalga oshiriladigan ishlar	Kutilayotgan natija
1-bosqich	Moliyaviy jarayonlarni audit qilish	Muammolar aniqlanadi
2-bosqich	Dastur tanlash va integratsiya	Barcha bo‘limlar yagona tizimga ulanadi
3-bosqich	Xodimlarni o‘qitish	Tizimdan samarali foydalanish
4-bosqich	Sinov va nazorat	Xatoliklar kamayadi
5-bosqich	To‘liq joriy etish	Moliyaviy barqarorlik oshadi

Xulosa. O’tkazilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, innovatsion iqtisodiyot sharoitida tibbiy xizmat sohasida raqamli buxgalteriya tizimini joriy etish – bu oddiy texnik modernizatsiya emas, balki moliyaviy boshqaruv modelining tub transformatsiyasidir. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sog‘liqni saqlash muassasalarida xarajatlar tarkibining murakkabligi, ko‘p manbali moliyalashtirish, sug‘urta mexanizmlarining kengayishi va yuqori operatsion yuklama sharoitida an’anaviy buxgalteriya tizimi yetarli darajada samarali emas.

Raqamli buxgalteriya tizimi esa moliyaviy oqimlarni real vaqt rejimida nazorat qilish, resurslardan oqilona foydalanish, dori-darmon va inventar harakatini monitoring qilish, sug‘urta hisob-kitoblarini tezlashtirish hamda audit jarayonlarini avtomatlashtirish orqali tizimli samaradorlikni ta’minlaydi. Natijada operatsion xarajatlar qisqaradi, moliyaviy shaffoflik oshadi, boshqaruv qarorlarining aniqligi va tezkorligi kuchayadi.

Tibbiy xizmat sohasida raqamli buxgalteriyani samarali joriy etish uchun quyidagi integratsiyalashgan (kompleks) model taklif etiladi:

1. Yagona raqamli moliyaviy platforma yaratish – buxgalteriya, ombor, kadrlar, sug‘urta va elektron tibbiy karta tizimlarini yagona ERP muhitida birlashtirish.
2. Real vaqtli moliyaviy monitoring tizimi – barcha darajadagi rahbariyat uchun analitik panel (dashboard) orqali xarajatlar va tushumlarni nazorat qilish.
3. Sun’iy intellekt asosidagi prognozlash – xarajatlar dinamikasi, dori sarfi va moliyaviy risklarni oldindan baholash.
4. Axborot xavfsizligi infratuzilmasini mustahkamlash – tibbiy va moliyaviy ma’lumotlarning maxfiyligini kafolatlash.

[50] Muallif tomonidan asosida mustaqil ravishda ishlab chiqilgan.

5. Kadrlar salohiyatini oshirish – buxgalter va moliyaviy menejerlar uchun raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish dasturlarini joriy etish.

Tibbiy xizmat sohasida raqamli buxgalteriya tizimini kompleks joriy etish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish va sog‘liqni saqlash tizimining investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatda esa bu jarayon innovatsion iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida tarmoqning raqobatbardoshligini kuchaytiradi hamda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi hududlarda barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashga va aholi farovonligini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi Qonuni. (Yangi tahriri).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori.
3. "Xizmat ko'rsatish sohasini yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror rivojlantirish yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Samarqand, 2026.
4. Abduvaxidov A. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish: nazariya va amaliyot. T.: "Iqtisodiyot", 2024.
5. International Federation of Accountants (IFAC). Handbook of International Public Sector Accounting Pronouncements (IPSAS). – New York, so‘nggi nashr.
6. World Health Organization (WHO). Digital Health Strategy and Global Health Observatory Reports. – Geneva, 2020–2023.
7. Google Scholar xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasi va www.trk.uz materiallari.

To’lqin Yahyoyev *–i.f.f.d., dotsent v.b., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

QURILISH XIZMATLARINI KO’RSATUVCHI KORXONALARDA ZAXIRALAR HISOBI VA TAHLILINI AMALGA OSHIRISHNING XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH

Annotatsiya*: Maqolada qurilish korxonalarida zaxiralar hisobi va tahlilini xalqaro buxgalteriya standartlariga moslashtirishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganiladi. Asosiy e’tibor zaxiralarni hisobga olish, ularning qiymatini aniqlash va tahlil qilish jarayonlarining samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va resurslardan optimal foydalanishni ta’minlashga qaratilgan. Maqolada IFRS va xalqaro amaliyotlarda qabul qilingan zaxiralar hisobi metodikasi tahlil qilinadi, shuningdek, qurilish korxonalariga mos tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar*: zaxiralar hisobi, qurilish korxonasi, moliyaviy hisobot, IFRS, tahlil, resurslarni boshqarish, moliyaviy nazorat.*

Аннотация*: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты учета и анализа запасов в строительных организациях в соответствии с международными стандартами бухгалтерского учета. Основное внимание уделено повышению эффективности учета запасов, определению их стоимости и анализа, приведению финансовой отчетности в соответствие с международными стандартами, а также оптимизации использования ресурсов. Рассмотрены методы учета запасов согласно МСФО и рекомендации для строительных компаний.*

Ключевые слова*: учет запасов, строительная организация, финансовая отчетность, МСФО, анализ, управление ресурсами, финансовый контроль.*

Abstract*: The article analyzes the theoretical and practical aspects of inventory accounting and analysis in construction enterprises in accordance with international accounting standards. Particular focus is given to improving the efficiency of inventory management, determining inventory value, analyzing stocks, aligning financial statements with IFRS, and optimizing resource utilization. Methods of inventory accounting according to IFRS and recommendations for construction companies are discussed.*

Keywords*: inventory accounting, construction enterprise, financial reporting, IFRS, analysis, resource management, financial control.*

Qurilish korxonalarida zaxiralar hisobi va tahlili korxonaning samarali faoliyati, moliyaviy barqarorligi va loyihalarni sifatli va muddatida yakunlashida muhim ahamiyatga ega. Zaxiralar – bu loyiha jarayonida ishlatiladigan materiallar, asbob-uskuna, inventar va boshqa moddiy resurslar bo‘lib, ularning mavjudligi, qiymati va samarali boshqarilishi qurilish jarayonining muvaffaqiyatini to‘liq belgilaydi. Shu sababli har bir qurilish korxonasida zaxiralarni hisobga olish va tahlil qilish nafaqat moliyaviy nazorat, balki ishlab chiqarish va resurslarni boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Qurilish sohasida zaxiralar hisobi va tahlilining o‘ziga xos xususiyatlari bir qator jihatlarda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, qurilish korxonalari ko‘pincha bir vaqtning o‘zida bir nechta loyihalarda faoliyat yuritadi, shuning uchun har bir loyiha uchun materiallar va uskunalarni alohida hisobga olish talab etiladi. Bu loyiha asosidagi hisob tizimi zaxiralar bilan ishlashni boshqa sanoat tarmoqlaridan sezilarli darajada farqlantiradi.

Ikkinchidan, qurilish materiallari – sement, g‘isht, yog‘och, armatura, texnik uskuna – turli narx, sifat va saqlash shartlariga ega bo‘lib, ularni hisobga olish va tahlil qilishni murakkablashtiradi.

Uchinchi xususiyat sifat va muddatga bog‘liq: ba’zi materiallar tez eskiradi yoki ob-havo sharoitida sifati yomonlashadi, shuning uchun zaxiralarni nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham muntazam monitoring qilish talab etiladi.

To‘rtinchidan, qurilish jarayonida moddiy va moliyaviy oqimlar o‘zgaruvchan bo‘lib, xarajatlar va materiallar talabining vaqtinchalik o‘zgarishi zaxiralar hisobi tizimini moslashuvchan va dinamik qilishni talab qiladi.

Beshinchidan, qurilish joyining logistika murakkabligi – materiallarning uzoq hududlarga yetkazilishi, saqlash va transport xarajatlarini hisobga olish – zaxiralar hisobini aniq va tizimli yuritishni talab qiladi.

Zaxiralarni hisobga olish va ularning tahlili bir necha jihatdan zarur. Birinchidan, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash: zaxiralar qiymati korxonaning moliyaviy hisobotida aks etadi va to‘g‘ri hisob-kitoblar auditorlar, investorlar va rahbariyat uchun ishonchli ma’lumot manbai bo‘ladi. Ikkinchidan, resurslardan samarali foydalanish: zaxiralar tahlili materiallarning yetishmasligi yoki ortiqcha zaxiralarni aniqlashga yordam beradi, bu esa loyihalarni belgilangan muddatda va sifatli bajarish imkonini oshiradi. Uchinchidan, loyiha xarajatlarini optimallashtirish: zaxiralar qiymati va aylanishini tahlil qilish rahbariyatga xarajatlarni kamaytirish va mablag‘larni optimal taqsimlash bo‘yicha qarorlar qabul qilish imkonini beradi. To‘rtinchidan, risklarni kamaytirish: materiallarning eskirishi, yo‘qolishi yoki yetib kelmasligi qurilish jarayonini sekinlashtirishi mumkin, zaxiralarni muntazam tahlil qilish esa bu xavflarni oldindan aniqlash va ularni minimallashtirishga xizmat qiladi. Beshinchidan, xalqaro standartlarga muvofiqlik: IFRS va boshqa xalqaro buxgalteriya standartlariga moslashtirilgan zaxiralar hisobi moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshiradi, auditorlar tomonidan tasdiqlanishni osonlashtiradi va investorlar uchun ma’lumotlarning aniqligini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, zaxiralar hisobi va tahlili korxonaning strategik boshqaruvi uchun ham muhimdir. Samarali tizim loyiha uchun zarur bo‘lgan barcha material va inventar mavjudligini nazorat qilish, materiallar narxi va sifati bo‘yicha qarorlar qabul qilish, ortiqcha yoki eskirgan zaxiralarni aniqlash va ularni qayta ishlash orqali xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, rahbariyat va investorlar uchun shaffof moliyaviy ma’lumotlar taqdim etadi, xodimlar va jamoa uchun ish jarayonini optimallashtiradi va samaradorlikni oshiradi.

Shunday qilib, qurilish korxonalarida zaxiralar hisobi va tahlilining o‘ziga xos xususiyatlari – loyiha asosida ishlash, materiallarning turli xil xususiyatlari, muddat va logistika murakkabligi bilan belgilanadi. Shu sababli ularning hisobini tizimli va xalqaro standartlarga moslashtirish, muntazam tahlil qilish va monitoring qilish zarurati dolzarb bo‘lib, korxonaning moliyaviy barqarorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, loyiha sifatini va muddatga rioya qilishni ta’minlashga xizmat qiladi. Zaxiralarni shaffof va tizimli hisobga olish orqali qurilish korxonalari xarajatlarni kamaytirish, risklarni minimallashtirish va raqobatbardoshligini oshirish imkoniga ega bo‘ladi.

Qurilish korxonalarida zaxiralar hisobi va tahlili korxonaning moliyaviy barqarorligi va loyihalarni sifatli va muddatida yakunlashida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zaxiralar – bu loyiha jarayonida ishlatiladigan materiallar, inventar, asbob-uskuna va boshqa moddiy resurslar bo‘lib, ularning mavjudligi va qiymati qurilish korxonasining ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, 2-son buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga, xususan IFRS 2 “Inventories” (Zaxiralar) asosida yuritiladigan zaxiralar hisobi qurilish korxonalari uchun o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Birinchidan, qurilish korxonalarida zaxiralarni hisobga olish loyihaga yo‘naltirilgan bo‘lib, har bir loyiha uchun alohida moliyaviy oqim va resurslar

hisobga olinadi. Bu loyiha xarajatlarini aniq rejalashtirish va nazorat qilish imkonini beradi, chunki har bir loyiha uchun materiallar va ishchi kuchi xarajatlari turlicha bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, qurilish materiallari turli narx, sifat va saqlash shartlariga ega bo‘lib, ularni hisobga olish va tahlil qilishni murakkablashtiradi. Masalan, sement, armatura, yog‘och yoki texnik uskuna turli muddatlarda eskiradi yoki ob-havo sharoitida sifati yomonlashadi, shuning uchun zaxiralarni miqdoriy va sifat jihatdan muntazam monitoring qilish talab etiladi.

Uchinchidan, qurilish korxonalarida zaxiralar qiymatini aniqlash va tahlil qilishda xalqaro standartlarning “eng past qiymat yoki xarajat” (LCM – Lower of Cost or Market) printsipi qo‘llaniladi. Bu printsip asosida materiallarning xarajatlari va bozor qiymati solishtiriladi va eng past ko‘rsatkich hisobga olinadi, bu esa moliyaviy hisobotlarning adolatliligini ta’minlaydi. Shuningdek, FIFO (First In, First Out) yoki o‘rtacha xarajat usullari ko‘pincha qo‘llaniladi, chunki bu loyiha materiallarining eskirish xavfini kamaytiradi va xarajatlarni aniq ko‘rsatishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, 2-son buxgalteriya hisobi zaxiralar bilan bog‘liq moliyaviy oqimlarni integratsiya qiladi. Pul mablag‘lari, bank operatsiyalari va loyiha xarajatlari zaxiralar hisobiga alohida va tizimli kiritiladi. Bu rahbariyatga xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish imkonini beradi, shuningdek, investorlarga va auditorlarga shaffof moliyaviy ma’lumotlar taqdim etadi. Shu bilan birga, zaxiralar aylanishi, qoldiq holati va eskirish xavfi muntazam tahlil qilinadi, bu esa resurslardan samarali foydalanish va ortiqcha xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, qurilish korxonalarida zaxiralar hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish strategik ahamiyatga ega. Bu nafaqat moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshiradi, balki loyiha xarajatlarini optimallashtirish, pul mablag‘larini loyihaga moslashuvchan boshqarish va risklarni minimallashtirish imkonini beradi. Shu orqali qurilish korxonasi o‘z resurslarini samarali boshqaradi, loyiha sifatini va muddatga rioya qilishni ta’minlaydi hamda raqobatbardoshligini oshiradi.

Taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, IFRS (2-son buxgalteriya hisobi) zaxiralarni hisobga olish va tahlil qilishda ko‘proq shaffoflik, bozor qiymati va xalqaro standartlarga moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Milliy buxgalteriya hisobi (BHMS) esa odatda tarixiy xarajat va mahalliy qonunchilikka moslashtirilgan bo‘lib, ko‘proq soliq va davlat nazoratiga qaratilgan. Qurilish korxonalarida zaxiralar hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish korxonaning moliyaviy hisobotlarini xalqaro auditorlar uchun ham tayyorlash va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash imkonini beradi.

1-jadval

Zaxiralar hisobini milly hamda xalqaro standartlari asosida hisobni yuritishni farqli jihatlari

№	Xususiyat	2-son buxgalteriya hisobi (IFRS 2)	4-son buxgalteriya hisobi milly standarti	Taqqoslash va izoh
1	Hisoblash printsipi	Eng past qiymat yoki xarajat (LCM – Lower of Cost or Market)	Xarajatlar asosida (asosiy hisob-kitob – tarixiy xarajat)	IFRS bozor qiymatini hisobga oladi, BHMS esa odatda faqat xarajat asosida hisoblaydi; IFRS yanada adolatli va shaffof hisobot beradi.
2	Hisob usullari	FIFO (First In, First Out), O‘rtacha xarajat, Individual identifikatsiya	FIFO, LIFO, O‘rtacha xarajat	BHMS LIFO usulini ham ruxsat beradi, IFRS LIFOni tan olmaydi; buxgalteriya hisobi standartlari bo‘yicha hisobot natijalari farq qiladi.
3	Zaxiralar tahlili	Materiallar aylanishi, qoldiq holati, eskirish xavfi va samaradorlik	Faqat miqdoriy va qiymat hisobga olinadi; tahlil chegaralangan	IFRS tahlilni keng qamrovli qiladi, BHMS esa ko‘proq rasmiy hisob-kitobga e’tibor beradi.
4	Hisobot shakli	Moliyaviy hisobotlarda shaffof, xalqaro auditorlar tomonidan tasdiqlanishi mumkin	Milliy moliyaviy hisobot formati, davlat auditorlari tomonidan tekshiriladi	IFRS hisobotlar xalqaro auditorlar uchun tayyorlanadi, BHMS mahalliy nazorat va soliq organlari uchun moslashtirilgan.
5	Qo‘llash hududi	Xalqaro investorlar, kreditorlar, xorijiy shartnomalar, xalqaro moliyaviy hisob	Milliy moliyaviy nazorat, soliqlar, ichki hisobot	IFRS ko‘proq xalqaro moliyaviy shaffoflikni ta’minlaydi, BHMS mahalliy qonunchilikka moslashgan.
6	Zaxiralar qiymatini qayta baholash	Bozor qiymati yoki eskirish xavfi asosida	Odatda qayta baholash minimal yoki yo‘q	IFRS qiymatni bozor sharoitiga moslashtirishni talab qiladi, BHMS esa tarixiy xarajatni saqlashga asoslanadi.

Xulosa

Qurilish korxonalarida zaxiralar hisobi va tahlilini xalqaro standartlarga moslashtirish korxonaning moliyaviy barqarorligini oshirish, loyihalarni sifatli va muddatida bajarishni ta’minlash hamda resurslardan optimal foydalanishni ta’minlashda strategik ahamiyatga ega. IFRS va xalqaro buxgalteriya amaliyotlari asosida zaxiralarni hisobga olish moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshiradi, ortiqcha xarajatlar va material yo‘qotishlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, tahlil vositalari orqali resurslar taqsimoti va xarajat samaradorligini optimallashtirish mumkin.

Takliflar

1. Qurilish korxonalarida zaxiralar hisobi va tahlilini IFRS standartlariga moslashtirish.
2. FIFO va o‘rtacha xarajat usullarini loyiha xususiyatiga qarab qo‘llash.
3. Zaxiralarni tahlil qilish tizimini elektron va raqamli platformalarda joriy etish.
4. Materiallar aylanishi va eskirish xavfini monitoring qilish uchun KPI tizimini ishlab chiqish.
5. Rahbarlar va moliyaviy xodimlar uchun xalqaro standartlar bo‘yicha muntazam trening va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish.

Adabiyotlar:

1. International Accounting Standards Board. International Financial Reporting Standards (IFRS). London: IASB, 2023.
2. Michael Armstrong. Armstrong's Handbook of Human Resource and Financial Management. London: Kogan Page, 2020.
3. Gary Dessler. Human Resource and Financial Management in Construction. Pearson, 2021.
4. Wayne Mondy. Human Resource Management. 15th Edition. Pearson, 2019.
5. International Labour Organization. Guidelines on Construction Resource Management and Inventory. Geneva: ILO, 2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun. Tashkent: Adolat Nashriyoti, 2023.

Qarshiboyev Xayrulla Qilichovich *– f-m.f.n., dotsent., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Oliy matematika kafedrasi mudiri.*

KORXONANING IQTISODIY RIVOJLANISHINI BASHORAT QILISH USULI

Annotatsiya: *ushbu maqolada korrelyatsiya va regressiya tahlilini korxonaning iqtisodiy rivojlanishini bashorat qilish usuli sifatida muhokama qilinadi. Korrelyatsiya koeffitsientlarini hisoblash o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar orasidagi bog’lanishning yaqinligi va yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi. Regressiya tahlili korrelyatsiya tahlilining tabiiy*

davomi bo‘lib, natijaviy qiymat va omil ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog’liqlikning analitik ifodasini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: *korrelyatsiya va regressiya tahlili, prognozlash, tasodifiy o‘zgaruvchilar, samarali belgi.*

Abstract: *this article examines correlation-regressive analysis as a way to forecast economic development of an enterprise. Calculation of correlation coefficients allows to detect the closeness and direction of the relationship of the studied indicators. Regression analysis is a natural continuation of correlation and consists in determining the analytical expression of the relationship of the resulting value with factor indicators.*

Keywords: *correlation-regressive analysis, forecasting, random variables, resultant feature.*

Аннотация: *в данной статье рассматривается корреляционно-регрессионный анализ как способ прогнозирования экономического развития предприятия. Расчет коэффициентов корреляции позволяет выявить близость и направленность взаимосвязи изучаемых показателей. Регрессионный анализ является естественным продолжением корреляционного анализа и заключается в определении аналитического выражения связи результирующего значения с факторными показателями.*

Ключевые слова: *корреляционно-регрессионный анализ, прогнозирование, случайные величины, результирующая характеристика.*

Iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish uchun korxonalar korrelyatsiya va regressiya tahlilidan keng foydalanadilar. U o‘rganilayotgan jarayonning tasodifiy o‘zgaruvchilari o‘rtasidagi miqdoriy munosabatlarni o‘rnatadigan aloqa shakllarini sinab ko‘rish uchun ishlatiladi. Bu usul ijtimoiy-iqtisodiyprognozlashda barqaror sabab-natija munosabatlarini baholashga asoslangan shartli prognozlar va prognozlarni qurish uchun qo‘llaniladi.

Korrelyatsiya va regressiya tahlili iqtisodiy faoliyatni stoxastik modellashtirishning klassik usuli hisoblanadi. U iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun, agar ular o‘rtasidagi munosabatlar qat'iy funktsional bo‘lmasa va begona, tasodifiy omillar ta’sirida buziladi. Korrelyatsion-regression tahlil usulidan foydalanib, iqtisodiy faoliyatning korrelyatsiya va regressiya modellari tuziladi, ularda omil va samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlanadi [2]. Korrelyatsiya tahlili turli o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning kuchini o‘lchash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, samarali atributga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan omillarni baholash uchun foydalaniladi.

Regressiya tahlili bog’liq o‘zgaruvchining (natija xarakteristikasi) taxminiy qiymatlarini aniqlash uchun munosabatlar shakli va model turini tanlash uchun zarurdir.

Korrelyatsiya va regressiya tahlili keng qamrovli qo‘llaniladi. Juftlik korrelyatsiyasi nazariy jihatdan eng rivojlangan va ko‘pincha amaliyotda qo‘llaniladi. Samarali belgi bilan bir omil xarakteristikasi o‘rtasidagi bog’liqlik o‘rganilganda qo‘llaniladi. Bu bir faktorli korrelyatsiya va regressiya tahlilidir [3].

Keling, "Samarqand shahridagi non mahsulotlari zavodi" MCHJ korxonasi misolida korrelyatsiya va regressiya tahlilidan foydalanishni ko‘rsatamiz.

" Samarqand shahridagi non mahsulotlari zavodi" don va uni qayta ishlash mahsulotlarini saqlash, mamlakatimiz hududida don va moyli o‘simliklarni qayta yuklash bo‘yicha ishlar va xizmatlarni amalga oshirish bilan shug’ullanadi.

Korrelyatsiya va regressiya tahlilidan foydalanib, daromadning ma’lum bir korxonaning aylanma mablag’lari miqdoriga ta’sirini tahlil qilaylik. Dastlabki ma’lumotlar quyidagi 1-jadvalda ko‘rsatilgan

Jadvalda keltirilgan dastlabki ma’lumotlardan foydalanib, biz samarali xarakteristikaning Y ning X omilga bog’liqligi grafigini tuzamiz.

" Samarqand shahridagi non mahsulotlari zavodi"
MCHJ daromadlari va aylanma mablag’lari

kun	Un uchun ketgan xarajat, ming.dollar. (x)	Daromad, ming.dollar. (y)
1	1	1,2
2	1,2	1,4
3	1,4	1,6
4	1,6	1,8
5	1,8	2,0
6	2,0	2,2
7	2,2	2,4
8	2,4	2,6

1-jadval. Aylanma mablag’lar miqdorining tushum miqdoriga bog’liqligi grafigi

Jadvalda keltirilgan va grafik jihatdan tasdiqlangan ma’lumotlardagi o‘zgarishlarning tabiatini hisobga olgan holda, biz tanladikikkinchi tartibli parabola, quyidagi shaklga ega:

$$Y_x = a + bx + cx^2 \qquad (1)$$

a, b va c parametrlarining qiymatlari tenglamalar tizimini yechish orqali topiladi:

$$\begin{cases} na + b\sum x + c\sum x^2 = \sum y \\ a\sum x + b\sum x^2 + c\sum x^3 = \sum xy \\ a\sum x^2 + b\sum x^3 + c\sum x^4 = \sum x^2 y \end{cases} \qquad (2)$$

bu yerda: n – kuzatishlar soni.

Olingan qiymatlarni tenglamalar tizimiga almashtiramiz:

$$\begin{cases} 8a + 13{,}6b + 24{,}8c = 15{,}2; \\ 13{,}6a + 24{,}8b + 46{,}872c = 27{,}52; \\ 24{,}8a + 46{,}872b + 95{,}5696c = 52{,}832. \end{cases}$$

Determinant usuli yordamida regressiya tenglamasining parametrlarini topdik:

$$a = 0{,}5$$

$$b = 0{,}49$$

$$c = 0{,}183$$

Shunday qilib, parabolaning tenglamasi quyidagicha:

$$Y_x = 0{,}5 + 0{,}49x + 0{,}183x^2 \qquad (3)$$

Ushbu tenglamaga X ning mos keladigan qiymatlarini qo‘yamiz miqdoriga qarab aylanma mablag’larning tenglashtirilgan qiymatlari daromad (2-jadval).

2-jadval.

Y yakuniy xarakteristikaning darajali qiymatlari

n	X, ming.dollar.	Y, ming.dollar.	Y_x, ming.dollar.
1	1	1,2	1,173
2	1,2	1,4	1,35152
3	1,4	1,6	1,54468
4	1,6	1,8	1,75284
5	1,8	2,0	1,97492
6	2,0	2,2	2,212
7	2,2	2,4	2,46372
8	2,4	2,6	2,73008

Omil va samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog’liqlikning chiziqli bo‘lmagan munosabat bilan yaqinligini o‘lchash uchun korrelyatsiya nisbatini hisoblaymiz:

$$R = \sqrt{1 - \frac{\sum(y - \overline{y_x})^2}{\sum(y - \overline{y})^2}} = \sqrt{1 - \frac{0{,}03007}{1{,}68}} = 0{,}991 \qquad (4)$$

Korrelyatsiya nisbati 0 dan 1 gacha qiymat olishi mumkin. Uning qiymati birlikka qanchalik yaqin bo‘lsa, o‘rganilayotgan hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlik shunchalik yaqin bo‘ladi [7].

Korrelyatsiya koeffitsientining qiymati 0,96668 ga teng bo‘lsa, omil va natijaviy xarakteristikaning o‘zaro bog’liqligi kuchli ekanligini anglatadi. Agar daromad 1% ga o‘zgargan bo‘lsa, aylanma mablag’larning qiymati 0,97% ga o‘zgaradi.

Aloqa modelini chiziqli bo‘lmagan bog’liqlik bilan baholash uchun korrelyatsiya nisbati kvadratiga teng bo‘lgan aniqlash indeksini aniqlash kerak:

$$R^2 = \eta^2$$
$$R^2 = 0{,}991^2 = 0{,}982081 \quad (5)$$

Biz turli xil model variantlari yordamida hisob-kitoblarni amalga oshirdik. Aylanma mablag’lar miqdorining daromadlar miqdoriga bog’liqligi tendentsiyasi eng yaxshi tomonidan tavsiflanadipolinom funktsiyasi, chunki aniqlash indeksi R^2 eng katta - 0,982. Bu shuni anglatadiki, manba ma’lumotlarining 98,2% tanlangan modelga bo‘ysunadi.

Bundan kelib chiqadiki, aylanma mablag’lar qiymatining o‘zgarishining 98,2 foizi daromadlar o‘zgarishi bilan bog’liq. 1,8% esa boshqa omillar ta’siriga bog’liq.

Tuzilgan modelning sifatini baholash uchun biz o‘rtacha yaqinlashish xatosini (A) hisoblaymiz. Bu Y ko‘rsatkichining haqiqiy qiymatlari tuzilgan model yordamida hisoblangan qiymatlardan necha foizga farq qilishini ko‘rsatadi.

O‘rtacha taxminiy xato quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\overline{A} = \frac{\sum |Y_i - Y_x| / Y_i}{n} 100\% \quad (6)$$

bu yerda: $|Y_i - Y_x|$- moslashtirilgan Y qiymatlarining haqiqiy qiymatlardan og’ishimodul.

$$\overline{A} = 2{,}656\%$$

Olingan qiymat bizga tuzilgan modelning sifati yaxshi degan xulosaga kelishga imkon beradi, chunki regressiya modeli yaxshi moslashtirilgan deb hisoblanadi va agar o‘rtacha yaqinlashish xatosi 10% dan oshmasa, omil va ishlash ko‘rsatkichi o‘rtasidagi munosabatni etarlicha aniq tavsiflaydi.

Keling, 7 va 8 oylar uchun aylanma mablag’larning prognoz qiymatlarini hisoblaylik.

Aytaylik, kompaniya har yili o‘tgan yilga nisbatan daromadini 10% ga oshiradi. Bu shuni anglatadiki, 7 va 8 oylardagi daromad miqdori:

7: 2,2 + 0,1·2,2 =2,64 (ming dollar);
8: 2,64 + 0,1·2,64 = 2,904 (ming dollar).

Olingan qiymatlarni regressiya tenglamasiga keltirib qo‘yamiz:

7: 0,5+0,49·2,64+ 0,183·6,9696 =3,07 (ming dollar);
8: 0,5 + 0,49·2,904+0,183·2,904 =3,47 (ming dollar).

Tuzilgan regressiya modeli natijalarini tahlil qilsak, shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, zavod daromadini rejalashtirilgan ikki oy davomida 10% ga oshirish uchun 7 oyda 3,07 ming dollar, 8 oyda 3,47 ming dollar aylanma mablag’ kerak bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Кремер Н.Ш., Путко Б.А. Эконометрика: Учебник. – М.: Юнити-Дана, 2008. – 328 с.
2. Greene, W. H. (2012). Econometric Analysis, 7 th Edition (Int. Edition), Essex:

Pearson.

3.Бутакова М.М. Экономическое прогнозирование: методы и приемы практических расчетов: Учебное пособие / М.М. Бутакова. – 2-е изд. – М.: Кнорус, 2010. – 168 с.

4. Гиляровская Л.Т. Экономический анализ: Учебник для вузов. – М.: Юнити-Дана, 2011.

To’lqin Yahyoyev *–i.f.f.d., dotsent v.b., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

QURILISH XIZMATLARINI KO’RSATUVCHI KORXONALARDA PUL OQIMLARI HARAKATINI BOSHQARISH HAMDA TAHLIL QILISH

Annotatsiya*: Ushbu maqolada qurilish xizmatlarini ko’rsatuvchi korxonalarda pul oqimlarini boshqarish va tahlil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, samarali boshqaruv usullari va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati o‘rganildi. Pul oqimlarini nazorat qilishning samarali mexanizmlari korxonaning moliyaviy barqarorligini oshirish, loyiha xarajatlarini optimallashtirish va investitsion qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar*: pul oqimlari, boshqaruv, tahlil, qurilish korxonasi, moliyaviy barqarorlik.*

Аннотация*: В статье изучаются особенности управления и анализа движения денежных потоков в строительных компаниях, а также их влияние на финансовую устойчивость организации. Эффективные механизмы контроля денежных потоков способствуют оптимизации расходов проектов и принятию инвестиционных решений.*

Ключевые слова*: денежные потоки, управление, анализ, строительная компания, финансовая устойчивость.*

Abstract*: This article explores the peculiarities of cash flow management and analysis in construction service companies, as well as its role in ensuring financial stability. Effective cash flow control mechanisms help optimize project costs and support investment decision-making.*

Keywords*: cash flow, management, analysis, construction company, financial stability.*

Qurilish korxonalarida pul oqimlari – bu mablag‘larning kirim va chiqimlari, ya’ni loyiha xarajatlari, ishchi kuchi, materiallar, pudratchilar to‘lovlari va boshqa moliyaviy operatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Pul oqimlarini samarali boshqarish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, xarajatlarni nazorat qilish va loyihalarni muddatida amalga oshirish imkonini beradi.

Qurilish xizmatlarini ko’rsatuvchi korxonalarda pul oqimlarini boshqarish va tahlil qilish korxonaning moliyaviy barqarorligi, loyiha samaradorligi va resurslardan optimal foydalanishni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pul oqimlari kiruvchi mablag‘lar — loyiha buyurtmalari, investor mablag‘lari va qarz

mablag‘lari hamda chiquvchi mablag‘lar — material xarajatlari, ishchi kuchi xarajatlari, tashqi pudratchilar va boshqa xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Samarali boshqaruv mexanizmlari bu mablag‘larning loyiha bo‘yicha aniq nazoratini, optimal taqsimlanishini va moliyaviy risklarning minimallashtirilishini ta’minlaydi.

Qurilish korxonalarida pul oqimlarini boshqarish bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Avvalo, korxona bir vaqtning o‘zida bir nechta loyihalarda faoliyat yuritadi, shuning uchun har bir loyiha bo‘yicha mablag‘lar alohida hisobga olinadi.

Ikkinchidan, pul oqimlarining prognozlanishi va real vaqt rejimida monitoring qilinishi zarur, chunki materiallar xarajatlari, ish haqi va boshqa majburiyatlar vaqt va loyiha talablariga ko‘ra o‘zgarib turadi.

Uchinchidan, pul oqimlarining tahlili mablag‘larning kirim va chiqim manbalari, aylanish tezligi va likvidligi, shuningdek nomutanosiblik va kechikish risklarini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Bu tahlil asosida rahbariyat xarajatlarni optimallashtiradi, mablag‘larni samarali taqsimlaydi va investitsion qarorlarni puxta asoslab qabul qiladi.

Shuningdek, elektron va raqamli moliyaviy tizimlardan foydalanish pul oqimlarini boshqarish va tahlil qilish samaradorligini oshiradi. Bunday tizimlar real vaqt rejimida mablag‘larning harakatini kuzatish, loyihalar bo‘yicha alohida hisob yuritish va moliyaviy hisobotlarni tez va aniq tayyorlash imkonini beradi. Shu tarzda, pul oqimlarini tizimli boshqarish va tahlil qilish qurilish korxonalarining moliyaviy shaffofligini oshiradi, xarajatlarni nazorat qilishni soddalashtiradi va raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

1-jadval

Pul oqimlari harakati to’g’risidagi hisobotni milli hamda xalqaro standartlarga ko’ra alohida xususiyatlari

№	Xususiyat	7-son buxgalteriya hisobi (IFRS – xalqaro standart)	9-son buxgalteriya hisobi (BHMS – milliy standart)	Taqqoslash va izoh
1	Pul oqimlari bo‘yicha maqsad	Moliyaviy vositalar va qarz majburiyatlari bilan bog‘liq pul oqimlarini shaffof taqdim etish; risklarni aniqlash	Korxonaning pul mablag‘lari kirim-chiqimini nazorat qilish va soliq hisobotlariga moslash	IFRS kengroq va strategik tahlil uchun, BHMS odatda operativ nazorat uchun ishlatiladi.
2	Hisoblash printsipi	Pul oqimlarini bozor qiymati, amortizatsiyalangan xarajat va kutilayotgan kredit zararini hisobga olgan holda yuritadi	Tarixiy xarajat va rasmiy operatsiyalar asosida, diskontlash minimal	IFRS pul oqimlarini yanada real va prognozli ko‘rsatadi, BHMS ko‘proq rasmiy va konservativ yondashuv.

3	Pul oqimlarini tasniflash	Moliyaviy vositalar bo‘yicha kirim va chiqimlarni qisqa, uzoq muddatli, operatsion va investitsion oqimlarga ajratadi	Kirim va chiqimlarni qisqa va uzoq muddatli, faqat operatsion asosda ajratish	IFRS tafsilotli tahlilni talab qiladi, BHMS esa sodda, asosiy monitoringga qaratilgan.
4	Tahlil va risklarni aniqlash	Qarzdorlik va kredit risklarini oldindan baholash, pul oqimlarining o‘zgarishlari va likvidlik riskini tahlil qilish	Riskni minimal tahlil; faqat ortiqcha xarajat yoki kechikishlarni aniqlash	IFRS proaktiv boshqaruv va strategik qaror qabul qilishga mos, BHMS operativ monitoringga yo‘naltirilgan.
5	Hisobot shakli	Moliyaviy hisobotlar shaffof, investorlar va auditorlar uchun	Mahalliy moliyaviy hisobot shakli, soliq va davlat nazorati uchun	IFRS global moliyaviy standartlarga mos, BHMS mahalliy talablar uchun.
7	Hisob tizimi va monitoring	Elektron tizimlar orqali real vaqt rejimida pul oqimlarini nazorat qilish	Qisman elektron yoki qog‘oz shaklida, muntazam nazorat	IFRS integratsiyalashgan tizimlarni rag‘batlantiradi, BHMS ko‘proq an’anaviy hisob-kitobga tayanadi.

7-son IFRS pul oqimlarini nafaqat kirim-chiqim bo‘yicha, balki moliyaviy vositalar va kredit risklari kontekstida shaffof va strategik tahlil qilishni ta’minlaydi. Bu investitsion va moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun qulay. 9-son BHMS esa mahalliy soliq va nazorat talablariga mos, odatda tarixiy xarajat va operatsion monitoringga qaratilgan, risklarni tahlil qilish cheklangan. Qurilish korxonalarida 7-son IFRSga moslashish pul oqimlarini real va prognozli boshqarish, risklarni aniqlash va xalqaro auditorlar bilan ishlashni osonlashtiradi, 9-son MCHS esa mahalliy qonunchilik va soliq hisob-kitobiga mos keladi.

Xulosa

Qurilish xizmatlarini ko’rsatuvchi korxonalarda pul oqimlarini boshqarish va tahlil qilish korxonaning moliyaviy barqarorligi, loyiha samaradorligi va resurslardan optimal foydalanishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Samarali boshqaruv mexanizmlari orqali kirim va chiqimlarni nazorat qilish, mablag‘larni to‘g‘ri taqsimlash va risklarni minimallashtirish mumkin. Shu bilan birga, elektron moliyaviy tizimlardan foydalanish, loyiha bo‘yicha alohida hisob yuritish va pul oqimlarini muntazam tahlil qilish qurilish korxonalarining moliyaviy shaffofligini oshiradi va raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Takliflar

- Qurilish korxonalarida pul oqimlari bo‘yicha loyihalar alohida hisobga olinishi va tahlil qilinishi kerak.

- Elektron va raqamli moliyaviy tizimlar joriy etilishi, real vaqt rejimida mablag‘larni kuzatish imkonini beradi.
- Pul oqimlari tahlili asosida xarajatlarni optimallashtirish va risklarni minimallashtirish mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim.
- Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarga moslashtirilishi va investorlar, auditorlar uchun shaffofligi ta’minlanishi zarur.

Adabiyotlar:

1. IFRS Foundation. International Financial Reporting Standards (IFRS), 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi. Milliy buxgalteriya hisobi standartlari, 2021.
3. Жураев, А. Qurilish korxonalarida moliyaviy boshqaruv va nazorat, Toshkent, 2020.
4. Сидоров, И. Cash Flow Management in Construction Companies, Moscow, 2019.
5. Азимов, Ш. Pul oqimlari tahlili va boshqaruvi, Toshkent, 2021.

Х.К.Каршибоев *– к.ф-м.н., доцент., заведующий кафедрой Высшей математики, СамИЭС*

ОЦЕНКА СПРОСА ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ ПО ТЕНДЕНЦИИ ВРЕМЕННЫХ РЯДОВ

Аннотация: *В статье с целью оценки спроса потребителей показана серия колонок, реализующая программу экстраполяции, которая требуется при реализации производства продукта в определенном диапазоне направлений. Программа изучения покупательского спроса может включать различные задачи. Однако всегда требуется, чтобы были даны оценки текущего состояния спроса, а также оценки объёма и структуры спроса в будущем. Выявлена квадратичная модель для прогнозирования объёма товарооборота.*

Ключевые слова: *экстраполяция, прогнозирование, уравнение гиперболы, динамический ряд, метод аналитического выравнивания.*

Annotatsiya: *Maqolada ma’lum vaqt davomida do‘konning tovar aylanmasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar misolida iste’molchi talabini bashorat qilish uchun dinamik qator tendensiyasining ekstrapolyatsiyasini qo‘llash keltirilgan. Iste’molchi talabini o‘rganish dasturi turli vazifalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Biroq, har doim talabning hozirgi holatini baholash, shuningdek, kelajakdagi talab hajmi va tuzilishini baholash talab qilinadi. Tovar aylanmasi hajmini bashorat qilishning kvadrat modeli ochildi.*

Kalit so‘zlar: *ekstrapolyatsiya, bashorat, giperbola tenglamasi, analitik tekislash usuli, dinamik qator.*

Abstract: *Application of extrapolation of a tendency of a dynamic row for prediction of consumer demand on the example of data on commodity turnover of shop for some time term is given in article. The program of studying of consumer demand can include various tasks. However it is always required that estimates of current state of demand and also assessment of volume and structure of demand in the future were given. The square model for prediction of volume of commodity turnover is revealed.*

Key words: *extrapolation, prediction, hyperbole equation, method of analytical alignment, dynamic row.*

Прогнозирование покупательского спроса основано на экстраполяции тенденции динамического ряда товарооборота. Под динамическим рядом товарооборота понимается изменение товарооборота во времени. Если не происходит каких-либо существенных изменений в условиях, формирующих покупательский спрос, то метод экстраполяции позволяет получить достаточно надежные результаты. В противном случае данный метод необходимо дополнить другими методами определения покупательского спроса – расчетно-конструктивным или анкетным.

Статистические [3] методы прогнозирования тенденции динамического ряда подразделяются на две основные группы: методы аналитического выравнивания и экспоненциального сглаживания.

Сущность метода аналитического выравнивания заключается в нахождении теоретических уровней ряда y_t, которые в минимальной степени отклонялись бы от фактических уровней y. После этого тенденцию ряда можно продолжить, рассчитав уровни ряда на будущий период (год, квартал, декаду), в зависимости от поставленной задачи.

Выравнивание [1] уровней ряда динамики и их экстраполяция производятся по уравнению прямой (тренду), если уровни ряда равномерно растут или уменьшаются. Если изменение тенденции носит характер усиливающегося или затухающего роста, то для экстраполяции применяется соответственно уравнение параболы либо полулогарифмическая кривая. Для экстраполяции криволинейных плавных тенденции можно воспользоваться уравнением гиперболы.

Выбор уравнение связи производится на основе графического анализа. Вид уравнений будет несколько отличаться от приведенных ранее тем, что вместо признака – фактора x в уравнение в качестве переменной вводится время t.

Рассмотрим прогнозирование уровней динамического ряда на следующем примере.

Розничный товарооборот по магазину за 2020-2028 гг. (в млн. руб.)

2020 г. – 80,1	2025 г. –100,8
2021г. – 82,5	2026г. –106,5
2022 г. – 85,8	2027 г. –114,9
2023г. – 89,7	2028 г. –125,7
2024 г. – 94,8	

Анализируя изменение уровней ряда,[2] приходим к выводу, что оно носит характер усиливающегося роста. Графический анализ свидетельствует о наличии криволинейной зависимости, напоминающей график параболы. Следовательно, для выравнивания ряда выбираем уравнение параболы

$$\overline{y}_t = a_0 + a_1 t + a_2 t^2$$

Составим систему нормальных уравнений:

$$na_0 + a_1\sum t + a_2\sum t^2 = \sum y;$$
$$a_0\sum t + a_1\sum t^2 + a_2\sum t^3 = \sum yt;$$
$$a_0\sum t^2 + a_1\sum t^3 + a_2\sum t^4 = \sum t^2 y$$

Построим рабочую расчетную таблицу (табл.1).

Для упрощения расчетов[2] годы условно нумеруются таким образом, чтобы $\sum t = 0$, тогда и $\sum t^3 = 0$, а система нормальных уравнений будет иметь вид

Таблица 1

Человеческий потребителъский спрос с течением времени

Годы	**Розничный товарообо-рот. млн. руб.**	t	t^2	t^3	t^4	$y \cdot t$	$y \cdot t^2$	$\bar{y}_t$
2020	80,1	-4	16	-64	256	-320,4	1281,6	80,13
2021	82,5	-3	9	-27	81	-247,5	742,5	82,37
2022	85,8	-2	4	-8	16	-171,6	331,2	85,65
2023	89,7	-1	1	-1	1	-89,7	89,7	89,67
2024	94,8	0	0	0	0	0	0	94,73
2025	100,8	+1	1	1	1	100,8	100,8	100,79
2026	106,5	+2	4	8	16	213	426	107,67
2027	114,9	+3	9	27	81	344,7	1034,1	115,55
2028	125,7	+4	16	64	256	502,8	2011,2	124,37
Итого	**880,8**	**0**	**60**	**0**	**708**	**332,18**	**6017**	**880,8**

$$na_0 + a_2\sum t^2 = \sum y;$$
$$a_1\sum t^2 = \sum yt;$$
$$a_0\sum t^2 + a_2\sum t^4 = \sum t^2 y\ .$$

Поставляя в эту систему соответствующего значения из расчетной таблицы, получаем:

$$9a_0 + 60a_2 = 880{,}8$$
$$60a_1 = 332{,}18$$
$$60a_0 + 708a_2 = 6017$$

Решая уравнение относительно a, получаем

$$a_1 = \frac{332{,}18}{60} = 5{,}53.$$

Далее решаем систему из двух уравнений:

$$9a_0 + 60a_2 = 880{,}8 \quad : 9$$
$$60a_0 + 708a_2 = 6017 \ : 60$$

Разделив каждое уравнение на коэффициенты при a_0 и вычитая из второго уравнения первое, получим:

$$a_0 + 66{,}6a_2 = 97{,}85$$
$$\underline{a_0 + 11{,}80a_2 = 100{,}28}$$
$$5{,}24a_2 = 2{,}43$$
$$a_2 = 0{,}47.$$

Теперь найдем a_0:

$$9a_0 + 60 \times 0{,}47 = 880{,}8$$
$$a_0 = 94{,}73$$

Подставим вычисленные параметры в параметры в уравнение параболы:

$$\bar{y}_t = 94{,}73 + 5{,}53t + 0{,}47t^2.$$

Подставляя в данное уравнение значение t, вычислим теоретические уровни ряда $\bar{y}_t$:*

$$\bar{y}_t = 94{,}73 + 5{,}53(-4) + 0{,}47(-4)^2 = 102{,}25 - 22{,}12 = 80{,}13$$ и т. д.

Выполнив расчеты, последовательно найдем теоретические уровни ряда, которые выражают общую тенденцию развития.

Для оценки [3]степени приближения теоретических уровней к фактическим необходимо исчислить корреляционное отношение

$$\eta = \sqrt{1 - \frac{2{,}263}{1921}} = 0{,}99.$$

Высокое значение корреляционного отношения указывает на то, что кривая подобрана правильно, а теоретические и фактические значения y тесно связаны. В[4] расчете t-критерия Стьюдента в данном случае необходимости нет, поскольку связь очень высокая, и ошибка коэффициента регрессии будет незначительной. Это дает право для прогнозирования объема товарооборота применить уравнение параболы.

Продолжив нумерацию лет, получим следующие значения t:

$$t_{2026} = +5;\ t_{2027} = +6.$$

Тогда прогнозируемый объем товарооборота для этих лет будет равен:

$$\bar{y}_{t_{2026}} = 94{,}73 + 5{,}53 \cdot 5 + 0{,}47 \cdot 5^2 = 134{,}0$$ млн. руб.

$$\bar{y}_{t_{2027}} = 94{,}73 + 5{,}53 \cdot 6 + 0{,}47 \cdot 6^2 = 144{,}7$$ млн. руб.

Следует иметь в виду, что прогноз тем точнее, чем короче период экстраполяции.

Литература

1. Колемаев В.И. и др. Теория вероятностей и математическая статистика. Учеб. пособия. –М.: «Высшая школа» 1991.
2. Баканов М.И., Мельник М.В., Шеремет А.Д. Теория экономического анализа. Учебник. / Под ред. М.И. Баканова. - М.: “Финансы и статистика” , 2007.
3. Щедрин Н.И., Кархов А.Н. Экономико-математические методы в торговле. - М.: Экономика. 1980.
4. Гмурман И.Е. Теория вероятностей и математическая статистика. Учеб. пособия. –М.: «Высшая школа» 2009.

A.N.Xoliqulov – SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasi mudiri,i.f.n., professor, “Ipak yo‘li” Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasi professori

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorligini oshirishning ko‘p omilli tahlili

Annotatsiya: makolada xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorligini oshirishning ko‘p omilli korrelyatsion-regression tahlili, xizmat ko‘rsatish sohasi umumiy tushumi ko‘rsatkichining o‘zgarishiga ta’siri aniqlangan.

Kalit suzlar: iqtisodiy o‘sish, samaradorlik, xizmat, xizmat ko‘rsatish, xizmatlar sohasi, xizmat ko‘rsatish korxonalari raqobatbardoshligi.

Аннотация: В статье проведен многофакторный корреляционно-регрессионный анализ повышения эффективности предприятий сферы услуг, определен эффект изменения показателя совокупной выручки сферы услуг.

Ключевые слова: экономический рост, эффективность, сервис, оказание услуг, сфера услуг, конкурентоспособность предприятий сферы услуг.

Annotation: In the article, a multi-factor correlation-regression analysis of improving the efficiency of service enterprises, the effect of the change in the indicator of the total revenue of the service industry is determined.

Keywords: economic growth, efficiency, service, service provision, service sector, competitiveness of service enterprises.

Kirish. Sohalarning rivojlanishi qachon sodir bo‘ladi, qachonki shu sohada manfaatdorlik, ya’ni samaradorlik yuqori bo‘lsa rivojlanish sodir bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda xizmat ko‘rsatish sohasi muhim drayverga aylanishiga, ya’ni kelajakda yanada rivojlanishiga asosiy sabablardan biri, bu sohada kam harajat qilib yuqori daromad olish imkoniyati mavjudligida. Bundan tashqari mamlakatimizda ishsizlikni ta’minlashda eng asosiy omillardan biri ekanligidadir.

Har qanday sohaning istiqbolini aniq belgilash uchun aniq raqamlar orqali matematik usullarni qo‘llagan holda bir qancha amallarni bajarishga to‘g‘ri keladi. Shu maqsadda mamlakatimiz hamda Samarqand viloyati bo‘yicha xizmat ko‘rsatish sohasida umumiy tushumga omillar ta’sirini aniqlab chiqdik.

Xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash uchun natijaviy ko‘rsatkich sifatida uning umumiy tushumi olindi. Xizmat ko‘rsatish sohasi umumiy tushumi ko‘rsatkichining o‘zgarishiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan quyidagi omillar tanlab olindi:

X_1- Aholi daromadlari (umumiy), mlrd.so‘m;
X_2- Qayta moliyalash stavkasi, foiz;
X_3- Xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar soni, dona;
X_4- Xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan aholi soni, ming kishi;
X_5- Xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan aholining mehnat unumdorligi darajasi;

X_6 – So‘mning xorijiy valyutaga nisbatan kursi (AQSh dollariga nisbatan) so‘m;

X_7- Umumiy investitsiyalar miqdori, mlrd.so‘m;

X_8- Inflyatsiya darajasi, foiz;

U – Xizmat ko‘rsatish sohasida umumiy tushum, mlrd. so‘m.

Ushbu omillarning natijaviy ko‘rsatkichga, ya’ni xizmat ko‘rsatish sohasida umumiy tushum o‘zgarishiga ta’sirini aniqlash uchun korrelyatsiya va regressiya tahlili usullaridan foydalanildi. Mamlakatimizda Samarqand viloyati xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlangan xududlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham eng avvalo biz Samarqand vilotida xizmat ko‘rsatish sohasida umumiy tushumni oshirish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz. Bunda tahlil qilish uchun guruhlar bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar jamlandi (1-jadval).

1-jadval

Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy ko‘rsatkichlar (2000-2020 yil ma’lumotlari asosida)[51]

	Y	X1	X2	X3	X4	X5	x6	x7	X8
2001	748,7	3426,30	24	3325	106,7	7,017	688,00	61,6	26,6
2002	798,2	3522,40	30	3510	109,266	7,305	970,00	63,9	21,6
2003	826,6	3746,20	26	3751	111,623	7,405	980,00	110,2	3,8
2004	856,4	3824,20	19	4021	116,601	7,345	1058,00	157,1	3,7
2005	912,3	4021,50	16	4264	118,741	7,683	1180.0	203,5	7,8
2006	1028,9	4556,80	15	4577	121,574	8,463	1240,00	233,4	6,8
2007	1287,4	5021,40	14	5786	177,01	7,273	1291,23	305,5	6,8
2008	1541,2	5896,20	14	6077	180,159	8,555	1393,00	403,7	7,8
2009	1692,7	7015,70	14	6763	192,956	8,772	1511,40	551,4	7,4
2010	1 799,3	7912,80	14	7287	199,626	9,013	1640,00	1083,1	7,3
2011	2 336,9	6408,70	12	7778	202,893	11,518	1795,00	1345,6	7,6
2012	3 080,7	7861,50	12	8210	204,885	15,036	1985,46	1586,0	7,0
2013	3 983,4	9494,10	12	8756	207,819	19,168	2202,20	2127,6	6,8
2014	5 065,9	10976,10	10	9479	211,217	23,984	2422,40	2540,4	6,1
2015	5 832,9	10683,60	9	10427	214,89	27,144	2809,98	3237,2	5,6

[51] Самарқанд вилояти “Статистика” бошқармаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисоб-китоб қилинган.

2016	7 200,5	14229,20	9	11584	220,213	32,698	3231,48	3623,5	5,7
2017	8 343,2	18257,90	11,5	13142	227,068	36,743	8120,07	4384,2	14,4
2018	10043,5	29260,00	14,5	15655	236,877	42,4	8336,25	7061,4	14,3
2019	12786,8	34951,20	16	20517	251,215	50,9	9507,56	10266,7	15,2
2020	14086,1	40655,10	15	25614	263,919	53,373	10476,92	14656,4	11,1

Odatda natijaning o‘zgarishi bir qancha omillar bilan staxostik (bilvosita) tarzda bog‘lanadigan bo‘lsa, bunday bog‘lanish statistikada korrelyatsion bog‘lanish deb aytiladi. Bunday holda omillarning ta’sirini korrelyatsiya va regressiya usullarini qo‘llab aniqlash mumkin bo‘ladi. Biroq natijaga juda ko‘p omillar ta’sir qiladi. Ammo amaliyotda barcha omillarning ta’sirini aniqlash biroz murakkab. Birinchidan, juda ko‘p omillarni hisobga olish, ularni raqamlarda ifodalash qiyin bo‘lsa, ikkinchidan barcha omillar bo‘yicha hisob-kitoblar olib borilmaydi. Shu tufayli tahlil jarayonida hisobga olinishi mumkin bo‘lgan va asosiy, deb baholanidigan omillargina tahlil qilinadi. Ma’lum natijaga ta’sir etuvchi belgilar omillar, omillar ta’sirida shakllangan belgi natija deyiladi[52].

Natijaviy ko‘rsatkichga omillar ta’sirini aniqlashda asosan juft korrelyatsiya qo‘llaniladi. Juft korrelyatsiyani aniqlash bizga bir-birin takrorlaydigan omillarni aniqlash imkonini beradi hamda natijaviy ko‘rsatkichga ta’sir etish darajasi kuchsiz bo‘lgan omillarni aniqlash uchun foydalaniladi. Ushbu usul bilan juft korrelyatsiyani aniqlash orqali regressiya tenglamasiga kiritiladigan omillarni aniqlab olamiz va ularni regressiya tenglamasiga kiritamiz.

Buning uchun quyidagi juft koeffitsient korrelyatsiya formulasidan[53] foydalanildi:

$$r = \frac{\overline{YX} - \overline{Y} * \overline{X}}{\sigma_Y * \sigma_X} \qquad (1)$$

Bunda $\overline{Y}$, $\overline{X}$, – natijaviy va omillarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar-ning o‘rtacha miqdorlari;

$\overline{YX}$ – natija bilan omillarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarninng ko‘paytmasi;

σ_u, σ_x -natijaviy va omillarning o‘rtacha kvadratik chetlanishi.

Koeffitsient korrelyatsiyaning miqdori (-1)dan (+1)gacha oraliqdagi bog‘liqlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Koeffitsientning miqdori quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Koeffitsient korrelyatsici (-1) va (+1)ga qancha yaqin bo‘lsa natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik shuncha zich bo‘ladi.

2. Agar r = 0 bo‘lsa bular o‘rtasidagi bog‘liqlik yo‘q, degan xulosa uchun asos bo‘ladi.

[52] Худайбердиев У.Х., Холиқулов А.Н., Бабаназарова С.А. Статистика. Дарслик. Фан булоғи нашриёти. Самарқанд. 2022. – 113-123-бетлар.

[53] Статистика: учебник. / под ред. С.А.Орехова. – М.: Эксмо, 2010. – с. 172.

3. Agar 0 < r < 1 bo‘lsa ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqliq bevosita to‘g‘ri bo‘lib, bir xil yo‘nalishga ega bo‘ladi.

4. -1< r < 0 bo‘lsa ular o‘rtasidagi bog‘liqlik teskari ekanligini ko‘ramiz.

5. r = 1 (-1) bo‘lsa ular o‘rtasidagi bog‘liqlik funksional, degan xulosaga kelish uchun asos bo‘ladi.

Ushbu formuladan foydalangan holda kompyuterdagi “*Ekzel* dasturi”ni va ayrim amallarni qo‘llab o‘zaro takrorlanuvchi omillarni aniqlash uchun quyidagicha juft korrelyatsiya koeffitsentlari matritsasi tuzildi (2-jadval).

2-jadval

Samarqand vilotida xizmat ko‘rsatish korxonalarining umuiy tushumi va o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarning o‘zaro bir-biri bilan juft korrelyatsion bog‘liqligi[54]

	Y	X1	X2	X3	X4	X5	X6	X7	X8
Y	1	0,9739	-0,3551	0,9797	0,8201	0,9966	0,9599	0,9623	0,1575
X1		1	-0,2451	0,9799	0,7680	0,9570	0,9685	0,9841	0,1997
X2			1	-0,3725	-0,7050	-0,3612	-0,2416	-0,2342	0,5198
X3				1	0,8471	0,9609	0,9446	0,9845	0,1042
X4					1	0,8056	0,7430	0,7463	-0,1203
X5						1	0,9516	0,9411	0,1609
X6							1	0,9380	0,2464
X7								1	0,1716
X8									1

Tanlab olingan va regressiya tenglamasiga kiritilgan omillar o‘zaro chiziqli yoki juda kuchli korrelyatsion bog‘lanishda bo‘lsa, ular ma’lum darajada bir-birini takrorlashi natijasida regressiya ko‘rsatkichlari buziladi. Shu sababli barcha omillarning o‘zaro bog‘lanish kuchi juft korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash yo‘li bilan aniqlanib, bir-birini takrorlaydigan omillar tenglamadan chiqarib tashlanadi. Keyin esa regressiya tenglamasining ma’lum parametrlari (a_0, a_1, a_2, … a_n) aniqlanadi.

Gretl dasturi yordamidagi dastlabki tahlildan so‘ng regressiya tenglamasini tuzishda natijaviy ko‘rsatkich (U) va X3 omildan foydalanish kerakligini aniqlab oldik. Ko‘p omilli regression tenglama quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\boldsymbol{Y = \beta_1 X3 + C + u} \qquad (2)$$

Bunda: β_1- $X3$ omil uchun koeffitsient

C – erkin had

u – hisobga olinmagan omillar xatoligi

Olingan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ushbu modelimiz bir jinsli (monoskidostichnыy), chunki ushbu test uchun r-qiymat 0.006 ga teng[55].

[54] Манба: Самарқанд вилояти статистика бошқармаси маълумотлари асосида муаллифнинг ишланмаси.

[55] Jeffrey M. Wooldridge Introductory Econometrics: Modern Approach, USA South-Western Publisher, 2003. p.259-261

Yuqoridagi o‘tkazilgan tahlillar natijasida shuni aytishimiz mumkinki, tuzilayoytgan regressiya tenglamasi iqtisodiy jihatdan mazmunga ega va u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Y=0.694985*X3 – 2060.46

Regressiya chiziqli tenglamasi parametrlarining mohiyatli ekanligini tekshirishda t mezonlaridan foydalaniladi. Buning uchun har bir parametrga mos kelgan t ning haqiqiy qiymatlarini quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi[56].

$$t_{a0} = \frac{a_0\sqrt{n-2}}{\sigma_k}; \quad (3) \qquad t_{a1} = \frac{a_1\sigma_x\sqrt{n-2}}{\sigma_k}; \quad (4)$$

Styudent me’zoni bilan tekshirish uchun biz t_f ni aniqlab olishimiz kerak. t_f quyidagi formula[57] yordamida topildi:

$$t_\phi = R\sqrt{\frac{n-p-1}{(1-R^2)}} \quad (5)$$

Hisob-kitoblar quyidagi natijalarni berdi. Ishonchlilik darajasi r = 0,95 bo‘lganda t- Styudent mezonining jadval qiymati t_j = 2,845 bo‘ladi. Bizda t_f=20,75 ni tashkil etdi. Demak, $t_f > t_j$ (20,75> 2,845). Bu esa, hosil qilingan tenglamamiz natijaviy ko‘rsatkich bilan omillar o‘rtasidagi bog‘lanishni to‘g‘ri ifodalanganligidan dalolat beradi.

Korrelyatsiya indeksining mohiyatli ekanligini Fisher (G‘) mezoni bilan tekshiriladi. Mezonning (G‘haq) qiymati

$$F = \frac{i^2}{1-i^2} * \frac{n*m}{m-1} \quad (6)$$

formula yordamida aniqlanib, uning jadvaldagi qiymati bilan taqqoslanadi. Fisher mezonining haqiqiy qiymati 430,6331 ga tengligi formula hamda Gretl dasturi yordamidan aniqlandi. Jadvaldagi qiymati esa 4,41 ga teng[58]. Demak, $G‘_{haq} > G‘_j$ (430,6331 > 4,41). Bundan ko‘rinib turibdiki, xizmat ko‘rsatish korxonalarning bir yillik o‘rtacha daromadi bilan unga ta’sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi bog‘lanish mohiyatlidir.

Tahlillarga ko‘ra ushbu model uchun determinatsiya koeffitsienti R^2=0.9598 ga teng. Ya’ni X3 omilning kelajakdagi o‘zgarishi U o‘zgarishining qariyb 96% izohlab bera oladi, qolgan 4% bu hisobga olinmagan faktorlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Yuqoridagi regressiya tenglamasidan shunday xulosa qilish mumkinki, X3 omilning 1 birlikka o‘zgarishi natijaviy ko‘rsatkichning 0.69 birlikka o‘zgarishiga olib keladi.

Yuqoridagi tahlillar natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida umumiy tushumni oshirish uchun eng avvalo viloyatda faoliyat yuritayotgan xizmat ko‘rsatish korxonalari sonini qo‘paytirishimiz lozim.

[56] Абдуллаев Ё. Статистика назарияси. Т. Меҳнат. 2000. – Б. 212.
[57] Кристофер Доугерти. Введения в эконометрику. Учебник. М: Инфра-м. 2009 – С. 111-115.
[58] Абдуллаев Ё. Статистика назарияси. Т. Меҳнат. 2000. – Б-429.

VII SHO‘BA. XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA RAQOBATBARDOSH KADRLARNI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.

To’lqin Yahyoyev *–i.f.f.d., dotsent v.b., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

QURILISH XIZMATLARINI KO’RSATUVCHI KORXONALARDA MEHNAT RESURSLARI QIYMATINI ANIQLASH HAMDA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Annotatsiya*: Ushbu maqolada qurilish korxonalarida mehnat resurslarini baholash va ularning qiymatini aniqlashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor xodimlarning ish samaradorligini oshirish, loyihalarni belgilangan muddatda va sifatli bajarish, shuningdek, mehnat resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlariga qaratilgan. Maqolada mehnat resurslarining moliyaviy va nomoliyaviy qiymatini hisoblash usullari, KPI tizimi, raqamli monitoring vositalari hamda samaradorlikni baholash metodikasi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: mehnat resurslari, qiymat, samaradorlik, KPI, HRM, qurilish korxonasi, monitoring, nazorat.*

Аннотация*: В статье анализируются теоретические и практические аспекты оценки стоимости и эффективности использования трудовых ресурсов в строительных организациях. Основное внимание уделено повышению производительности труда, своевременному и качественному выполнению проектов, а также эффективному использованию трудового потенциала. Рассмотрены методы расчета стоимости трудовых ресурсов, KPI, цифровой мониторинг и методика оценки эффективности.*

Ключевые слова*: трудовые ресурсы, стоимость, эффективность, KPI, управление персоналом, строительная организация, мониторинг, контроль.*

Abstract*: This article analyzes the theoretical and practical aspects of evaluating the value and efficiency of labor resources in construction enterprises. Particular focus is given to improving employee productivity, ensuring timely and quality project completion, and using labor potential efficiently. Methods for calculating labor resource value, KPI systems, digital monitoring, and performance assessment methodology are discussed.*

Keywords*: labor resources, value, efficiency, KPI, HRM, construction enterprise, monitoring, control.*

Qurilish korxonalarida mehnat resurslarining qiymatini aniqlash va samaradorligini baholash tizimi strategik ahamiyatga ega. Bu nafaqat ish haqi va moddiy rag‘batlar bilan bog‘liq, balki xodimlarning ish sifati, malakasi va loyiha natijalariga ta’sirini hisobga oladigan murakkab jarayondir.

Qurilish korxonalarida mehnat resurslari qiymatini aniqlash va ularning samaradorligini baholash strategik jihatdan muhim jarayon hisoblanadi. Qurilish loyihalari ko‘pincha murakkab, uzoq muddatli va yuqori mehnat talab qiladigan jarayonlardan iborat bo‘lib, har bir xodimning roli va samaradorligi loyiha muvaffaqiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Shu sababli korxonalar uchun

mehnat resurslarini moliyaviy va nomoliyaviy jihatdan baholash zarurati doimiy ravishda mavjud.

Mehnat resurslari qiymatini aniqlash xodimlarning ish haqi, bonus va qo‘shimcha to‘lovlari, malaka oshirish va trening xarajatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu qiymat korxona moliyaviy rejalashtirish, smeta tuzish va loyiha xarajatlarini nazorat qilishda asosiy indikator sifatida xizmat qiladi. Samaradorlikni baholash esa xodimlarning ish hajmi, sifat ko‘rsatkichlari va loyiha muddatlariga rioya qilishni o‘lchash orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga KPI (Key Performance Indicators) tizimi va raqamli monitoring vositalari xodimlarni natijaga yo‘naltirish va ish jarayonini samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Bu jarayonning ahamiyati bir necha jihatdan ko‘rinadi: birinchidan, mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqali korxona ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va loyiha muddatlariga rioya qilinishini ta’minlaydi; ikkinchidan, xodimlarning ish sifati va natijadorligini o‘lchash orqali malakali mutaxassislarni saqlash va ularning motivatsiyasini oshirish imkonini beradi; uchinchidan, moddiy va nomoddiy rag‘batlar bilan uyg‘unlashtirilgan tizim xodimlarning uzoq muddatli sodiqligini ta’minlaydi va korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Mehnat resurslari qiymati xodimlarning ish haqi, bonus va qo‘shimcha to‘lovlar, shuningdek, trening va malaka oshirish xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Qurilish korxonalarida mehnat qiymatini aniqlash quyidagi elementlar orqali amalga oshiriladi.



1-rasm. Qurilish korxonalarida mehnat qiymatini aniqlash elementlari

Ish haqi va mukofotlar: xodimning lavozimiga, malakasiga va loyihadagi roli bilan belgilanadi.

Malaka oshirish xarajatlari: trening, sertifikat va kurslarga sarflangan mablag‘lar.

Ijtimoiy xarajatlar: sug‘urta, ish sharoitini yaxshilash, hududiy kompensatsiyalar.

Qurilish xizmatlarini ko’rsatuvchi korxonalarda mehnat resurslari samaradorligini baholashda quyidagi indikatorlar ishlatiladi

✓ Ish hajmi va loyiha muddatlariga rioya qilish – loyiha belgilangan vaqt ichida tugatilganmi yoki yo‘qmi.

✓ Ish sifati – bajarilgan ishlar standart va texnik talablar asosida tekshiriladi.

✓ Ish unumdorligi – har bir xodim yoki brigada tomonidan bajarilgan ish miqdori va sifati.

✓ KPI tizimi – xodimning individual va jamoaviy natijalarini o‘lchashga imkon beradi.

Zamonaviy qurilish korxonalarida HR-analitika vositalari orqali xodimlarning ish samaradorligi real vaqt rejimida kuzatiladi. Bu nafaqat nazorat qilish, balki xodimlarni rag‘batlantirish va resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi.

Samaradorlik baholashda moliyaviy omillar – ish haqi, bonus va mukofotlar; nomoliyaviy omillar – malaka, trening, jamoaviy ruh, ish muhitining ijobiyligi hisobga olinadi. Qurilish korxonalarida nomoliyaviy rag‘batlantirish xodimlarni uzoq muddatli sodiqlikka va loyiha sifatiga rag‘batlantiradi.

Elektron kadrlar bazasi, loyiha boshqaruvi dasturlari va ish vaqti monitoringi tizimlari mehnat resurslari samaradorligini baholashni soddalashtiradi. KPI tizimi xodimning ish hajmi, sifat va loyiha muddatlariga rioya qilishini kuzatadi. Bu esa rahbarlarga aniq qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Xulosa

Qurilish korxonalarida mehnat resurslari qiymatini aniqlash va ularning samaradorligini baholash tizimi korxonaning strategik boshqaruvi va ishlab chiqarish natijalarini yaxshilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Loyihalar ko‘pincha murakkab va uzoq muddatli bo‘lib, xodimlarning malakasi, ish hajmi va motivatsiyasi loyiha sifatini bevosita belgilaydi. Shu sababli mehnat resurslarining moliyaviy va nomoliyaviy qiymatini aniqlash, shuningdek, ularning samaradorligini muntazam baholash korxona rahbariyati uchun zaruriy nazorat va rejalashtirish vositasiga aylanadi. Mehnat resurslarini baholash orqali korxona bir nechta muhim maqsadlarga erishadi: birinchidan, ishchi kuchidan samarali foydalanish va loyihalarni belgilangan muddatda yakunlash; ikkinchidan, xodimlarning natijadorligini va ish sifati ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish; uchinchidan, malakali va tajribali kadrlarni saqlash, ularni moddiy va nomoliyaviy rag‘batlar orqali motivatsiyalash; to‘rtinchidan, loyiha xarajatlarini nazorat qilish va moliyaviy samaradorlikni oshirish.

Shuningdek, samaradorlikni baholash tizimi xodimlar va rahbariyat o‘rtasida shaffof va aniq kommunikatsiyani ta’minlaydi, jamoaviy ruhni kuchaytiradi va korxona ichidagi ish muhitini yaxshilaydi. KPI tizimi va raqamli monitoring vositalarining tatbiqi xodimlarning individual va guruh bo‘yicha natijalarini o‘lchash imkonini beradi, bu esa qarorlar qabul qilishni optimallashtiradi va resurslarni loyihaga moslashtirishni osonlashtiradi.

Natijada, mehnat resurslarini baholash va ularning qiymatini aniqlash tizimi korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, loyiha sifatini va muddatga

rioya qilishni ta’minlash, xodimlarni rag‘batlantirish va uzoq muddatli sodiqligini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu bois, har bir qurilish korxonasi uchun mehnat resurslari qiymatini aniqlash va samaradorligini baholash tizimini tizimli, shaffof va raqamli vositalar bilan qo‘llab-quvvatlash majburiydir.

Takliflar

1. Qurilish korxonalarida xodimlarning mehnat qiymatini hisoblashda barcha moliyaviy va nomoliyaviy xarajatlarni inobatga olish.
2. KPI tizimini joriy etish va xodimlarning natijadorligini real vaqt rejimida monitoring qilish.
3. Nomoliyaviy rag‘batlar tizimini kengaytirish – treninglar, sertifikatlar, malaka oshirish va jamoaviy rag‘batlantirish.
4. Moliyaviy rag‘batlar bilan birgalikda samaradorlikni baholash va bonus tizimini loyihaga yo‘naltirish.
5. HR-analitika va raqamli monitoring vositalarini keng qo‘llash, xodimlar samaradorligini tahlil qilish va qarorlar qabul qilish jarayonini optimallashtirish.

Adabiyotlar:

1. Michael Armstrong. Armstrong's Handbook of Human Resource Management Practice. 15th Edition. London: Kogan Page, 2020.
2. Gary Dessler. Human Resource Management. 16th Edition. Pearson, 2021.
3. Wayne Mondy. Human Resource Management. 15th Edition. Pearson, 2019.
4. International Labour Organization. Guidelines on Occupational Safety, Health and Human Resource Management in Construction. Geneva: ILO, 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Tashkent: Adolat Nashriyoti, 2023.
6. John P. Campbell. Motivation and Performance in Construction Organizations. New York: Routledge, 2021.
7. Stephen Taylor. Resourcing and Talent Management in Construction. London: CIPD, 2020.
8. Peter Boxall. Human Resource Management and Performance: Theory and Practice. Oxford: Oxford University Press, 2019.

Узакова Вазира Саидмурадовна, PhD – *Самаркандский институт экономики и сервиса*

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ВЫПУСКНИКОВ ВУЗОВ: ОПЫТ АЗИАТСКИХ СТРАН ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

